



KBK: 86.38g+87.3

UO'K: 28-725-741(09)

R 28

RAXMONOV ABDUQAHHOR ABSATTOROVICH

MONOGRAFIYA

YOQUB ABU YUSUFNING
IJTIMOIY-FALSAFIY
QARASHLARI

TERMIZ - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ FILIALI

RAXMONOV ABDUQAHHOR ABSATTOROVICH

**YOQUB ABU YUSUFNING IJTIMOY-FALSAFIY
QARASHLARI**

MONOGRAFIYA

Termiz - 2024

KBK: 86.38g+87.3
UO'K: 28-725-741(09)
R 28

Raxmonov Abduqahhor

Raxmonov, A.A. Yoqub Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy qarashlari [Matn] / A.A. Raxmonov; muharrir M. Qodirov.-Termiz: Research science and innovation house, 2024.-111 b

Monografiyada islom olamida Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo'lgan Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Kufiyning hayoti va ijodi, faoliyati, hanafiylikning yoyilishida mutafakkirning xizmatlari, mutafakkir tomonidan olib borilgan ishlar, xususan ilk islom davridagi soliq tizimi masalalariga e'tibor qaratilgan. Abu Yusufning —Kitob al-xarojll asarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot, diniy-falsafiy va islom soliq tizimiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, VIII – IX asrlarda Musulmon sharqidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ilk abbosiylar xalifaligi davrida madaniy-ma'rifiy aloqalar, Abu Yusuf qarashlari xalq farovonligi va ijtimoiy adolat g'oyasining iqtisodiy-falsafiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Monografiya falsafa tarixi, dinshunoslik, manbashunoslik, siyosatshunoslik, islom moliyasi tarixi bilan qiziqadigan tadqiqotchilar va keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Muhammadjon Qodirov,
falsafa fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

Gulnoza Ro'zmatova
falsafa fanlari doktori, professor
Yelena Saxunovskaya
falsafa fanlari nomzodi

ISBN: 978-9910-9378-2-8

Monografiya Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Ilmiy kengashining 2023-yil 31 oktyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida tavsiya etilgan. (Bayonnoma №3)

“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” nashriyoti, 2024

MUQADDIMA

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida barpo etish, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, munosib hayot kechirishga zarur sharoitlar yaratishga oid keng islohotlar amalga oshirilmoqda. “Avvalambor, Yangi O‘zbekiston strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo‘ladigan tarixiy-ma’naviy omil, ya’ni bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati mavjudligidir. Jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma’naviy meros dunyo madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shilgani ma’lum. Aynan ana shu omil Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma’naviy va madaniy faoliyat, ta’lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo‘lmoqda”¹. Ayniqsa, Yoqub Abu Yusuf ta’limotidagi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va majburiyatlari, halol va adolatli boshqaruv tizimi, xalq farovonligini ta’minlash siyosatiga oid qarashlari yurtimizda barqaror taraqqiyotni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Yusufning ilmiy merosini o‘rganish sharqshunos olimlarda XX asrning 30-yillaridan boshlab katta qiziqish uyg‘otdi. Abu Yusuf tomonidan bir qancha asarlar yozib qoldirilgan bo‘lsa-da, uning yerga egalik qilish bo‘yicha ilk xalifalik davridagi yagona manba bo‘lgan “Kitob al-xaroj” asari ancha mashhur bo‘lib, unda Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy qarashlari hamda uning mamlakat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi juda yaxshi yoritilgan.

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asari ilk marotaba 1885-yil Yevropada Bulak bosmaxonasida arabchada nashr etildi. Keyinchalik, 1921-yil E.Faryan tomonidan fransuz tiliga tarjima qilindi. 1928-yil Misrda bosib chiqarildi. 1939-yil professor A.E. Shmidt uni rus tiliga o‘girdi. Biroq uni o‘z ko‘rsatmalari va izohlari bilan taqdim etishga ulgirmadi. Professor Shmidtning tarjimalari E.A.Razunovskiy tomonidan tartiblandi. Akademik Krachkovskiy o‘zining bir maqolasida shunday

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B.34-35.

deydi: “So‘nggi yillarda A.E. Shmidt SSSR FA Sharqshunoslik Instituti tashabbusi bilan VIII – IX asrlardagi xalifalikning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bo‘yicha eng asosiy manbalardan biri bo‘lgan, Horun ar-Rashid davrida qozi bo‘lib ishlagan Yoqub Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asari ustida zo‘r qiziqish bilan ishladi. Qo‘lyozmani tarjima qilish to‘liq yakunlandi, uni nashr etsa bo‘ladi. Lekin tarjimonning vafoti qo‘lyozmani ilmiy tekshiruv olib borishga halal berdi, biroq qo‘lyozma tarjimasining ba’zi joylariga izoh va ko‘rsatmalar bermay turib uni nashr etib bo‘lmaydi.”² To‘satdan ikkinchi jahon urushining boshlanib qolishi uni chop etish imkonini bermadi. Uni tartiblagan Razunovskiy esa Toshkentda ma’lum bir muddat yashab qolishga to‘g‘ri keldi.

Xuddi shu vaqtda Yevropalik sharqshunoslar Vorms, Berxema va boshqalar uni tadqiq etdilar. Xususan, 1969-yil A.Ben Shemesh tomonidan ingliz tiliga tarjima qilindi. Abu Yusufning iqtisodiy qarashlari musulmon olimlari A.A.Islohiy, M.N. Siddiqiylarning asarlarida batafsil ko‘rib chiqilgan. Professor M.N. Siddiqiy uni urdu tiliga tarjima qildi va 1966-yili nashr ettirdi.

XX asrning 80-yillar o‘rtalariga kelib sovet sharqshunoslari orasida Abu Yusufning ilmiy merosiga qiziqish kuchaydi. SSSR FA Sharqshunoslik Instituti arab tili kafedrasida xodimi A.S.Bogolyubov ancha mashaqqat bilan “Kitob al-xaroj” asarini arab tilidan tarjima qilib chiqdi. U nafaqat A.E.Shmidtning tarjimalariga o‘z sharhlarini qo‘shdi, balki o‘zining tarjimasini bilan solishtirgan holda ikki xil tarjimadagi bahsli joylarga aniqlik kiritdi. Bogolyubov 1990-yil vafot etdi. Uning ishini Sankt-Peterburglik sharqshunoslar nihoyasiga yetkazishdi va 2001-yil u rus tiliga kitob holida chop etildi.

Bu asarning qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutida 9325(II) raqami ostida saqlanadi. Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy qarashlari o‘zbek sharqshunoslari tomonidan maxsus tadqiq etilmagan. Uning fiqhiy qarashlari, hayoti va ijodi professor Juzjoni tomonidan o‘rganilgan xolos. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj”

² Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. М.: Из-во АН СССР., 1958. - С.167-168.

asari ilk bor 2021-yil O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasini bo‘limi ilmiy xodimasi A.Mannapova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Jahon ilm-fani ma’naviy merosi rivojiga ulkan hissa Abu Yusufning ilmiy faoliyati va ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida barpo etish, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, munosib hayot kechirishga zarur sharoitlar yaratishga oid keng islohotlar amalga oshirishda munosib hissa qo‘shadi.

Raxmonov Abduqahhor Absattorovich

I BOB. VIII-IX ASRLARDA ISLOM IQTISODIYOTI NAZARIY-FALSAFIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI

O'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy tafakkuri o'z davriga xos tarixiy va g'oyaviy sharoitlar taqozosi bilan vujudga kelgan. U falsafiy ta'limotlar hamda ma'naviy-axloqiy hayot tarzini belgilovchi diniy mafkura asosida shakllangan va rivojlangan.

VII asrning boshlarida ko'p sonli arab qabilalarining islom bayrog'i ostida birlashuvi natijasida arab xalifaligi vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq mamlakatning taraqqiy etishi Abbosiylar sulolasi hukmronligining ilk davriga to'g'ri keladi. Biz diqqatimizni bu sulolaning dastlabki ellik yiliga e'tibor qaratamiz. Chunki, Abu Yusuf shu davrda yashab, ijod qilgan va o'z faoliyatini olib borgan.

Abu Yusuf VIII asrning so'nggi choragida yashagan islom olamidagi eng muhim shaxslaridan biridir. U islom ilm-fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir bo'lib, fiqh ilmi maktablaridan biri bo'lgan hanafiylik mazhabining taraqqiy etishida uning xizmatlari katta hisoblanadi.

Abu Yusuf yashagan davr islom olamida Ummaviylar va ilk Abbosiylar boshqaruvi davri hisoblanadi. Xalifalikda notinchliklar bo'lsa-da, biroq islomiy bilimlar muhiti saqlanib qolgan edi. Abu Yusuf o'z davrining siyosiy, diniy, ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhiti mahsulidir. Shunga ko'ra uning qarashlari aks ettirilgan fikrlar, muammo va takliflar uning ilmiy metodologiyasini aks ettiradi. Chunki uning hayotligida hali bir qancha sahobalar va tobe'inlarning mavjudligi ularning izidan yetishib chiqayotgan ulamolar uchun ilmlarni saqlab qolish imkoniyatini bergan. Mana shunday ulamolardan biri Abu Hanifa bo'lib, Abu Yusuf bu olimning eng yaxshi shogirdi hisoblanadi.

1.1. İlk Abbosiylar davrida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot

Abu Yusuf ummaviy xalifa Hishom davrida dunyoga kelgan. Hishom davri istilolar va urushlar keng tarqalgan davr edi. Uning davrida zaydiylar Yaman hududida hukumatga qarshi isyon ko'tardilar. Hishom davrida qo'zg'olonlar birin-

ketin davom etdi. Xorijiyalar Mosul va uning atrofida yangi qo'zg'olonlarni boshladilar. Davlatning iqtisodiy inqirozi yuqori cho'qqiga chiqdi. Ayni vaqtda Ummaviylarga qarshi mafkurada bo'lgan Abbosiylar davlat noto'g'ri siyosat yuritayotgani haqida targ'ibot ishlarini amalga oshirdilar. Musulmon bo'lmagan aholi ham adolat istab abbosiylarni qo'llab-quvvatladilar.

Abbosiylar harakatining asosiy ishtirokchilari Xuroson arablari va Ummaviylarga qarshi kayfiyatdagi fors mavolilari³ edi. Biroq, Abbosiylar uchun eng asosiysi arab millatiga mansub ekanligi emas, balki Hoshimiylar xonadoni avlodi ekanligi muhimroq sanalgan, chunki bu dalil xalifalikni boshqarishda "Afzal ul-Bayt"⁴ ekanligini anglatardi. Bunday qarash Xuroson arablari va boshqa xalqlarning ushbu harakatdagi ishtirokida Abbosiylar kuchlarining o'zagini tashkil etgan.

Uzoq davom etgan qo'zg'olon natijasida Ummaviylarning so'nggi xalifasi Marvon (744-750) taxtdan tushirildi. Ummaviylarga qarshi qo'zg'olon Abbosiylar foydasiga hal bo'ldi.

Shunday qilib, xulfoi roshidun davridan keyin hukmronlik qilgan islom davlatidagi birinchi sulola - Ummaviylar xalifaligi (661-750) Abbosiylar tomonidan qulatildi. Abbosiylar islom davlatining yangi hukmdorlari bo'lishdi.

Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelishi bilan mamlakatda siyosiy barqarorlik ta'minlandi, iqtisod taraqqiy etdi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Xalifa Mansur (754-775) mamlakatning Sharqiy mintaqalarida vujudga kelgan qo'zg'olonlarni juda ustalik bilan bostirdi. Yangi paydo bo'layotgan boshboshdoqliklarga teran aql bilan yondashib, barcha ichki tartibsizliklarni tinchitdi va kuchli xalifalik barpo etishga erishdi⁵.

Abbosiylar xalifaligining (750-1258) asoschisi Abu al-Abbos (750-754) hisoblansa-da, biroq ikkinchi xalifa Mansur (754-768) uning haqiqiy rivojlantiruvchisi edi. U xalifalikni tiklanishida fuqarolarning hayoti, ularning

³ Mavoli – Abbosiylar inqilobi natijasida yangi ma'muriyatning asosini tashkil etgan va O'rta Sharqning mahalliy jamoalarini shakllantirgan arameylar, suriyaliklar, forslar va xristian nestoriyanlari.

⁴ Payg'ambar xonadoni vakili ma'nosini beradi.

⁵ Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London. The encyclopaedia of Islamic economics. 2009. - P.258.

yashash tarzi va ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘proq e‘tibor qaratdi. Xalifalarning bunday oqilona siyosati jamiyatning gullab-yashnashiga, ijtimoiy o‘zgarishlarni qaror topishiga sabab bo‘ldi. Davlatni endigina idora qilishni boshlagan Abbosiylar deyarli bosqinchilik urushlari olib bormaganlar. Ularning asosiy diqqat-e‘tibori xalifalikka ilgari qo‘shib olingan hududlarni saqlab qolishga qaratilgan. Ilgarigi harbiy istehkomlar fuqarolik markazlariga aylandilar; yangi iqtisodiy, ma‘muriy, ilmiy, madaniy muassasalar, shu jumladan, vazirliklar yaratildi. Bu muassasalarning vujudga keltirilishi xalifalikda hunarmandchilik, savdo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning rivojlanishi, ularning nisbatan keng miqyosda o‘sib borishi misli ko‘rilmagan iqtisodiy o‘sishga va jamiyat hayotida ayrim kishilar qo‘lida boyliklarning to‘planishiga olib keldi.

Abbosiylar iqtisodiy hayotni tiklash uchun qulay muhit yaratdilar. Ularning iqtisodiy tizimi xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va erkin savdo munosabatlariga yo‘naltirilgan bozor mexanizmlariga asoslanardi. Shuningdek, tashqi savdoga alohida e‘tibor qaratdilar. VIII asrning oxiri IX asr boshlarida arab xalifaligi o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga chiqqan edi⁶.

Xalifalar xuddi ilgarigidek mutlaq hokimiyatga ega edi. Ular nafaqat mamlakat hukmdori, balki diniy rahbar ham edilar. Xalifa hokimiyati merosiy bo‘lgan. Ulkan davlatni yaxshiroq idora etish maqsadida uning hududi viloyatlarga bo‘lingan, ularga xalifa amirlarni noib etib tayinlagan. O‘z viloyatida amirlar qo‘shin va amaldorlar apparatini boshqarishgan. Har bir amirning ikki o‘rinbosari bor edi. Ulardan biri soliqlarni yig‘ishga javobgar bo‘lsa, boshqasi – qozi – bosh sudya va xalifa diniy hokimiyatining vakili edi⁷.

Abbosiylar juda yaxshi ma‘muriy boshqaruv tizimini ishlab chiqdi. Ular vorisiylik tamoyiliga to‘la amal qildilar. Xalifa mamlakatda siyosiy hokimiyatining rahbari hisoblangan. Xalifa fuqarolarni boshqarish vakolatlarini vazirga, harbiy qo‘shinni qo‘mondon - amirga, ma‘muriyat ishlarini amilga, sud hokimiyatini

⁶ Oguz Bal. One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. Vol. 1. 2014. –P. 6. www.tujise.org.

⁷ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf’s contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. -P. 34.

qoziga topshirdi va o'zida barchasining ustidan hukm chiqarish vakolatini saqlab qoldi. Garchi bunday vakolatlar xalifaning qo'lida markazlashgan bo'lsa-da, ammo uzoq mintaqalar bilan o'zaro aloqa qilish murakkabliklar bunday markazlashtirishdan chekinishni talab etardi. Natijada viloyat hokimlariga moliya, sud va harbiy ishlarida hamda ichki xavfsizlikni ta'minlashda ma'lum vakolatlar berildi. Aloqa o'rnatish qiyinligi sababli qozi, mirshab, soliq yig'uvchi va bojxonachilar o'sha shaharning o'zidan tayinlangan. Fuqarolik ma'muriyati ishlarida vazir davlat devonini boshqargan⁸. Hukumat boshqaruvidagi murakkabliklar tufayli davlat ishlarida qattiq tartib o'rnatilgan edi.

Abbosiyarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular shaharlar bunyod etishga ustuvor ahamiyat berishgan. Abbosiylar dastlab Kufa shahrini o'zlarining hukumat markazi sifatida tanladilar⁹. Xalifa Mansur (753-773) tomonidan Dajla sohilida Bag'dod¹⁰ shahri qurildi va davlatining markazi sifatida Kufadan keyin poytaxtga aylantirildi¹¹. Xalifa Mansur uzoq vaqtdan beri yo'qolgan bu shaharni maxsus rejaga asoslangan holda bunyod etdi. Bag'dod baland devorlar bilan o'ralgan, davlat ma'muriyati, oziq-ovqat do'konlari, harbiy istehkomlar, ovqatlanish maskanlaridan iborat ulkan shahar edi. Abbosiylar davrida madaniy hayot ancha tiklandi, odamlarning hayot tarzi rivojlandi, islomiy jamiyat o'ziga xos xususiyat kasb etdi.

Bu davr Abbosiylar xalifaligining eng yorqin davri hisoblanadi. Arabiston yarimoroli ibtidoiy hayoti tarzidan chiqqan musulmonlar o'zga madaniyatlar bilan aloqa qilishdi. Garchi davlatning asl tabiati saqlanib qolgan bo'lsa-da, lekin yangi madaniyatlar bilan aloqalar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik odamlarga yaxshi turmush kechirishga olib keldi. Eng yuqorida juda hashamatli hayot kechiradigan xalifa oilasi a'zolari turar edi. Xalifalik saroyi haram va maxsus xizmatchilar uchun ko'plab qo'shimchalar bilan qurilgan va shaharning

⁸ Husaini S.A.Q. Arab Administration. Delhi., Idara Adbiyat, 1979. - P.149-150.

⁹ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. -P.15.

¹⁰ Bag'dodda nestorian monastiri va Bag'dod degan qishloq bo'lgan.

¹¹ Oguz Bal. One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. Vol. 1. 2014. -P. 6. www.tujise.org.

katta qismini egallagan edi. Musiqachilar, shoirlar, qo‘shiqchilar va raqqosalarga ortiqcha mablag‘ sarflash saroy hayotining odatiy hodisasi bo‘lgan¹². Xalifalikning o‘ta hashamatli hayotida Abbosiylar oilasining vakillari, vazirlar va amaldorlar bor edilar. Ular alohida maqom va hashamatli hayotdan zavqlanishardi.

Bag‘dodning savdo-sotiq va tijoratdagi hukmronligi halqaro ahamiyatga ega bo‘lgan markaz sifatida namoyon bo‘lishi arablarning oddiy ibtidoiy ijtimoiy tizimini o‘zgarishiga olib keldi. Shaharlarda savdogarlar va usta hunarmandlar ko‘pchilikni tashkil etardi. Mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etadigan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholini ham uchratishimiz mumkin edi.

Xalifa Abu al-Abbos davrida vazirlik lavozimi yaratilgan bo‘lib, u xalifaning maslahatchisi va buyruqlarni bajaruvchisi bo‘lgan. Biroq, boshqaruvning markazlashuvi vazirlikni vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, butun ma‘muriy tizimga ega bo‘lgan mustahkam, rasmiy boshqaruv apparatiga aylantirdi. Vazirlik devon deb yuritilgan.

Odatda Abbosiylar iyerarxiyasidagi dastlabki martabali qator quyidagilardan iborat edi: xalifa, valiahd shahzoda, vazir, viloyat hokimlari va qozi ul-quzzot (bosh qozi). Devonlar to‘rt asosiy toifaga bo‘lingan:

1) moliya devoni: xiroj devoni, xarajatlar devoni, Bayt ul-mol, sadaqotlar (xayr-ehson) devoni, diya‘a (yer) va tiraz (to‘quvchilik) devoni;

2) adliya devoni: al-qaza‘ (qozilik) devoni, mazolim (arz-shikoyatlar) devoni va hisbah (bozor nazorati) devoni;

3) xavfsizlik devoni: harbiy devon, ichki ishlar devoni va pochta xizmati devoni;

4) ma‘muriy devon: xatlar devoni, al-hatm (muhr) devoni va at-tavqi (imzolash) devoni. Har bir kichik devon vazifasiga qarab bir necha kengashlarga bo‘lingan¹³.

¹² Abu Usmon ibn Bahr al-Johiz al-Basri. Kitob ut-tabassur bit-tijora. 2 nashr. Misr. Qohira: Matbaat ur-rahmaniyya, 1935. arab tilida.

¹³ Грюнебаум, Г. Э. фон. Классический ислам. - М.: Наука. 1986. – С. 216.

Xiroj devoni, xarajatlar devoni va Bayt ul-mol (daromadlar va xarajatlarni nazorat qilish) eng muhim devonlar edi. Dastlab devonlar to'g'ridan-to'g'ri xalifaning nazorati ostida edi, biroq keyinchalik idora ishlarining sezilarli darajada ko'payganligini hisobga olingan holda, bunday nazorat qisman yoki butunlay vazirga o'tdi. Xalifa Mahdiy hukmronligi davrida ba'zi moliyaviy ishlarining nazorati devon ul-a'zimaga o'tgan. Bayt ul-mol ul-xos (xalifaning shaxsiy xazinasini) xalifaning shaxsiy xazinasini umumiy xazinadan ajratish uchun yaratilgan yana bir devon edi. Bu xalifalarga tegishli buyumlar uchun sarf-xarajatlarni amalga oshirish, shuningdek, xalifa buyrug'iga ko'ra, shaxsiy va jamoat ishlarida foydalaniladigan mustaqil muassasa hisoblangan.

Abbosiyalar xalifaligida ko'plab devonlar xalifa Mahdiy davrida tashkil etilgan¹⁴. Mana shunday devonlardan biri hisba devonidir. Uning asosiy maqsadi shariat qoidalari bo'yicha davlat mulklarini to'g'ri boshqarilishini nazorat qilish edi. Bu ijtimoiy va diniy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan edi. Ushbu devon boshlig'i muhtasib deb nomlangan. Muhtasib bozorlardagi narx-navo va axloq qoidalari nazorati bo'yicha ishlagan. U savdoda tegishli vazn va o'lchovlarni ishlatishni nazorat qilgan¹⁵.

Abbosiyalar tijorat faoliyatiga juda katta e'tibor berishgan, shuning uchun muhtasib lavozimiga taqvor va kasbini yaxshi biladigan shaxslar tanlangan. Dastlab muhtasibning vazifalariga bozorlarni umumiy ravishda o'rganish, o'zaro munosabatlar, mahsulot tannarxi, tovar va xizmatlar sifati, tosh-tarozining to'g'riligini nazorat qilish kirgan. Keyinchalik, jamiyatda odob-axloq qoidalarini saqlash, moliyaviy faoliyatni nazorat qilish va ustachilik faoliyatiga ruxsat berish kabi boshqa vazifalar ham kiritildi.

Bozorlarning iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yaxshi bilgan xalifalar bozorlar qurish uchun maxsus joylarni tanlashga va ularning infrastrukturasi yaxshilashga alohida e'tibor berishdi. Bozor joylari har xil hunarmandchilik

¹⁴ Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London: The encyclopaedia of Islamic economics. 2009. - P. 259.

¹⁵ Oguz Bal. One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. Vol. 1. 2014. -P. 9. www.tujise.org.

xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos joylashuvga ega edi. Shaharlar ichida tozalik qoidalariga katta e'tibor berilgan. Har bir hunarmandchilik sohasi bo'yicha ustaboshisi bo'lib, ular hukumat tomonidan tanlangan yoki hunarmandlar tomonidan e'tiborli deb topilgan usta saylangan. Hunarmandlar o'z urf-odatlariga ega edi, ular qozilar va bozor nazoratchilari tomonidan ularga tegishli nizolarni hal qilishda teng ravishda hurmat qilinardi. Davlat bozorlarni hamma uchun zarur infratuzilma bilan ta'minladi, xususan, Dajla daryosining ikkala tomonida savdo faoliyatini osonlashtirish uchun xalifa Horun ar-Rashid davrida yettita ko'priq qurildi¹⁶.

Hukumat davlatning asosiy daromad manbai qishloq xo'jaligi sohasi ekanligini ilk davrlardayoq anglab yetdi va unga katta e'tibor qaratdi. Ayniqsa, umumiy sug'orish tizimini yaxshilashga, tashlandiq yerlarni o'zlashtirishga, turli toshqinlardan keyin yaroqsiz holga kelib qolgan yerlarni qayta tiklashga, qishloq joylardagi yo'llarni tuzatishga katta xarajatlar sarf qilindi.

Shariatga muvofiq davlat erkin ichki savdo tamoyilini qo'llab-quvvatladi, tovar va mehnat oqimiga hech qanday cheklov qo'ymadi. Shuningdek, davlat birja faoliyatiga yoki ularning narxlariga aralashmadi, faqat ba'zi holatlarda, odatda kambag'allar manfaati uchun savdogarlar tomonidan bug'doy, un, arpa kabi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining monopollashtirilishida aralashardi. Bunday aralashuv odatda narx-navoga nisbatan qo'llanilgan. Chunki narxlar odatda siyosiy omillar, ob-havo o'zgarishi va tabiiy falokatlar tufayli o'zgarishga uchrardi, bu ayniqsa qishloq xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Iqtisodiy va transport omillari xalifalikning yangi poytaxti uchun joy tanlashda eng muhim elementlardan biri edi. Bag'dodning Dajla daryosida, eski quruqlik savdo yo'llariga va Frot daryosiga yaqin joyda joylashgani qulay quruqlik va dengiz yo'llari tarmog'ining shakllanishiga olib keldi. Davlat poytaxtni barcha viloyatlar va davlatlar bilan osongina bog'lash uchun quruqlik va dengiz yo'llarini qurish hamda savdogarlarning xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratdi.

¹⁶ Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London: The encyclopaedia of Islamic economics. 2009. - P. 259.

Shuningdek, hukumatning erkin savdo tamoyili tashqi savdoga ham tatbiq etildi. Ichki va tashqi savdo uchun teng soliq to'lovi joriy etildi. Abbosiylar xalifaligi savdo faoliyati Shimoliy Afrika, Andalusiya, Kiyev Rusi, Kaspiy dengizi hududi, Kichik Osiyo, Volga daryosi hududi, Boltiq havzasi, Fin ko'rfazi, Sharqiy Afrikadagi Mozambikkacha, Hindiston, Seylon oroli, Xitoy, Koreya, Kambodja, Shimoliy Sumatra va Malayya yarim oroligacha cho'zilgan. Hind okeani orqali tovarlarni olib kirish va eksport qilish nisbatan xavfsiz bo'lgan, chunki ular Abbosiylar dengiz floti nazorati ostiga bo'lgan. Savdo o'zaro ayirboshlash yoki naqd pul orqali amalga oshirilgan. Abbosiylar dinori va dirhami odatda tashqi savdo manzillarida, xususan, sharqiy va shimoliy Yevropada qabul qilingan. Keyinchalik sarroflik uylari savdo-sotiqda muhim rol o'ynadi. Abbosiy savdogarlari deyarli barcha savdo hududlarida savdo markazlari tashkil etishgan va ko'p miqdordagi tovarlarni, shu jumladan oltin, fil suyagi, yog'och, mo'yna, qalqon, qilich, qo'rg'oshin, ipak matolar, zig'ir yog'i, mushk, qog'oz, gilamlar, ziravorlar va boshqalarni sotishgan. Savdogarlar ichki va tashqi savdodagi ortiqcha mahsulotlarni o'zga davlatlarga eksport qilishda foydalanishgan. Tashqi savdo ayirboshlash shunchalik muvaffaqiyatli bo'lganki, o'sha davrda Bag'dod va Iskandariya bozorlari qimmatbaho tovarlar bo'yicha dunyo narxlarni belgilaganlar.

Davlat boshqaruvini yaxshilash uchun xalifalar o'z tangalarini zarb qilishgan va pochta xizmatini joriy qilishgan. Mamlakatning turli burchaklarini bog'lovchi asosiy yo'llarda "yomchi" deb ataladigan pochta qatnovlari joriy etilgan¹⁷.

Abbosiylar xalifaligida ikki xil pul tizimi ishlatilgan: dirham, kumush tanga, u asosan, Sharqiy viloyatlarda ishlatilgan, dinor, oltin tanga, u asosan, G'arbiy viloyatlarda ishlatilgan. Har ikki tanga ham qonunan bir xil og'irlikda bo'lgan va hamma joyda qabul qilingan. Dinor 4,25 grammlik oltin tanga va dirham 2,975 grammlik kumush tanga edi. Pul bilan bog'liq masalalarni, shu jumladan tangadagi oltin yoki kumush aralashmasi, og'irligi va sifatini nazorat qilish uchun mas'ul

¹⁷ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. -P. 37.

bo'lgan maxsus devon dor ul-Zarb (tangalar uyi) muassasasi tuzildi¹⁸. Pul zarb etish xalifalarning bevosita nazorati ostida bo'lgan bo'lsa-da, biroq hukumat ishining ko'pligi sababli Horun ar-Rashid davrida ayrim viloyatlarda dirham tangalarni zarb etish va ularni nazorat qilishga ruxsat berilgan.

Ikki xil pul birligining mavjudligi, umumiy savdoda, pulni almashtirishni, ya'ni dinorlarni dirhamlarga yoki aksincha dirhamlarni dinorlarga almashtirishga ehtiyoj borligini anglatardi. Bunday holatda dinor va dirhamning og'irligi va aralashmasi to'g'ri bo'lishligi lozim hisoblangan. Shuningdek, oltin va kumushning narxi ham ayirboshlashda pul kursiga ta'sir ko'rsatgan. Odatda pul kursi har bir dinor uchun 10-22 dirham orasida o'zgarib turgan¹⁹.

Dastlab ayrim cheklangan miqyosda olib borilgan sarroflik (pul ayirboshlash) faoliyati IX asrga kelib savdo munosabatlarining rivojlanishi va pullarni xavfsiz joyga joylashtirish hamda ularni maxfiyligini ta'minlash ehtiyoji ko'paydi. Shuningdek, sarroflik faoliyati o'zaro savdoni osonlashtiradigan va kengaytiradigan eng muhim omillar qatoriga kirdi. Sarroflik uylari bir necha shaharlarda tashkil etildi. Kufa bozorida eng katta sarroflar guruhi joylashgan edi. Umuman olganda, sarroflik mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish, savdogarlik faoliyati kengaytirish va bank xizmatlarini taklif etgan. Ammo ularning deyarli barchasi nasroniylar yoki yahudiylar edi, chunki islom ta'limoti mehnatsiz manfaat bilan bog'liq har qanday muomalani mutlaqo taqiqlagan. Chunki barcha moliyaviy xizmatlar ma'lum miqdordagi pul evaziga yoki foizlar miqdorida amalga oshirilgan.

Xalifalikda ta'lim olish bepul bo'lgan. Davlat o'z hududida ilm-fanning barcha sohalarini taraqqiy etishini rag'batlantirgan. Aholining barcha qatlam vakillari erkin bilim olishlari mumkin edi. Ilm-fan bilan shug'ullanuvchi insonlar hurmatga sazovor kishilar hisoblangan. Shuningdek, minglab kitoblarni o'z ichiga olgan ko'plab umumiy va xususiy kutubxonalar mavjud bo'lib, ular kitob

¹⁸ Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London: The encyclopaedia of Islamic economics. 2009. - P. 260.

¹⁹ Rayes M.D. Al-Kharaj fil-Dawala al-Islamiyah. Cairo: Nadet Misr. 1957.- P. 337.

do'konlari bilan muntazam aloqani yo'lga qo'yishgan edi. Bu davrda turli tillardagi ilmiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish kuchaydi.

Abbosiy xalifalar Horun ar-Rashid (786-809) va uning o'g'li Ma'mun (813-833) davrida ilm-ma'rifat taraqqiy etdi. Xalifalik markazi Bag'dodda "Bayt ul-hikma" (Donishmandlik uyi)ga asos solindi, u yirik ilmiy markazga aylandi, bu joyda o'z davrining mashhur olim-u faylasuflari, munajjim, tabib, musiqachi, me'mor va muhandislar to'plangan edi. Bu davrda arablar, forslar, nasroniylar, yahudiylar, movarounnahrlik va xurosonliklar tomonidan yunon, hind, fors, yahudiy, suryoniy va boshqa tillardagi riyoziyot, handasa, falakiyot, alkimyo, mantiq, tarix, tibbiyot fanlariga oid ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan²⁰.

Darhaqiqat, katta miqdordagi davlat mablag'lari ilm-fanni rivojlantirishga sarflandi. Bularning barchasi tufayli poytaxt Bag'dod dunyo bo'ylab ilm-fan markaziga aylandi.

Abbosiy hukmronligining birinchi asri davomida astronomiya va ayniqsa tabobat Bag'dodning islom dunyosiga qo'yilgan birinchi qadamlari bo'lib, ular orqali yunon fani va falsafasi o'zining g'olibona yurishini boshladi. Bunday sharoitda sharqiy xristian olimlari tomonidan taqdim etilgan mantiq, boshqa barcha arab ilmlari orasida markaziy o'ringa qo'yildi.

Xalifa Ma'mun (813-833) hukmronligi yillarida ilm-fan rivojlanishiga katta e'tibor qaratdi. U mu'taziliylar ta'limotini xalifalikning rasmiy mafkurasi deb e'lon qildi. O'zining siyosiy muxoliflari bilan ittifoqda bo'lgan ilk islom aqidalaridagi ruhoniylarga qarshi kurashda Iroq savdogarlari va hunarmandlariga tayangan Ma'mun o'z siyosiy faoliyatida Sharqda misli ko'rilmagan ishni qilib, tabiatshunoslik, falsafa, astronomiya va matematika fanlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi.

Musulmonlarni qadimgi yunon mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirish Suriya xristianlari orqali amalga oshirildi. Og'ir mehnat bo'lgan ikki tomonlama

²⁰ Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri. –Toshkent: TDSHI nashriyoti. 2010. – B. 43.

tarjima jarayoni, ya'ni yunon tilidan Suriya tiliga, undan arab tiliga qilingan ishlar avval boshda ko'proq tabobatga, tabiiy-ilmiy asarlarga qaratilgan edi. Ammo tez orada kitobxon ziyolilar va tarjimonlarning qiziqishi falsafiy adabiyotlarni ham qamrab oldi. Bu qonuniy jarayon edi. Chunki, Sharq xalifaligi deb atalgan Bag'dod va unga tobe bo'lgan musulmonlashish jarayoni boshlangan o'lkalarda savdo-sotiq va hunarmandchilik gurkirab o'sib, ular asosida matematika, mexanika, optika, kimyo, astronomiya, jug'rofiya, tabobat va boshqa nazariy hamda amaliy fanlarga ehtiyoj katta edi.

Arablarning Eron va Hind madaniyati bilan tanishuvi VIII asrdayoq boshlanib, tabobat va siyosiy tuzum sohalaridagi fanlarda o'z aksini topgan edi. Abbosiy xalifalar bo'lgan Mansur va Horun ar-Rashid hukmronligi davrida ularning ajamlik vaziri Yah'yo Barmakiy tashabbusi bilan bir qancha boshqa kitoblar ham hind tilidan arabchaga²¹ o'girildi.

VIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Qur'oni Karim va shariat qoidalariga asoslangan islomiy ilmlar rivojlana boshladi. Bu bilimlar islom dini asoslarini har tomonlama mustahkamlash va uni to'g'ri talqin etishga qaratilgan diniy ilmlar edi. Hadis, kalom, tafsir, mantiq va fiqh ilmida ulkan yutuqlarga erishildi. Islomiy ilmlar bo'yicha madrasalarda dars beruvchi olimlar o'z uslubi orqali shogirdlariga dars berar, shogirdlar esa ustozlaridan olgan ilmga o'z hissalarini qo'shib rivojlantirar edi. Ba'zan ustoz-shogird o'rtasida ilmiy ixtiloflar muhokama qilinib, Qur'oni Karim va hadislardan keltirilgan dalillar asosida yechim topilardi. Masalaga yechim topishda Madina va Kufa olimlarida farq mavjud edi. Madinaliklar sunnat amallar bilan bog'liq hadis va rivoyatlarga tayansalar, Kufaliklar o'z tafakkur va mantig'i orqali ixtiloflarni bartaraf etishardi.

Abu Yusuf Kufa maktabi vakili bo'lib, uning fiqh ilmini o'rgangan davri ummaviylarning oxiri va ilk abbosiylar davriga to'g'ri keladi. Bu davr fiqh ilmida ta'lim-tarbiyaga alohida etibor qaratildi. Imom Zuhriy (742), Xasan Basriy (728), Qays al-Hiloliy (714) kabi olimlarning fiqhga oid asarlari islom huquqining turli

²¹Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri. –Toshkent: TDSHI nashriyoti. 2010. – B. 38.

sohalariga bag'ishlangan. Ayniqsa, Abu Hanifaning "Fiqh ul-akbar" (767) asari eng muhim fiqhiy asar hisoblanadi. Abu Yusuf mana shunday rivojlangan ilmiy muhitning mahsulidir. Chunki islom olamida fiqh maktabining yirik namoyondasi bo'lgan Abu Yusuf mana shu olimlar zamondoshi sifatida ular bilan bir davrda yashagan.

Abbosiyilar davridagi madaniyatning ajoyib xususiyati va ahamiyatli tomoni shundaki, ilm-fanning barcha sohalarida diniy mafkuraviy cheklanganlikdan yuqori ko'tarilib, dunyoviylik ta'minlangan. U davr olimlari islom aqidalariga mahkam bog'lanib qolmagan, hatto rasmiy islom dogmasiga rioya qilmay, erkin fikrlash darajasiga ko'tarilganlar²². Ular inson tabiatning eng oliy mahsuli ekanini tasdiqlaydilar.

Bu davrning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Ummaviylarning siyosiy kurashdagi mag'lubiyati natijasida hukumatga abbosiyilar kelgach, turli nizolar barham berilib xalifalik gullab-yashnadi.

Sahobalardan ta'lim olgan islom ulamolari xalifalikning turli markazlariga borib o'qishini davom ettirishi natijada hadis ilmi va fiqh kabi ilmiy yo'nalishlar vujudga keldi. Abu Hanifaning ustozlari Hammud tomonidan asos solingan ahli ra'y yo'nalishi Iroqda Abu Hanifa tomonidan shakllantirilgan bo'lsa, Abu Yusuf uning tom ma'nodagi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etadilar²³.

1.2. Islom mutafakkirlari qarashlarida islom iqtisodiyotining falsafiy tahlili

Musulmon jamiyatida iqtisodiy munosabatlar Qur'oni Karim, Payg'ambar (s.a.v) ning sunnatlariga asoslanadi. Shuning uchun fiqhda u yoki bu iqtisodiy harakatlarni amalga oshirish to'g'risidagi ko'rsatma va izohlar emas, balki asrlar

²² Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 1997. –B. 202.

²³ Abduhalimov B.A. "Bayt al-hikma" va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. –Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti. 2004. - B. 8.

osha musulmon fiqhshunoslari ahamiyat qaratgan alohida sharhlar bo'yicha umumiy qoidalar muhim o'rin egallagan.

Islom iqtisodi bo'yicha fikrlarning paydo bo'lishi Muhammad (s.a.v) davridan boshlanadi. Rasululloh (s.a.v) huquqiy, siyosiy, iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlarga oid turli fikrlarni bildirib o'tgan. Muhammad (s.a.v) ning iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat boshqaruvi keyingi xalifalar tomonidan dastur ul-amal sifatida qo'llanilgan²⁴.

Xulofoi roshidin davriga kelib yangicha fikrlar va qarashlar paydo bo'la boshladi. Xalifalar tomonidan turlicha siyosat yuritilishi yangi muammolarni vujudga keltirdi.

Fiqh ilmi xulofoi roshidin va Ummaviylar davrida ancha rivojlangan bo'lsa-da, biroq Abbosiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, islom iqtisodi va davlatning moliyaviy siyosati to'g'risida ko'plab asarlar yozildi²⁵.

Musulmon ulamolarning ilk iqtisodiy qarashlarida ularning davlat moliyasiga ko'proq e'tibor berganligi bilan ajralib turadi. Bu islom davlati hududining kengayishi, yangi daromad manbalarining vujudga kelishi va xalifalar oldida yangi xarajatlarning mavjudligi bilan bog'liq edi.

Islom iqtisodiy tafakkurida iqtisodiy masalar turli musulmon ulamolari tomonidan ko'rib chiqildi. Islom iqtisodiyotini quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilish keng tarqalgan.

Birinchidan, Qur'oni Karimda keltirilgan ba'zi iqtisodiy masalalar, jumladan, sudxo'rlikning man etilishi va kishilarning farovon yashashi uchun iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishining qo'llab-quvvatlanishi mufassirlar tomonidan muhokama qilinib izohlari keltirilgan. Ikkinchidan, ayrim iqtisodiy masalalar fiqhiiy nuqtai nazardan o'rganib chiqilgan. Uchinchidan, iqtisodiy masalalarning islom axloqiy tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati o'rganib

²⁴ Adiwarmen A. Karim. Sejarah Pemikiran Ekonomi Islam. - Jakarta: Gema Insani Press. 2001. - P.56.

²⁵ Nasir Nabi Bhat. Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. Asian Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 3. 2015. - P. 158.

chiqilgan. Xususan, olimlar, soʻfiylar, musulmon faylasuflarining asarlari ushbu toifaga kiradi. Toʻrtinchidan, islom iqtisodiga oid baʼzi asarlar ulamolar tomonidan oʻz davrining ehtiyojlaridan kelib chiqib, muhim davlat lavozimlarida ishlagan vaqtlarida yozilgan. Davlat moliyasi, daromadlari va xarajatlari, soliq tushumlari bilan bogʻliq masalalar ushbu toifaga kiradi. Beshinchidan, ayrim islom olimlari va faylasuflari tomonidan islomiy iqtisodiy munosabatlar xolis tahlil qilingan. Bu toifaga Imom Gʻazzoliy, Ibn Taymiyya, Ibn Xaldun kabi olimlarni kiritish mumkin.

Islomiy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar maʼnaviy-axloqiy qoidalar bilan muvofiq keladigan aniq ijtimoiy yoʻnalishga egadir. Islomiy ulamolar (Gʻazzoliy, Forobiy, Abu Yusuf, Ibn Xaldun) va sharq olimlari tomonidan koʻrib chiqilgan hamda ilohiy mazmun ila belgilangan qonunlar bilan tartibga solinuvchi jamiyat tuzumining bir qismi sifatida tushunilgan.

Islom hukumati fath qilingan hududlarda islomgacha boʻlgan baʼzi maʼmuriy amaliyotlarni qabul qildi. Chunki aholining demografik holati, soliq miqdori, ekin maydonlarining hosildorligi va shunga oʻxshash narsalar toʻgʻrisida ishonchli maʼlumotlarga ega boʻlgan Sosoniylar va Vizantiya imperiyasi davridagi sobiq soliq yigʻuvchilarning xizmatiga ehtiyoj mavjud edi. Sosoniylar davrida soliq yigʻuvchilar Dehqon nomi bilan mashhur boʻlgan mahalliy mulkdorlar edi, ular davlat uchun soliqlarni hisoblash va yigʻish bilan shugʻullanardi. Dehqonlar soliqlarni oʻz vaqtida yigʻish uchun javobgarlikni oʻz zimmalariga olishgan, chunki ular fath etilish vaqtlarida taslim boʻlish shartlar, xiroj va jizyani toʻlash boʻyicha muzokaralar olib borishgan. Gʻayridin aholi tomonidan islom dinining qabul qilinishi islom hukumatiga jizya daromadlarining keskin kamayishiga olib keldi, bu esa davlat daromadlarining asosiy manbai boʻlgan xiroj miqdorini oshirilishiga sabab boʻldi. Xiroj soligʻi toʻgʻrisida islom qonunlaridagi noaniqliklar musulmon fiqhshunoslari oʻrtasida turli fikrlarni paydo qildi. Chunki yangi qonunlar joriy etilgunga qadar aksariyat musulmon hududlarining turli qismlarida soliq miqdori turlicha edi. Bu islom soliq tizimi boʻyicha yangi kitoblarni yozishni talab qilardi.

Har kaday mamlakatning soliq siyosati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki har bir davlatning iqtisodini yuksalishi, o‘shish sur‘ati, aholining farovonligi joriy kilingan soliqlarning umumiy miqdori, soliq yukining qay darajadiligiga bog‘liq. Ularni belgilash va amalga oshirish mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatiga bevosita bog‘liq. Shu ma’noda xalifalikning soliq siyosati ham o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Islom iqtisodi va soliq tizimiga bag‘ishlangan asarlarni musulmon davlatida ko‘plab topish mumkin. Islomning dastlabki davrlarida soliqqa tor-tish masalalari bo‘yicha 20 dan ortiq kitoblar ma’lum bo‘lgan. Islom soliq tizimiga oid dastlabki asarlar VIII asrda yozilgan. Lekin bizning kunlargacha faqat uch tasi yetib keldi. Mana shu xildagi kitoblarning eng birinchisi ummaviylar xalifasi Maxdiyning vaziri Muoviya ibn Ubaydullox al-Ash’ariy qalamiga mansub bo‘lgan. Bizgacha Abu Yusuf, al-Qurayshi, Abu Ubayd, Yahyo ibn Odam, Qudama ibn Ja’far, al-Dovudiy, Ibn Zanjavayh, al-Mahzumiylarning asarlari saqlanib qolgan²⁶.

Abu Yusuf (735-798) xalifalik soliq tizimining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan. Abu Yusufning soliq solish muammolari to‘g‘risidagi “Kitob al-xaroj” risolasi islom olamida iqtisodiy masalalarni qamrab olgan birinchi risola hisoblanadi²⁷. U bu kitobni hijriy 174-182 yillarda Abbosiylar xalifaligining bosh qozisi bo‘lib ishlagan paytida yozgan.

Abbosiylar xalifaligi islom huquq va an’analariga asoslangan holda boshqarilar edi. Bunda o‘sha davrda bosh qozi bo‘lgan Abu Yusufning xizmatlari kattadir. Uning xalifa Xorun ar-Rashidga bag‘ishlab yozgan “Kitob al-xaroj” asarining muqaddimasida islomiy boshqaruv tizimi xulfofi roshidin va Umar ibn Abdulaziz kabi bo‘lishi aniq ta’kidlab o‘tilgan.

Xalifa Xorun ar-Rashid mamlakat aholisining hayoti va mol-mulki xavfsizligini ta’minlashga, adolat bilan hukmronlik qilishga harakat qilgan hukmdor edi. U Imom Abu Yusufdan iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo‘yicha

²⁶ Abdul Azim Islahi. Contribution of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis. - Jeddah. 2014. – P.61.

²⁷ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.8.

savollarga javob berishni, islom dinida soliq qoidalari qay tartibda bo'lishi haqida so'radi. Abu Yusuf bu savollarga javob berish maqsadida "Kitob al-xaroj" asarini yozdi. Bunda nafaqat davlat daromadlari va xarajatlari, balki turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham yoritib o'tilgan.

X asrda yashagan olim Ibn Hazm, kambag'al va muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish uchun aholidan yaxshilik uchun moliyaviy to'lovlar undirilishini lozimligini aytib o'tadi. Al-Mavardi, davlat xazinasida mablag' bo'lmasa, umumiy soliqdan tashqari boshqa soliqqa tortilishi mumkinligini ta'kidlagan. Abu Yusuf iqtisodiy farovonlik davrida yashagan, bu davrda davlat xazinasida iqtisodiyot talablarini qondirish uchun yetarlicha mablag' bo'lgan va shariatdan tashqari soliqlar masalasi paydo bo'lmagan²⁸.

Abu Yusuf o'z qarashlarini Qur'oni Karim va hadislariga tayangan holda xulosalar chiqarganini uning "Kitob al-xaroj" asarida 550 ga yaqin hadislar keltirilgani bilan izohlash mumkin. Shuningdek, mashhur roviy Yahyo ibn Odam (757-818)ning "Kitob al-xaroj" asari hadislar, fiqhiy qo'llanma, hikmatli iboralardan kelib chiqib tuzilgan²⁹. Muallif faqat ayrim hollardagina o'z fikrlarini bayon etgan.

U o'z asarida yerlarni soliqqa tortish masalasi, unga egalik qilish huquqini, yer bilan bog'liq munosabatlarda nomusulmonlarning o'rni kabi masalalar keltirilgan. Yaxyo ibn Odam tomonidan keltirilgan hadislarining faqat 40 tasigina olti obro'li hadis (sihohi sitta) roviylarining kitoblariga kiritilgan. Shuningdek, mazkur asarda bizning kunlarda ham ayrim musulmon mamlakatlarida amalda qo'llanilayotgan yerga egalik masalalariga oid muhim qoidalar bayon etilgan.

Islomiy soliqqa tortish bo'yicha yana bir asar muallifi Qudoma ibn Ja'far (864-932) "Kitob al-xaroj" asarini o'sha davrda amalda bo'lgan soliq tizimining shariat talablariga butkul mos kelishini isbotlash maqsadida yozgan edi. Lekin Qudomaning asari o'ziga xos mustaqil asar bo'lmay, Abu Yusuf va boshqa fiqhshunoslarning fikrlari hamda mulohazalaridan kelib chiqib tuzilgan edi.

²⁸ Беккин Р.И. Исламская экономическая модель и современность. – М.: Наука. 2010. - С. 41.

²⁹ Йахйя ибн Адам. Китаб ал харадж. Хрестоматия по истории Халифата. Сост. и пер. А.И. Надирадзе. - М.: Изд-во МГУ. 1968. – С.249.

Shuning uchun tadqiqotchilar, avvalo, Abu Yusufning “Kitob al-xaroj”ga qiziqish bildiradilar.

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asaridan so‘ng islom iqtisodi bo‘yicha asar yozish qiziqarli tus oldi. Bunga misol qilib fiqhshunos olim Muhammad ash-Shayboniyning “Kitob al-iktisob” asarini keltirishimiz mumkin.

Muhammad ash-Shayboniy (750-804) hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifaning iste’dodli shogirdlaridan biri hisoblanadi. U Abu Yusuf singari ustozi Abu Hanifadan fiqh ilmini puxta egalladi va qozilik lavozimida ishladi³⁰. U o‘z kitobida ko‘plab iqtisodiy mulohazalarini keltirib o‘tdi. Masalan, boylar kambag‘allarga muhtoj bo‘lgani kabi, kambag‘allar ham boylarga muhtojdir deb ta’kidlaganini ko‘ramiz.

Muhammad ash-Shayboniyning “Kitob al-iktisob” asarida kichik iqtisodiy munosabatlar yoritilgan. Davlat moliyasi yoki soliq tizimidan tashqari, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, uning qiymati va taqsimlash masalalariga e’tiborni qaratgan. U o‘z asarini hukumat topshirig‘i yoki xalifaning buyrug‘iga binoan emas, balki o‘z tashabbusi bilan iqtisodiy qarashlarini yoritib o‘tgan. Shu ma’noda aytish mumkinki, ash-Shayboniyning mustaqil tarzda islom iqtisodiyoti haqidagi g‘oyalarining yozilishi bir necha asr o‘tgach paydo bo‘lgan ba’zi iqtisodiy fikrlarning taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi.

Muallif kitobni yozishda Payg‘ambar (s.a.v) hadislarini o‘rgangan holda o‘z xulosalarini bayon qilgan. U ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni ishonarli tarzda o‘rganadi. U muammolarni yechishda Quro‘ni Karim va hadislardan olingan dalillar, analitik mulohazalardan foydalanadi. Xulosa chiqarishda hanafiylik nuqtai nazardan yondashgan.

Shubhasiz, ash-Shayboniyning islom iqtisodiyotiga oid asari shu mavzu rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ash-Shayboniyning “Kitob al-iktisob” asarida zamonaviy termin bilan ishlatadigan bo‘lsak mikroiktisodiy munosabatlar yoritilgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi yirik fiqhshunoslardan biri Abu Ubayd tomonidan yozilgan “Kitob ul-amvol” kitobida islomdagi makroiqtisodiy munosabatlar

³⁰ Abdul Azim Islahi. Contribution of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis.- Jeddah. 2014. –P.13.

yoritilganini ko‘rishimiz mumkin³¹.

Abu Ubayd Qosim ibn Sallam (838 yil vafot yetgan) ham Abu Yusuf kabi qozi edi. U fiqh, tarix va arab adabiyotini yaxshi bilgan. U “Kitob ul-amvol” asarida hanafiylar, molikiylar yoki boshqa yirik fiqh maktabi olimlari fikrlariga tayangan holda o‘z fikrlarini bayon qiladi. Bu usul uning zamondoshlari va shogirdlari nazdida yangicha yondashuv sifatida qaraldi. Shuningdek u, Qur’oni Karim tafsiri, hadis, fiqh va she’riyatga oid ko‘plab kitoblarni yozgan.

Abu Ubayd o‘z asarida yozishni maqsad qilgan paytda, garchi Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asaridan uch barobar katta hajmli bo‘lsada, islom olamida allaqachon uch yirik fiqhiy maktablar shakllanib bo‘lgan edi. Imom Abu Hanifa asos solgan hanafiylik xalifalik poytaxti joylashgan Iroqda, Imom Molik ibn Anas asos solgan molikiylik Madinada, imom ash-Shofe’ asos solgan shofe’iylik Misr va Shomda mustahkam qaror topib ulgurgan edi. Abu Ubaydgacha islom iqtisodi bo‘yicha Abu Yusuf va Yahyo ibn Odam tomonidan asarlar yozilgan edi. Abu Ubaydning mazkur mavzu bo‘yicha asar yozishiga ikki sabab bo‘lishi mumkin: 1. Bu asar avvalgi asarlardagi bo‘shliqni to‘ldirish. 2. Yangicha qarashlarni talqin etish.

Abu Ubaydning “Kitob ul-amvol” asari avvalgi islom iqtisodiga oid asarlarda mavjud bo‘lmagan uchta o‘ziga xos xususiyatga ega. Birinchidan, daromadning bir turi bilan cheklanib qolmasdan, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq va boshqa sohalar bilan shug‘ullanishni ta’kidlaydi. Masalan, soliq yig‘ishda faqat xiroj emas, savdo va boshqa manbalarga oid soliq turlarini ko‘rib chiqadi. Ikkinchidan, u fikrlarini avvalgilarga qaraganda yaxshiroq dalillaydi. Masalan, hadislarni keltirganda payg‘ambar amallari va so‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar zanjiri isnodi to‘liq keltiriladi, shuningdek, xalifalarning qo‘l ostidagi amirlari va dushmanlariga yuborgan maktublari bilan tanishish imkonini beradi. Uchinchidan, asarda yoritilayotgan mavzu bo‘yicha fikrlar xilma-xildir. Bunga sabab Abu Yusuf

³¹ Nasir Nabi Bhat. Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. Asian Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 3, Issue 3, March 2015. – P. 161.

tomonidan yozilgan asarga nisbatan o‘ttiz-qirq yil keyin yozilgani o‘sha davrga kelib fiqh bo‘yicha fikrlarda o‘zgarish bo‘lganidan dalolat beradi.

Garchi kitob davlat moliyasining shakllanishiga xizmat qilsada, umuman kitobxonlar uchun ham foydali hisoblanadi. Asarda musulmonlar va boshqa dinga e‘tiqod qiluvchi fuqarolar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga ergashishlari lozimligi, barcha diniy majburiyatlarni e‘tiqodli musulmon sifatida bajarishlari lozimligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, al-Dovudiy (vaf. 1012 y) molikiy mazhabi vakili sifatida “Kitob ul-amvol” asarida soliq va yerni boshqarish muammolari molikiylik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganligi bilan o‘ziga xosdir.

Al-Dovudiy o‘z asarida Shimoliy Afrika, Sitsiliya va Ispaniya viloyatlaridagi yerlarning holatiga munosabat bildirib, ularga tegishli yerlardan yer solig‘i undirishda ushbu hududning tabiatiga e‘tiborni qaratgan³². Kitobning asosiy qismi mamlakatdagi moliyaviy tizimni nazorat qilishda hukmdorning majburiyatlariga qaratgan. Bu kitob o‘z davrining diniy va amaliy xususiyatlarini aks ettiradi.

Al-Mavardi (vaf. 1058 y) davlat boshqaruvi to‘g‘risida yozgan “Ahkom ul-Sultoniya” asarida davlat daromadlari va xarajatlari, jamoat yerlari, davlat imtiyozlari va davlat tomonidan yerlarni berish tartibi yoritilgan³³. Jamiyatning har a‘zosining ehtiyojini qondirish, shaharni ichimlik suvi bilan ta‘minlash va himoya qilish uchun shahar devorlarini mustahkamlash hukmdorning asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

Uning “Kitob al-din va ad-dunyo” deb nomlangan kitobida qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, savdo-sotiq va ishlab chiqarishni odamlarga pul topishning to‘rt usuli sifatida muhokama qiladi³⁴.

Ibn Hazm (vaf. 1064 y)ning “Kitob ul-Muhalla” asarida ko‘plab iqtisodiy masalalar yoritilish bilan birga davlatning moliyaviy boshqaruv tartibi batafsil

³² Abdul Azim Islahi. Contribution of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis. - Jeddah. 2014. –P.14.

³³ Al-Mawardi. Al-Ahkam al-Sultaniyah. - Beirut: Dar al-Kutub. 1978. – P.264.

³⁴ Al-Mawardi. Kitab al-Din val-Duniya. - Beirut: Dar Ihya al-Turath al-Arabi. 1979. –P.194.

muhokama qilingan³⁵. U islom davlatining kambag'allikni yo'qotish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash borasidagi tavsiyalarini bergan. Ibn Hazm islom jamiyatida umumjamo'a majburiyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lgan. U ijtimoiy tizimda qashshoqlar haq-huquqlarini himoya qilgan. Qur'oni Karim va Payg'ambar hadislaridan ko'plab misollar keltirgan Ibn Hazm, boylarning vazifasi, o'z qishlog'i yoki shahrida kambag'al qashshoqlarning ehtiyojlarni qondirishi kerak, chunki davlat xazinasini ularni ehtiyojlarini ta'minlay olmasligi mumkin deydi. U payg'ambar (s.a.v)ning sahobalariga qarab, "Biron kishi och yoki yalang'och yoki boshpanasiz bo'lsa, uning ehtiyojlari boylarning ortiqcha mablag'lari bilan ta'minlash davlatning zimmasida" degan hadisni aytib o'tadi. U qo'shimcha soliqlar zakotdan tushgan mablag'lar kambag'allarni qo'llab-quvatlash uchun yetarli bo'lmagan taqdirda mavjud bo'lishi mumkin deb hisoblagan.

Keyinchalik G'azzoliy (1055-1111) "Ihyoi ulum ad-din" asarlarida iqtisodiyot uchun alohida "Daromad va savdo-sotiq" deb nomlangan bob ajratadi. Ushbu kitobda muhokama qilingan ba'zi iqtisodiy masalalar qatoriga sotib olish va sotish, pulni oldindan to'lash, qonuniy va noqonuniy daromad usullari, iqtisodiy adolat, iqtisod va din o'rtasidagi munosabatlar yoritib o'tilgan³⁶.

G'azzoliy uchun iqtisodiy hayotda islom me'yorlariga amal qilish Alloh taolaga o'z diniy majburiyatini bajarish orqali mana shunday ibodat qilishning o'ziga xos ko'rinishidir. Agar musulmonlar iqtisodga yetarlicha e'tibor bermas ekanlar, bu e'tiborsizlik jamiyatda turli muammolarga olib keladi, bu esa musulmon jamiyatining iqtisodiy asoslarini zaiflashtiradi hamda yakunda islom dinining o'ziga ziyon yetkazishi mumkinligini aytib o'tish mumkin.

Aksariyat musulmon fiqhshunoslari kuni bilan hech qanday ish qilmay, ibodatda bo'lgan va moddiy tarafdin kishilarga qaram bo'lgan obiddan, iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etadigan boshqa kishi afzal deb hisoblaydi. G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida, musulmon jamoasi moliyalarida davlatning tutgan o'rni talqinida zakot bilan bog'liq masalalarni batafsil ko'rib chiqadi. Lekin G'azzoliy

³⁵ Nasir Nabi Bhat. Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. Asian Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 3, Issue 3, March 2015. – P. 162.

³⁶ Abdul Azim Islahi. Contribution of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis. - Jeddah. 2014. – P.15.

bu soliqni yig'ish va taqsimlashning iqtisodiy va huquqiy jihatlariga emas, balki axloqiy jihatlariga katta e'tibor qaratadi. Olim zakot to'laydigan va oladiganlarga gunohdan forig' etuvchi ushbu soliq bilan bog'liq barcha talablarni rasmiy jihatdan yondashmasdan, chin qalbdan bajarishni tavsiya etadi.

G'azzoliy tijoratni iymonlilar uchun yo'l deb biladi. U har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotganda boshqalarga yaxshilik qilish kerakligini ta'kidlaydi. U savdo orqali orttirilgan foyda ehson deb qabul qilishni, kambag'al odamdan yuqori narxda sotib olishni, boy odamdan esa pastroq narxda xarid qilishni tavsiya etadi. Qarzni talab qilishni kutishdan ko'ra, o'zi borib qarzni to'lash yaxshiroqdar deydi.

Ibn Taymiyya (1263-1328) o'zining iqtisodiy g'oyalarini "Al-hisba fil-Islam" (Islomdagi jamoat majburiyatlar) asarida aks ettirgan. U axloqiy jihatdan shariatga muvofiq farovon hayot tomon yetaklaydigan hukmdor tomonidan boshqariladigan davlatda xususiy mulk erkinligining ta'minlanishi jamiyatni taraqqiy ettirishini ta'kidlagan³⁷.

Ibn Xaldun (1332-1404) "Muqaddima" asarida ba'zi iqtisodiy masalalar – mehnat taqsimoti, pul va narxlar, soliq tizimi, savdo-sotiq, davlat daromadlari va xarajatlari va boshqalar xususida ma'lumot berilgan³⁸.

Ibn Xaldunning fikricha, inson mehnati shaxs mavjudligining manbai va jamiyat taraqqiyotining asosidir. "Kishilar naf oladigan har qanday daromad unga sarflangan mehnat qiymatiga muvofiq keladi, - deb yozadi olim. Agar biron kishi umuman ishlamasa, u holda, u har qanday daromaddan maxrumdir. Daromadning qiymati unga sarflangan mehnatga bog'liq hisoblanadi".

Ibn Xaldunning mehnat mahsulotda moddiylashishi haqidagi fikrlari tahsinga sazovordir. Inson oldi-sotdi ob'ekti bo'lmagan mehnatning o'zini emas, balki mehnat natijalarini qadri bir xil bo'lgan qiymatga almashtirish orqali sotib

³⁷ Ibn Taimiyah. Al-Hisbah fi al-Islam. English Muhtar Holland ed. Khurishid Ahmad. The Islamic foundation. 1982.

³⁸ Ibn Khaldun. Muqaddimah (An Introduction to History). English, Franz Rosenthal, ed. N.J. Dawood, Routledge and Paul. London. 1967.

oladi. O'z navbatida, mehnat orqali erishilgan natija uning qiymatida ro'yobga chiqadi.

Musulmon mutafakkirlari kabi Ibn Xaldun soliqqa tortish masalalariga e'tibor qaratib, soliqlar davlatning asosiy daromadini tashkil etadi deb hisoblagan. Aholidan ortiqcha miqdorda soliq undirish kishilarning mehnat layoqatini yo'qotishiga olib keladi va davlat iqtisodi zaiflashadi. Agar soliqlar adolatli yig'ilsa, u holda kishilarda mehnat va foyda olishdan manfaatdorlik paydo bo'ladi.

O'rta asr musulmon ulamolari o'sha davr uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tadqiq etdilar. Ular iqtisodiy muammolarga fanlararo yondashuvdan foydalangan holda, davrning boshqa dolzarb muammolari talqinida murojaat etdilar: hukmdorlar va fuqarolarning, musulmon va nomusulmonlarning munosabati, dindorlarning diniy majburiyatlarini bajarishlari shular jumlasidandir.

Islom mutafakkirlarining iqtisod bo'yicha asarlarining yetarlicha o'rganilmasligi natijasida ushbu soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning kamayib ketishiga olib keldi. Zamonaviy islom olimi Monzer Kaf o'tgan davr islom tafakkur sohiblari bo'lgan Abu Yusuf, Yaxyo ibn Odam, G'azzoliy, Ibn Rushd, Ibn Abdusalom al-Izz, al-Forobiy, Ibn Xaldun nazariyalarini o'rganishga yetarlicha kuch-g'ayrat sarflanmaganini afsus bilan aytib o'tadi. Mazkur olimlar tomonidan aytib o'tilgan fikr va g'oyalar boshka musulmon ulamolari tomonidan islomiy iqtisodiy-falsafiy bilimlar sohasini tadqiq etish va rivojlantirish imkonini bergan bo'lar edi.

Shunday qilib, islom yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi tartiblarni taklif etadi va inson hayotining barcha jabhalari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (muomala) uchun qoidalar majmuiga rioya etishga amr qiladi. Islom tamoyillariga asoslangan moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish kabi ko'plab masalalar tadqiq etiladi.

1.3. Abu Yusuf – davlat soliq nazariyasi asoschisi

Islom dunyosidagi ulkan allomalardan biri bo‘lmish Yoqub Abu Yusuf o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shdi. Avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, Abu Yusufning soliq tizimi ishlab chiqishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat katta rol o‘ynagan. Chunki, Arabistonda feodal munosabatlariga o‘tish yagona davlat tashkil etishi islom dinining vujudga kelishi bilan birga yuz berdi.

Abu Yusufning shaxsiyat va uning ilmiy merosini, xususan uning el-ulus osoyishtaligi, fuqarolarning moddiy va ma’naviy hayoti yo‘lidagi ulkan sa’y-harakatlarini keng va mukammal o‘rganish asosida yangicha qarashlarni, bilimlarni shakllantiradi. Ayniqsa Abu Yusufning soliq tizimi ishlab chiqishi, soliq turlarini birma-bir aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bayon etishi, keyingi boshqaruv tizimida islom mamlakatlariga katta ko‘mak berdi.

U buyuk fiqhshunos olim va davlat arbobi edi. Abu Yusuf Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi va uning izdoshi bo‘lgan. Abu Hanifa vafotidan so‘ng uning ishlarini davom ettirgan va hanafiylikning keng tarqalishiga munosib hissa qo‘shgan. Abbosiy xalifalar Mahdiy, Hodiy va Horun ar-Rashidlar davrida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Ularning barchasi uni e‘zozlagan. U xalifa Horun ar-Rashid davrida qozil-quzzot (bosh qozi) lavozimiga ko‘tarilgan.

Islom olamida Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo‘lgan, hanafiylik tariqatining asoschisi Abu Hanifaning shogirdi va izdoshi Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Ansoriy al-Kufiy hijriy 113 yil (milodiy 731 yil) Kufa shahrida tug‘ilgan³⁹.

Manbalarda zikr qilinishicha, u dastlab hadisshunoslik bilan shug‘ullanib, har kuni muhaddislar bilan 50-60 ta hadisni o‘rganar va boshqalarga o‘qib berar edi. U Hishom ibn Urva, Ato ibn Soib, Abu Ishoq Shayboni va boshqalardan hadis

³⁹ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.12.

rivoyat qilgan⁴⁰. Ammo, u keyinchalik fiqh ilmini o'rganishga qiziqib qoladi. Bunga, ehtimol, o'sha vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy holat ham sabab bo'lgandir. Chunki, o'sha davrda xalifalikdagi diniy-siyosiy muhit islom huquqshunosligida yangicha ilmlarga va olimlarga muhtoj bo'la boshlaydi.

Abu Yusuf 13 yoshida Kufa shahri qozisi Abu Laylodan fiqhni o'rgandi, oradan to'qqiz yil o'tgach Abu Hanifa dars halqasiga qo'shildi. U Abu Hanifa vafotiga qadar u zot bilan birga qoldi. Bu haqida o'zi shunday deydi: "Men ilm o'rganish uchun Ibn Abu Laylo huzuriga borardim. U kishi meni hurmat qilardi. U biror masalada hukm chiqarishga qiynalsa, Abu Hanifaning so'zini olar edi. men Abu Hanifaning dars halqasiga borishni istardim. biroq Ibn Abu Laylodan Hayo qilganimdan bora olmasdim. Bir kuni o'rtamizda ko'ngilsiz voqea sodir bo'ldi. Bu Abu Layloga og'ir botdi. Men esa, vaziyatdan foydalanib, Abu Hanifaning oldiga borib, u zotning etagidan mahkam tutdim"⁴¹. U Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi sifatida birinchi bo'lib hanafiylik mazhabi bo'yicha kitob yozgan va uning yer yuziga tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan⁴².

Abu Yusufning oilasi kambag'al bo'lib, yoshligida u qassorlik, ya'ni kiyimlarni yuvib oqartirish bilan shug'ullangan. U shunday deydi: "Faqirlik chog'imda hadis va fiqhni o'rganishga intildim. Bir kuni Abu Hanifa yonida o'tirganimda onam kelib meni o'zi bilan olib ketdi va dedi: "Abu Hanifaga qarab oyoq uzatma, uning noni pishiq, sen esa hayotimizni ta'minlashga majbursan". Men onamga itoat qilib, bu ilm izidan voz kechishga qaror qildim. Abu Hanifa meni qidirib topib, darsga qaytishni so'radi. Men esa uning majlisiga qaytib keldim. Uning majlisiga qaytganimning ilk kuni edi, u "seni bizdan nima uzoqlashtirdi?" deb so'radi. "Hayotimizni ta'minlash va onamga itoat qilish" deb javob berdim va o'rnimga o'tirdim. Odamlar chiqib ketganidan keyin u menga bir xaltacha tutqazdi, "bundan foydalanib tur" dedi. Qarasam, ichida yuz dirham bor ekan. U menga qarab: "har qachon bu tugasa, menga xabar bergil" dedi.

⁴⁰ Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2002. – B. 156.

⁴¹ Makkiy. Manaqibu Abiy Hanifata. – B. 471.

⁴² Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: "Movarounnahr", 2017. – B. 42.

Men davraga borib turdim, biroz muddatdan keyin yana yuz dirham berdi, shunday qilib, muhtojlikdan chiqib, badavlat bo‘lganimizga qadar u menga yordam berib turdi”⁴³.

Imom Abu Hanifa Abu Yusufning fazli va ilmini e’tirof qilar ekan, u kasal bo‘lganida shunday deydi: “Mabodo bu yigit vafot etsa, yer yuzidagi eng ilmli inson vafot etgan bo‘ladi”. Yana ayganki: “Meni hech kim Abu Yusufchalik mahkam tutgan emas”, “U shogirdlarim ichida barcha ilmlarni o‘zida jam qilganidir”⁴⁴.

Abu Yusuf Abu Hanifaning doirasiga shu qadar qiziqqan ediki, hatto bir qarindoshi o‘lganida darsdan qolishdan qo‘rqib, uni dafn etish marosimini birovga topshirgan ekan. Bu Abu Yusufning nafaqat fiqh ilmiga bo‘lgan qiziqishi katta bo‘lganligini bildiradi, balki uning Abu Hanifaga bo‘lgan hurmati beqiyosligidan ham darak beradi.

Abu Yusuf dastlab hadis ilmi bilan shug‘ullangan bo‘lsada, Abu Hanifaga shogird bo‘lgach ra’y va qiyos tarafdoriga aylandi, Abu Hanifaga ergashib, ba’zan uning fikrlariga qarshi fikr bildirib buyuk fiqhshunos olim bo‘lib yetishdi. U endi fiqh ya’ni islom huquqshunosligi bilan shug‘ullanar edi. U fiqhiy masalalarni yechishda dastlab Qur’on Karim, keyin hadislarga murojaat etar, so‘ngra esa Abu Hanifa targ‘ib etgan ra’y va qiyosga tayanar edi. Natijada xalq orasida uning obro‘yi oshib hamma uning oldiga keladigan bo‘ldi.

Abu Yusuf xalifa Mahdiy (775-785) davrida 783 yil Bag‘dod shahri qozisi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Xalifa Horun ar-Rashid mamlakat qozil-quzzot (bosh qozi) lavozimi joriy etilib, bu vazifaga Abu Yusuf tayinlandi⁴⁵.

Ma’lumki, qozilik dastlab payg‘ambarimiz davrida joriy etilgan bo‘lib, u vaqtlarda qozilar kichik masalalarni, jumladan uy-xo‘jalik yumushlari, o‘zaro kelishmovchiliklar kabi ishlarni ko‘rib chiqardi. Odatda qozilarni xalifalarning o‘zlari maxsus joylarga tayinlagan. Ular kichik-kichik ishlarni ajrim qilish bilan

⁴³ Doktor Ahmad Shalabiy, Mavsuatul-hazoratil-islomiya, 8 jild. – B. 199.

⁴⁴ Kardariy. Manoqibi Abiy Hanifata. – B. 397.

⁴⁵ Hendri H.A. The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic banking and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. – P. 42.

birgalikda o'sha yerdagi diniy hayotni bir maromda ushlab turgan. Lekin katta masalalarni, xususan odam o'ldirish, yuqori lavozimli shaxsga suiqasd qilish kabilarga nisbatan xalifaning o'zi xukm chiqargan. Abu Yusufga esa butun xalifalikdagi barcha qozilarni saylash va lavozimidan ozod etish, har qanday fiqhiy masalani yechish kabi huquqlar berildi. Bu holat xalifalikda hanafiylik mazhabining mustahkamlanishiga va uning keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Abu Yusuf ilmiy faoliyatining avvalida hadis ilmiga yuzlangan. Abu Ishoq Shayboniy, Sulaymon at-Tamimiy, Yahyo ibn Said, al-A'mash al-Ansoriy, Hishom ibn Urva, Ato ibn Soib, Muhammad ibn Ishoq ibn Yasir va Lays ibn Sa'd kabi o'z davrining yetuk muhaddislaridan saboq olgan.

Abu Yusuf xalifa Horun ar-Rashid bilan bir qancha sayohatlarga chiqqan. Makkada Imom Shofe'iy, Madinada Imom Molik bilan uchrashuvlar va munozaralar o'tkazgan.

Ahli hadis ko'pincha ra'y va qiyos tarafdorlarini yoqlamagan bo'lsalar ham, ularning ko'plari Abu Yusufga katta e'tibor qaratib, uni maqtaganlar.

Imom Abu Yusuf nihoyatda oliy zakovat va yuksak iste'dod egasi sifatida Horunga juda yaqin va ishonarli kishi bo'lgan. U odatda huquqiy masalalarda Abu Yusuf bilan bamaslahat ish olib borgan.

Hanafiylik mazhabining ikkinchi buyuk fiqh namoyandasi ilmiy faoliyati davomida o'zining dars xalqasini yaratgan. Ahmad ibn Xanbal, Muhammad ash-Shayboniy, Yahyo ibn Ma'in, Bishr ibn Volid al-Kindiy, Ali ibn Ka'b, Ali ibn at-Tusiy, Amr ibn Abu Amr kabi ko'plab ulamolarga saboq bergan.

U fiqh ilmida ustoz Abu Hanifaning izidan borib, avvalo Qur'oni Karim va Sunnatga, keyin sahobalarning amallariga ergashdi. U ahli ra'yni ahli hadisdan ajratmadi. Tarixchilar ta'kidlaganidek, hanafiy mazhabining Abu Hanifadan keyingi eng buyuk faqih Abu Yusufdir.

Ibn Xallikonning ta'kidlashicha, Abu Yusuf qozil-quzzot bo'lganidan keyin birinchi bo'lib qozilar uchun maxsus kiyim, qora salla va taylason⁴⁶ ni joriy qilgan. Hozirda ayrim mamlakatlarda, jumladan Yevropa mamlakatlarida sudyalari

⁴⁶ Libos ustidan yelkaga tashlab qo'yiladigan keng va uzun kiyim.

kiyadigan **Gown, Hood, Can** kabi uniformalar doktor Ahmad Shalabiyning fikricha, hijriy ikkinchi asr Abu Yusuf tomonidan belgilangan kiyimning biroz o'zgartirilgan shaklidan boshqa narsa emas⁴⁷.

Abu Yusuf hijriy 182 yil (milodiy 798 yil) hayotdan ko'z yumadi. Ibn an-Nadimning "al-Fihrist" asarida ta'kidlanishcha, uning Yusuf ismli o'g'li bo'lib, otasi vafotidan keyin uning ishlarini davom ettirgan va hijriy 192 yil vafot etgan. Abu Yusuf ba'zi manbalarda 40 ta, ba'zilarida 36 ta kitob yozgan deyiladi⁴⁸.

Uning vaqt o'tishi bilan yo'qolgan qabri 1659 yil Safaviylar podshohi Sulaymonshoh tomonidan topilgan. Usmoniy sultoni Mehmed IV uning qabriga maqbara qurdirgan.

Abu Yusuf tomonidan ko'plab asar yozib qoldirilgan.

"Kitob ul-asar" kitobi Abu Yusufning ustozlari Abu Hanifadan o'rgangan bilimlar o'g'liga o'git tarzida yozib qoldirgan asardir. Unda fiqh asoslari bayon etilgan. Kitob Abu Hanifaning qarashlari va uning huquqiy metodiga tayanib yozilgan va fiqhiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu kitobda Kufa ulamolari fiqhiga asoslangan Iroq fiqhi ham keltirilgan.

"Kitob ul-asar"da 1067 ta masalani, ya'ni fiqhning aksariyat mavzularini qamragan. Ibodat avvalidagi tahorat, azon, namozni boshlash, namozdagi e'tiborsizliklar, ikki xayit namozi, zakot va haj marosimlari kabi 39 ta fiqh bobini o'zida jamlagan.

Keyingisi "Ar-raddu 'alaa Siyar ul-Avza'i" (Avza'ining "as-Siyar" kitobiga raddiya) bo'lib, unda Abu Hanifa va Avza'i o'rtasidagi urushlar, sulhlar, boshpana berish, shuningdek o'ljalar haqidagi ziddiyatlari bayon etilgan, Abu Hanifaning kuchli mantiqiy tafakkurga ega ekanligi yoritilib, har bir masala har tomonlama va mantiqiy asoslanganligi va asoslar hadislar bilan isbotlanganligi ta'kidlangan.

Ma'lumki, imom Avzo'i imom Abu Hanifaning zamondoshi bo'lgan. Avzo'i Shom, Abu Hanifa esa Iroq faqih edi. Avzo'i asar va rivoyat Abu Hanifa esa ra'y faqih hisoblangan. tabiiyki, ular o'rtasida fatvo va matnni fahmlashda ixtiloflar

⁴⁷ Doktor Ahmad Shalabiy, Mavsuatul-hazoratil-islomiya, 8 jild. – B. 199.

⁴⁸ Ibn an-Nadim. al-Fihrist. Dorul-ma'rifa. – Beyrut. - B.286.

yuzaga kelib turardi. Imom Avzo‘i tarix haqida, ya‘ni tinchlik, xotirjamlik, omonlik, g‘animlar va o‘ljalar hukmlariga oid kitob yozgan. Ushbu mavzularning barchasi shariat hukmlari bilan bog‘liq bo‘lib, manbasi, Quro‘ni Karim, sunnat, roshidin va sahobalarning harakatlarini o‘z ichiga olgan fiqhiy dasturdir.

Avzo‘ining aksariyat hukmlari Abu Hanifadagi mavzularga xilof bo‘lib, natijada Abu Yusuf “Avzo‘i tarixiga raddiya” kitobini yozgan. Abu Yusufning Avzo‘iga bergan raddiyalari hanafiya fiqhi nazariyasidan kelib chiqqan edi.

Abu Yusufning yana bir asari “Abu Hanifa va Ibn Abu Laylo o‘rtasidagi ziddiyat” deb nomlanadi. Ibn Abu Laylo Kufaning qozisi va faqih bo‘lib, Abu Yusufning Abu Hanifadan oldingi ustoz edi. Ikki imom o‘rtasida ko‘pgina fiqhiy masalalarda ixtiloflar yuzaga kelgan. Unda Abu Yusuf ikki buyuk faqihning huquqiy qarashlaridagi farqlar ko‘rsatib o‘tgan⁴⁹.

Abu Yusuf yozgan asarlar ichida eng mashhur va muhimi “Kitob al-xaroj” asaridir. U “solih kitobi” yoki “xiroj kitobi” deb tarjima qilinadi. Bu kitob Horun ar-Rashidning buyrug‘iga ko‘ra yozilgani asar muqaddimasida aytib o‘tilgan. “Kitob al-xaroj” asari islom tarixida davlat xarajatlarini mablag‘ bilan ta‘minlashda soliqlarning o‘rni va roli, soliq turlari, miqdori, ularni yig‘ish, to‘plash, jamiyat va davlat ehtiyojlari uchun teng taqsimlash tartibi, fuqarolar va soliq yig‘uvchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi musulmon huquqshunosligi normalariga bag‘ishlangan asardir. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi, xalifalik tarixi va an‘analari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. “Kitob al-xaroj” asari islom davlati hududi kengaygan davrda, turli o‘lkalardagi ayrim masalalar tufayli yuzaga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lib, Abu Yusuf uni hanafiy mazhabi huquqiy nazariyasiga tayangan holda, shuningdek eng ishonchli hadislar, sahobalarning aytgan so‘zlari, qo‘llagan usul va qoidalardan foydalanib yozgan va Horun ar-Rashidga taqdim etgan. “Kitob al-xaroj” asari undan keyin Yaxyo ibn Odam, Abu al-Abbos Muhammad Kotib, Abu al-Faraj Qudama ibn Ja‘far, Xasan ibn Ziyod, Nasr ibn Muso ar-Romiy tomonidan islom

⁴⁹ Doktor Mustafo Shak‘a. Buyuk imom Abu Hanifa No‘mon. – Samarqand, “Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti”. 2019. – B. 123-124.

iqtisodiy tizimi va soliq masalalariga oid kitoblar orasida o'zining ilmiyligi va daqiqligi bilan ulardan ajralib turadi. "Kitob al-xaroj" asarida 550 ga yaqin hadis keltirilgan. Uning ahamiyati juda katta.

Shuni ta'kidlash zarurki, zamon va davr o'tishi bilan shariat o'zgardi. Islom davlati yirik imperiyaga aylangach, Madinada asos solingan ilk islom davlatidagi fuqarolar jamiyatida tabaqalashuv sodir bo'ldi. Aholining boyigan tabaqasi hayotida dunyoviy turmush tarzi ustuvorlik qila boshladi. Ba'zi hukmlarni to'g'ridan-to'g'ri tushunish IX asr islom jamiyati hayotining umumiy tendentsiyasiga mos kelmas va ko'p munozaralarni keltirib chiqarishi tabiiy edi⁵⁰.

"Kitob al-xaroj" asari ham mana shunday masalalarni yechishga qaratilgan asarlar toifasiga kiradi. Uning ahamiyati shundaki, birinchidan, xalifalikda davlat daromadining asosiy manbai bo'lgan soliq tizimini tartibga solishda Abbosiylar davlatiga katta yordam berdi, ikkinchidan, iqtisodiy sohada davlatning ijtimoiy faoliyatini hanafiylik mazhabi qoidalari asosida amaliy hayotga tatbiq etish uchun sharoit yaratib berdi.

"Kitob al-xaroj" asari ilk xalifalik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yoritilgan va bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan biri. Abu Yusufning qilgan ishi unda faqatgina soliq olish haqida yoritib o'tmay, balki katta ijtimoiy xarakterli masalalarga ham e'tibor qaratgan. Muallif uni yoritishda quruq nazariyaga tayanmagan, balki unda aniq faktik materiallar bilan dalillaganligi ahamiyatlidir. Shuningdek, u xalifalikdagi o'zgarishlarni ham hisobga olgan.

Abu Yusuf bu asarni xalifa Horun ar-Rashidning bergan savollariga javob tariqasida yozgan. Muallif kitobning muqaddimasida xalifaga qarata shunday ta'kidlaydi: "ertaga tajovuzkorlar yo'lidan borganlar qatorida Alloh huzurida to'xtamagin, negaki qiyomat kunining egasi o'z bandalarini ularning maqomlariga qarab emas, balki bajargan ishlariga qarab jazo beradi"⁵¹.

⁵⁰ Shuxrat Sirojiddinov. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. –Toshkent. TDSHI nashriyoti. 2008. – B. 42.

⁵¹ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.35.

“Kitob al-xaroj” asarini yozishdan maqsad amaliy hayotda davlat daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi munosabatlarning optimal variantini topishdir. Abu Yusuf hukumat oldidagi javobgarlikni bo‘yniga olib uni dalillarga asoslangan holda yozgan. Bu asar kabi soliq masalalari mukammal yoritilgan asar musulmon davlatchiligi tarixida bo‘lmagan.

“Kitob al-xaroj” xalifa Horun ar-Rashidning buyurtmasi bo‘yicha Abu Yusuf tomonidan bosh qozilik davrida yozilgan. Kitob xalifa tomonidan berilgan savollarga javoblar shaklida tuzilgan. Bu o‘ziga xos uslubda, xalifa nomidan savollar muallifning o‘zi tomonidan shakllantirilgan. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta e’tibor qaratgan. Chunki, kitob tuzilishi jihatidan bevosita ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog‘liqdir. Abu Yusuf “Kitob al-xaroj” asarida soliq undirish usullari, soliq turlariga batafsil to‘xtalgan. Musulmon soliq sistemasi islom qonunchiligida soliq undirish turli o‘lchamlarini ko‘rsatib o‘tgan.

O‘rta asr olimlari Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asariga baho berar ekan, bu asar islom moliyasining umumiy moliyasini tartibga soluvchi asar bo‘lib, u musulmon va nomusulmon fuqarolar o‘rtasida to‘liq adolat tamoyilini o‘zida aks ettiradi.

Mazkur asar asrlar davomida musulmon mamlakatlarida soliqlarni yig‘ish, to‘plash va to‘plangan mablag‘larni taqsimlashda, soliqlar bilan nizolarni qo‘rib hal qilishda muhim manba sifatida xizmat qilib kelgan.

Abu Yusuf tomonidan yozilgan asarlarning har biri jamiyatning biror jabhasiga qaratilgan va uning rivojida muhim rol o‘ynagan. U Abbosiylar davrida yashagan musulmonlarning ijtimoiy hayotini tushunadigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, uning “Kitob al-xaroj” asari o‘z davrida islom qonunchiligi uchun ulkan ish hisoblanadi. Chunki, u yangi nazariyalar bilan soliq tizimini yaxlit qolipga soldi va kitob holida jam qildi. Bu kitob keyinchalik ham ko‘pgina islom davlatchiligida qonunchilik uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa qilganda:

Ilk oʻrta asrlarga kelib islom madaniyati va ilm-fani oʻzining eng yuqori choʻqqisiga koʻtarildi va dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan holda insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda islom dini turli millatlar uchun maʼnaviy va gʻoyaviy birlashtiruvchi kuch rolini oʻynagan.

Musulmon iqtisodiy tizimining shakllanishida islom olimlari mehnatining samarasi ulkan. Islom shariati qoidalariga tayangan musulmon olimlari tomonidan oʻz davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy masalalarni tadqiq etilishi yangi bilimlarning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatgan.

Islomning ilk davrida musulmon iqtisodchilari fiqh olimlari boʻlishgan. Xususan, Horun ar-Rashid davrida bosh qozi boʻlgan fiqh olimi Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarini eslashni oʻzi kifoya. Unda nafaqat soliqqa tortishning huquqiy jihatlariga, balki davlatning iqtisodiy siyosati borasidagi masalalarga ham murojaat etgan.

Abu Yusufning ilmiy merosini oʻrganish asosida fuqarolarning tinchligi, ularning moddiy va maʼnaviy hayotini yaxshilash yoʻlida uning ulkan saʼy-harakatlari aniqlandi. Abu Yusufning islomiy soliq tizimini ishlab chiqishda soliq turlarini birma-bir aniq dalillarga asoslangan holda bayon etishi davlat boshqaruv tizimida mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishda katta yordam berganligi aniqlandi.

II BOB. ABU YUSUF TA'LIMOTIDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY MUNOSABATLARNING FALSAFIY TAHLILI

Islom mutafakkirlari o'z qarashlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy farovonligini bir butun shaklda qarashga intilishgan. Islom davlatida aholiga g'amxo'rlik qilish faqat moddiy farovonlikkagina qaratilgan bo'lmay, u ma'naviy yetuklikni ham o'z ichiga qamrab olgandir.

Ilk o'rta asrlarda islom olimlari tomonidan yozilgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid eng muhim asarlardan biri Yoqub Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari hisoblanadi. Abu Yusufning bu asarida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari keng yoritilgan. Asarda iqtisodiy faoliyat ijtimoiy farovon hayot qurishning muhim yo'nalishi ekanligi ta'kidlanadi.

Abu Yusuf qarashlar yaxshilab o'rganilsa, uning asl maqsadi xalq farovonligini oshirish ekanligini ko'rish mumkin. U jamiyat farovonligini oshirish uchun ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy yondoshuvlarni ishlab chiqdi. Soliq tizimi, imtiyozlar, davlat-shaxs munosabatlari, adolatli sud tartibi kabi masalalar jamiyat farovonligi uchun qaratilgandir.

Abu Yusufning qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti besh umumiy tamoyillarga: tavhid, adolat, nubuvvat, xalifa va oxirat kuniga tayanilganini ko'rishimiz mumkin.

2.1. Abu Yusuf qarashlarida xalq farovonligi masalasining falsafiy jihatlar

Har bir davlat ijtimoiy, tinch-xotirjam va xalq farovonligini ta'mindaydigan mamlakat bo'lishga intiladi. Xalq farovonligini ta'minlash g'oyasi barcha mutafakkirlarning qarashlari aks ettirilgan. Islom dinida inson manfaatlarini qadrlash, uning axloqi, ma'naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy borliqda insonni oliy qadriyatga aylantirish, ijtimoiy adolat va daromadning barcha fuqarolar o'rtasida teng taqsimlanishini nazarda tutadi. Bunday jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarida inson manfaatlarini bosh tamoyil hisoblanadi.

Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida ko‘proq davlat moliyaviy masalalariga murojaat qilganini ko‘rishimiz mumkin. U jamiyatda iqtisodiy munosabatlar shariat qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlaydi.

Islom iqtisodiyotining axloqiy asoslaridan biri adolatlilik tamoyilidir. Islom moliyasida moddiy boyliklarni adolatli taqsimlash, soliq solishda shaxsning ijtimoiy holatini hisobga olish, iqtisodiy munosabatlarda shartnoma shartlariga qat’iy amal qilish muhim hisoblanadi.

Jamiyatning iqtisodiy sohasi kishilarning mustaqil faoliyat turi sifatida yuz yillar mobaynida turli dinlarda shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyat bilan bog‘liq holda rivojlanib keldi.

Islom dinida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar diniy-axloqiy tamoyillar asosida shakllandi. Islom dini o‘zida nafaqat ma’naviy-axloqiy hayotni aks ettiradi, balki kishilarning kundalik hayotdagi hatti-xarakatlari, qonun-qoidalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda barcha moddiy boyliklar Alloh taologa tegishli ekanligi, odamlar mulkning o‘ziga emas, undan foydalanish huquqiga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Islomiy moliyaviy tizim ma’naviy-axloqiy qoidalar bilan muvofiq keladigan aniq ijtimoiy yo‘nalishga egadir. Islomda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ulamolar tomonidan ko‘rib chiqilgan hamda ilohiy mazmun ila belgilangan qonunlar bilan tartibga solinuvchi jamiyat tuzumining bir qismi sifatida tushunilgan, Iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalganligi rivojlanishning asosiy maqsadini – xo‘jalik faoliyati natijalarini taqsimlashda ijtimoiy adolatni ta’minlashni taqozo etadi.

Bundan tashqari, islomiy iqtisodiy bilimlarning rivojlanishi Qur’oni Karim va hadislarda belgilab qo‘yilgan me‘yorlar bilan mutanosib, shaxsning va islom jamiyatining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ilk o‘rta asrlar islom sxolastikasining yetuk mutafakkirlaridan biri Yoqub Abu Yusuf “Kitob al-xaroj” asarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasiga jiddiy e’tibor qaratib, davlat moliyasining shakllanishida soliq tizimining o‘rni muhim ekanligini isbotlab berdi. Bunda farovon jamiyat barpo etish uchun zarur bo‘lgan islohotlar: soliq yig‘ishda adolatlilik, teng huquqlilik, qulaylik va

boshqalarga alohida to'xtalib o'tilgan. Iqtisodchi olim Adam Smit Abu Yusufdan to'qqiz asr keyin shunga o'xshash "soliq qonuniyat"larini muhokama qilgan.

Abu Yusuf iqtisodiy farovon bo'lgan davrda yashagan bo'lsa-da, o'zining ulkan bilimi va aql-idroki tufayli mamlakatning barcha muhim siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy masalalarida xalifaning yaqin maslahatchisi hisoblangan. Xalifa Horun ar-Rashid o'z hukmronligi davrida shariatga muvofiq jamiyatni adolatli boshqarishga intildi. U mamlakatni farovon qilish, kengayib borayotgan davlat xarajatlarini to'g'ri taqsimlash va iqtisodiy foyda ko'rish bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'lishni hohlardi.

Abu Yusuf "Kitob al-xaroj" asarida quyidagi masalalarga ham to'xtalib o'tgan: a) urush va tinchlik davrida davlatning harakatlari, b) harbiy qonun-qoidalar, s) hukmdor va davlat amaldorlarining jamiyat farovonligi uchun mas'ulligi, d) fuqarolarning burch va majburiyatlari.

Abu Yusufning tahliliy dalillarini yoki uning muayyan mavzulardagi sharhlarini chuqur o'rganish hamda uning mamlakat moliyaviy tizimini shakllantirishdagi xizmatlarini isbotlash uchun uning qarashlarini kengroq o'rganish lozim. Abu Yusuf rivojlangan soliq tizimini ishlab chiqish orqali mamlakat qudratini ta'minlash mumkinligini anglab yetdi.

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari xalifa Horun ar-Rashid bergan masalalarga javoban yozgan kitobi bo'lib, unda xalifalikda amalda bo'lgan ko'p sonli soliqlar tahlili, soliqqa oid tartibotlar va unga amal qilinishi asosida uning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rni tadqiq etilgan.

Shunday qilib, Abu Yusuf "Kitob al-xaroj" asarida soliq olinishining tartibini, uning qay shaklda olinishini, soliq olishning turlarini, musulmon va nomusulmonlarga nisbatan munosabatning qanday bo'lishi kerakligini, davlat boshqaruvida podshohning boshqaruvi qay yo'sinda olib borilishi va boshqa ko'plab muhim masalalarni yoritib o'tgan.

Islomda shariat tomonidan tasdiqlangan soliqlar zakot, ushr, xums, xiroj va jizya hisoblanadi. Ushbu soliq shakllari orasida zakot eng yaxshi ma'lum bo'lgani edi.

Xalqning farovonligini ta'minlash uchun islom davlati, ijtimoiy daromadlarni butun fuqaro orasida adolatli bo'lish kabi muhim burchini ijro etishi shart. Ayniqsa bu masala, kambag'al va muhtoj, kam himoyalangan aholi orasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiqhda zakot - aholining boy tabaqasi tomonidan muhtojlar foydasiga ma'lum miqdorda pul to'lash majburiyati edi. Musulmon soliq huquqi normalariga ko'ra, davlat yig'ilgan zakotni jamiyatning nochor tabaqasi foydasiga qayta taqsimlashda vositachi sifatida harakat qiladi, deb hisoblangan.

Zakot islomning vujudga kelishi bilan qonun tusiga kirdi. Chunki u faqatgina soliq bo'libgina qolmay, islomning besh ustuni bo'lmish iymon, namoz, ro'za, hajlar bilan bir qatorda farz amal sifatida e'tirof etilgan. Shu sababdan musulmonlar unga katta e'tibor qaratdilar⁵².

Shuningdek, etimologik jihatdan poklanish, rivojlanish, baraka va foyda ma'nolarini anglatadigan zakot kishilar hayotini farovon qilish va Allohning marhamatiga ega bo'lish deb tushunishga olib kelgan. Xususan, Qur'oni Karimda bu haqida keltiriladi⁵³. Boshqa tomondan, zakot⁵⁴ soliq sifatida islom davlatida yashaydigan musulmonlar uchun majburiy to'lovni nazarda tutardi.

Zakotning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu soliq turi davlat xarajatlari uchun emas, balki Arab xalifaligining kambag'al aholisi foydasiga undiriladi edi. Bu soliqning ijtimoiy ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lgan. Zakot xalifalikdagi boylar va kambag'allar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, mintaqadagi o'zga dinga e'tiqod qiluvchilarni arab davlatiga nisbatan qiziqishini oshirdi va arablarning nisbatan ziddiyatsiz kengayishiga hissa qo'shdi⁵⁵.

Abu Yusuf zakot solig'i asoslari va miqdorini belgilashda Qur'oni Karim va sunnatga muvofiq bo'lgan shariat qoidalariga e'tibor qaratadi. Uning "Kitob al-

⁵² Abdullah Wahib Allami. Principilizing Islamic zakat as a system of taxation. A Thesis Submitted for the Degree of Doctor of Philosophy. College of Business, Arts and Social Sciences Brunel University, London. 2015. - P.11.

⁵³ Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Shayh Abdulaziz Mansur. – Toshkent: 2007. - B.103. (Tavba surasi 103 oyat), – B. 272. (Rum surasi 39 oyat).

⁵⁴ Muhammad (s.a.v) davrida (622-632) chorvadorlardan davlat foydasiga olinadigan soliq – goho "sadaqa" (تصدق), goho "zakot" (زكاة) deb atalib, bu atamalar ilk islom davrida sinonim so'zlar sifatida qo'llanildi.

⁵⁵ Васильев Л.С. История Востока: в 2 т. – М.: Высшая школа., 1994. – С. 495.

xaroj” asarida zakot⁵⁶ olinishi lozim bo’lgan chorva mollar miqdori belgilab o’tilgan. Abu Yusuf shunday deydi: “Sen mendan, ey e’tiqodli amir, tuya, sigir, kichik shoxli mol, otlardan sadaqot (zakot) uchun qancha miqdorda va qay tarzda soliq yig’ish kerakligi haqida so’ragan eding. Sen muhtojlar foydasiga soliq yig’uvchi kishiga shunday farmon etki, ey e’tiqodli amir, u kimlar soliq to’lashi kerak va ehtiyoji bo’lgan kimlarga soliqdan berish kerakligini bilsin hamda bu jarayon Rasulillohning sunnati va undan keyingi xalifalarning tajribasiga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Bilginki, sunnatga to’g’ri amal qilinsa, u uchun ajr-mukofotga sazovor bo’ladi va bu sunnat bilan boshqarilayotgan xalq tomonidan ma’qullanadi. Shu bilan birga, kimki sunnatga muvofiq ish tutmasa, bu uchun javobgarlikni o’z zimmasiga oladi. Buning oqibatida hukumatning obro’sizligi shuncha ortadi. Senga Payg’ambarimiz hadislaridan keltirib Allohga duo qilib so’raymanki, zimmangizga yuklatilgan vazifani Payg’ambar sunnatiga rioya qilgan holda, boshqaruv va hatti-harakatlarni amalga oshirishda madadkor bo’lsin va bu bilan ajr-mukofotga sazovor qilsin”⁵⁷.

Abu Yusuf soliqqa tortishda adolat tamoyillariga qat’iy amal qiladi. Adolatlilik, soliq kitoblarida belgilanganidek, foyda olish uchun tatbiq etilmasligi kerak. Soliqni olishdan maqsad, soliq to’lovchilarga davlat tomonidan yaxshi sharoitlarni yaratish va hayot faoliyatini yaxshilashni ta’minlashdir. Abu Yusuf davlat boylarga, kambag’allarga, qashshoqlarga soliq miqdoridan qat’iy nazar bir xil xizmat ko’rsatilishi shartligini ta’kidlaydi. Shuningdek, yahudiylar, nasroniylar va zardo’shtiylar butun islom davlati hududida musulmonlar bilan birgalikda yashar edilar. Ular o’zga din vakillari bo’lishiga qaramasdan davlat har bir fuqaroni himoya qilgan. Ular zimmiylar deb atalgan⁵⁸. Zimmiylar islom davlati himoyasi ostida yashaganliklari uchun jizya to’lashi kerak bo’lgan.

Ba’zi islom ulamolari jizyani jon solig’i deb ta’riflashgan. Mohiyatan olib qaraganda, jizya islom davlatida yashaydigan g’ayridin kishilarning hukumat

⁵⁶ Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida “zakot” atamasi “sadaqotlar” deb keltirilgan.

⁵⁷ Абу Юсуф Якуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусулманское налогообложение). / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментари и к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.132.

⁵⁸ Zimma - (arabcha – musulmon himoyasidagi aholi) o’rta asr arab xalifaligidagi musulmon bo’lmagan xalqlardir.

ularni himoya qilganliklari uchun to‘lashgan. Abu Yusuf g‘ayridinlar tomonidan to‘lanadigan jizyani hukumat tomonidan ta‘minlangan xavfsizlik va himoya uchun qaytarish sifatida qarash lozimligini tushuntiradi⁵⁹.

Albatta, g‘ayridinlar uchun jizyaning qonuniylashtirilishi ularni islomni qabul qilishga jalb qilishning bir usuli edi. Agar u musulmon bo‘lsa faqat zakot to‘lardi. Agar ular o‘z e‘tiqodlariga sodiq qolsalar, demak, ular qo‘shimcha soliq, jizya to‘lamlari kerak edi.

Jizyaning miqdori zimmiyning iqtisodiy holatini hisobga olgan holda o‘rnatilgan:

1. Boy g‘ayridinlar yiliga kamida 48 dirham to‘lamlari kerak edi.
2. O‘rta tabaqali g‘ayridinlar yiliga kamida 24 dirham to‘lamlari kerak edi.
3. Kambag‘al g‘ayridinlar yiliga 12 dirham to‘lashga majbur edi⁶⁰.

Jizya solig‘i kambag‘al, so‘qir, hech bir ishga ega bo‘lmagan, yordamga muhtoj og‘ir kasalmand, ishsiz bo‘lgan juda qari kishi, aql noqis kishilardan olinmagan. Lekin agar kishi jizya to‘lash imkoniga ega bo‘lsa, aytaylik mol-mulki bo‘lsa, unda u ko‘r bo‘lsa ham to‘lagan. Monastirlardagi monarxlarga nisbatan ham shunday munosabat bildirilgan. Agar jizya to‘lash imkoni bo‘lsa, unda u to‘lagan, agar boylardan yordam oladigan bo‘lsa, unda u to‘lamagan. Biroq, agar g‘ayridin kishi yil oxirida islomni qabul qilsa u jizyadan ozod etilgan. Jizya boshqaruvida Abu Yusuf muloyimlikni alohida ta‘kidlaydi. Musulmon bo‘lmaganlar ozchilikni tashkil etganligi sababli, qozi va davlat ishlarini yurituvchi jamiyatda ijtimoiy tenglik va totuvlikni ta‘minlash uchun ushbu fikrlarning muhimligini ta‘kidlagan.

Arab xalifaligi kengayib borar ekan islomdagi ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar ham o‘zgara boshladi. Xalifa Umar (r.a)ning boshqaruvidagi eng katta yangiliklardan biri uning ishlab chiqarish omili sifatida yerga egalik qilishga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Uning davrida Iroq va Suriya hududlari zabt etilgach shariat qoidalariga ko‘ra qo‘lga kiritilgan o‘ljalar askarlar o‘rtasida

⁵⁹ Misri A., Muhsin Abdul Manan. Historical development of tax during the early Islamic period: Jazyah and Kharaj // Jurnal Al-Tamaddun, Bil. 14 (2), 2019. – P. 3.

⁶⁰ Majid Khadduri. Peace and War in the Law of Islam. London: Edinburgh University Press. - P.193.

taqsimlanishi kerak edi. Biroq Umar (r.a) bunday qilmadi. U yerlarni davlat tasarrufiga o'tkazish va uni asl egalariга soliq to'lash evaziga qaytarib berish hamda ushbu soliqdan islom qo'shiniga maosh berish tartibini joriy etdi. Umar (r.a) o'ljalarni ikki turga ajratdi: ko'chmas mulk va ko'chma mulk. Ko'chma mulklar uchun Quro'ni Karim qoidalari qo'llanilishi kerak edi, ya'ni beshdan biri davlatga va qolgan qismlari jangchilarga taqsimlandi⁶¹. Biroq ko'chmas mulklar, xususan yerlar davlat mulkiga aylantirildi. Davlat bu yerlarni xiroj solig'i to'lash sharti bilan avvalgi egalari qo'lida qoldirdi. Umar (r.a) tomonidan bunday siyosatning yoqlanishi bir qator sabablarga bog'liq:

1. Bosib olingan yerni musulmon askarlariga taqsimlab berish islom jamiyatini feodalistik jamiyatga aylantirishi, natijada mulkiy tafovutni vujudga keltirishi mumkin edi. Bunda Umar (r.a) o'ljalarni taqsimlashni faqat boylar orasida amalga oshirilib qolmasligiga e'tiborni qaratdi.

2. Keyingi avlod uchun ijtimoiy ta'minot tizimini asrab qolish ham maqsad qilingan. Chunki Umar (r.a) aytganki: "Agar hamma yerlarni islom askarlariga taqsimlasam, unda Iroq va Suriyaning yangi avlodlari uchun nima qoladi?"

3. Bosib olingan hududlarni mudofaa qilish va yangi harbiy urushlarni davom ettirish uchun doimiy moliyaviy manbaga ehtiyoj bo'lgan. Agar yer mulkdorlar qo'lga tarqatilsa, ular yerga xiroj solig'ini to'lashganlar. Yig'ilgan soliq tushumlaridan askarlarga mablag' ajratilgan.

Shunday qilib, xalifa Umar (r.a) davridan boshlab bosib olingan yer jangchilarining to'liq mulkiga o'tkazilmasdan, yerni shaxsiy mulk sifatida qoldirib, ularga xiroj to'lash lozim qilib qo'yildi.

Abu Yusuf fath qilingan hududlarni saqlab qolish va ular bilan bog'liq muammolar hukmdorning asosiy tashvishi bo'lgan davrda yashagan. Abu Yusufning qarashlari uning o'sha paytdagi yer solig'i bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammoni aks ettiradi. Yer solig'i soliqning eng qadimgi va keng qo'llaniladigan shakli hisoblanadi. Qadimgi davr, o'rta asrlar va hozirgi davrlarda ham biz barcha

⁶¹ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P.44.

jamiyatlarda daromadning asosiy manbalaridan bir sifatida yer solig'ini uchratamiz.

Xalifa Umar (r.a) soliq yig'ishda Sosoniylar rejimini saqlab qolishni ma'qul ko'rdi. Bu tizim misaha⁶² deb nomlangan. Abu Yusuf bu tizimni zukkolik bilan o'rganib chiqdi va uning kamchiliklarini aniqladi.

Abu Yusuf "Kitob al-xaroj" asarida xiroj solig'ining yangi usulini joriy etgan. Abu Yusufgacha bo'lgan davrda bosib olingan yerlarni soliqqa tortishda Umar (r.a) joriy etgan tartib bo'yicha amalga oshirilgan. Abu Yusuf Umar (r.a) hukmidan chetga chiqib, o'z risolasida yerning hajmidan emas, balki yetishtirilgan hosilni taqsimlashga asoslanadigan soliq usulini – muqosama⁶³ ni taklif etdi.

Abu Yusufning asarida shuni ko'rishimiz mumkinki, u davlat siyosatini himoya qilgan va xalifalikda olib borilayotgan siyosat xuddi u aytganidek deb hisoblagan. Biroq ko'pgina tarixiy materiallardan ma'lumki, barcha arab xalifalari ham u aytgani kabi ish yuritmagani. Biroq unutmazlik lozimki, Abu Yusuf arablarning o'zga yurtlarni qurol kuchi bilan zo'rlab bosib olingan va tortib olingan yerlarning statusini emas, balki undan keyingi xuddi shu yerlardan olinadigan soliqlar va ularning qay tariqa olinishi lozimligi yoritib o'tgan.

U soliqlarni naqd pul yoki natura shaklida yig'ishni taklif qiladi. Shuningdek bu tizimga ko'ra narxlar o'zgarishi davlat daromadlariga zarar yetkazmasligini va dehqonlar daromadini kamaymasligini ta'kidlaydi. Chunki yangi tizimga ko'ra soliq egalik qilinadigan yerlarning umumiy maydonidan qat'i nazar, hosilning umumiy miqdoriga qarab hisoblab chiqiladi. Bu yerga yaxshi ishlay olmaydigan dehqonlar uchun yengillik bo'ldi. Bundan tashqari, u dehqonlarni o'zlashtirilmagan va qarovsiz yerlardan foydalanishga va yangi tizim asosida qo'shimcha daromad olishga ishontirdi. Abu Yusuf yangi tizim davlatning soliqdan tushadigan daromadlari ko'payishini ta'kidladi. Shuning uchun u davlat dehqonlarga yaxshi sharoit yaratish uchun yangi kanallar qazishi, eski kanallar suv yo'llari tozalashi va zaruriy ishlarni amalga oshirishi lozimligini qat'iy tavsiya

⁶² Misaha – yerlarning hajmidan kelib chiqib o'rnatilgan soliq tizimi.

⁶³ Muqosama – dehqonlar tomonidan yetishtirilgan hosilning miqdoridan kelib taqsimlash tizimini.

qildi. Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini mulohaza qilar ekanmiz, u soliq manbai sifatida yerni emas, balki yerdan olinadigan daromadni afzal ko'rgan. Ushbu masala iqtisodchilar o'rtasida har doim muhokamali mavzu bo'lib kelgan. Ular qaysi biri samaraliroq mol-mulkni soliqqa tortishmi yoki mulkdan tushadigan daromadnimi? Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini o'rganib shuni aytishimiz mumkinki, u soliq manbai sifatida mulkdan tushadigan daromadni tanlagan.

Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini tahlil etar ekanmiz, shuni ta'kidlash zarurki, birinchidan, biz o'rganayotgan davr ilk o'rta asrlar davri hisoblanadi, ikkinchidan, iqtisodiy hodisalarning ko'lami ijtimoiy hayotdan yuqori emas edi, ayniqsa natural xo'jalik hukm surardi. Boshqa tomondan Abu Yusuf davrida qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish rivojlangan bo'lib, uning maqsadi, maxsulot yetishtirish va uni to'g'ri, adolatli taqsimlash borasidagi yondoshuvga asoslanligini ta'kidlab o'tish zarur.

Aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bosh vazifalardan biri bo'lgan. Abu Yusuf davlat aholi farovonligini ta'minlashda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- Davlat odamlarning yashash ehtiyojlarini qondirishi va ularning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Abu Yusufning fikriga ko'ra, davlat barcha o'z fuqarolarini ijtimoiy himoyaga olishi va ularning asosiy ehtiyojlarini ta'minlashi zarurdir. "Kitob al-xaroj" asarining kirish qismida xalifaga bu mavzuda zulmning oldini olish va davlat manfaatlarini himoya qilish uchun daromad yig'ishda zaruriy harakatlarni qilishi uchun bu kitobni yozganini ta'kidlagan. Uning aytishicha, zakot solig'i "kambag'al va kam ta'minlanganlarni eng zarur narsalar bilan ta'minlashga sarflanishi kerak". Shuningdek, barcha insonlar, hattoki mahbuslar ham oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana bilan ta'minlanishi kerakligini ta'kidlaydi⁶⁴.

- Abu Yusuf davlatning o'z fuqarolarni himoya qilishi uchun harbiy qudratni oshirish va uni qo'llab-quvvatlash uchun davlat yetarli iqtisodiy kuchga ega

⁶⁴ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.187.

bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. U fuqarolardan yig'ilgan soliqlarni qo'shinlarga ish haqi sifatida sarflash va shu bilan harbiy yurishlarni olib borish, xalifalik yerlarini dushmanlar tomonidan bosib olinishiga qarshi xavfsizlikni ta'minlash kerakligini ta'kidlaydi⁶⁵.

- Abu Yusuf ichki xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan shuni aytadiki, jamiyatning har bir a'zosini adolatsizlik va zulmdan himoya qilish, zamonaviy tilda aytganda jamiyatda adolat va qonun ustunligini ta'minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biridir⁶⁶. U musulmon qonunchiligini qat'iyat bilan amalga oshirishga katta ahamiyat beradi. U insonlarni zulm va adolatsizlik qilmaslikdan ogohlantiradi. Shuningdek, u rahbarlarga nizoli vaziyatlarda qozi kabi adolatli bo'lishni maslahat berdi.

- Abu Yusufga ko'ra ijtimoiy ta'minotda davlatning muhim vazifasi nafaqa va in'omlarni to'g'ri berishdir. Ushbu in'omlar "Islom uchun foydali ish qilgan, islomni dushmanlariga qarshi qudratini oshiradigan hamda hukmdor musulmonlar uchun foydali deb biladigan har qanday ish qilganlarga" beriladi⁶⁷. Urushlarda halok bo'lgan askarlarning ayollari va farzandlariga doimiy ravishda bunday in'omlar berib turilgan. Ayniqsa, xalifa Umarning bu boradagi ishlarini amaliyotda qo'llab-quvvatlash bo'ladi.

- Abu Yusuf, samarali va halol boshqaruv tizimi bo'yicha juda ko'p qayg'uradi. Uning so'zlariga ko'ra, zulmsiz, ammo qat'iy va kuchli, biroq yumshoqlik bilan boshqariladigan samarali fuqarolik tizimi zarur. U "aholiga zulmsiz, adolatli va halol munosabatda bo'lish mamlakat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi va bu soliqlardan tushadigan daromadni ko'paytiradi, zulm va insofsizlik esa uni barbod qiladi", deydi⁶⁸. Soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qilish va davlat daromadlarini oshirish uchun avvalo, soliq to'lovchilarga ortiqcha zulm qilmasdan soliqlarni undirishni, shuningdek, soliq yig'uvchilar tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan qo'pol muomalasini qat'iy qoralash va buni jinoiy

⁶⁵ Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. - Singapore: McGraw Hill. 1987. -P.3-6.

⁶⁶ Bastable C.F. Public Finance. - New York: Macmillan. 1903. -P.74.

⁶⁷ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. -P. 36.

⁶⁸ Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. - Beirut: Dar al-Marifah. 1979. - P.131.

harakat sifatida qabul qilish, turli vazifalarga halol va ishonchli rahbarlarni tayinlashni taklif qildi.

- Abu Yusufning ta'kidlashicha, davlat mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish va natijada davlat daromadini ko'paytirishga olib keladigan ijtimoiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga harakat qilishi kerak. U qishloq xo'jaligi sohasi bilan shug'ullanganligi sababli, u "erning hosildorligi va davlat daromadini oshirish uchun eski kanallarni tozalash, yangisini qazish va to'g'onlarni qurishni hukmdor zimmasiga yuklaydi. U Ijtimoiy mahsulotlarni ko'paytirishda kuzatiladigan turli toshqinlar va tabiat hodisalari zararini oldini olish uchun daryo bo'yida to'g'onlar va dambalar qurish kabi xarajatlarni davlat tomonidan amalga oshirish orqali ijtimoiy mahsulotlarni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. U har qanday nosozlik qishloq xo'jaligiga zarar yetkazishini va soliqlardan tushadigan daromadni kamayishiga olib kelishini ta'kidlaydi"⁶⁹. Shunday qilib, u yerning hosildorligini oshirish va iqtisodiyotning o'sishi uchun davlat odamlarga infratuzilma inshootlarini taqdim etishi kerakligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Abu Yusuf ko'priklar va ko'tarmalar qurish, kanallar qazish va boshqa davlat mablag'laridan foydalanib bajariladigan uzoq muddatli loyihalarni samarali amalga oshirish bo'yicha aniq amaliy takliflarni oldinga surgan⁷⁰.

Abu Yusufning davlat haqidagi qarashlarini zamonaviy iqtisod nazariyasida "farovonlik davlati" tushunchasi bilan taqqoslasa bo'ladi⁷¹. Bugungi kun olimlari "farovonlik davlati" kontseptsiyasi zamonaviy siyosiy-iqtisodiy holatga tegishli deb hisoblashadi. Biroq, davlatning iqtisodiy hayotdagi roli haqidagi qarashlariga e'tibor qaratsak, davlat farovonligi uchun juda keng qamrovli kontseptsiyani maqsad qilganini ko'rishimiz mumkin.

⁶⁹ Абу Йўсуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.241.

⁷⁰ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. - P. 37.

⁷¹ "Farovon davlat" konseptsiyasi ikkinchi jahon urushidan keyin keng qo'llanila boshlandi. Unga ko'ra, jamiyat o'zining har bir a'zosining kun kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalarning eng kam miqdorini yaratadi, davlat siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va ijtimoiy bo'hronlarning oldini olishga qaratilmog'i kerak. Chunki davlat zamonaviy iqtisodiyot sharoitida o'z fuqarosining kambag'al bo'lib, yordamga muhtoj bo'lib qolishidan mutlaqo manfaatdor emas.

Abu Yusuf o'sha davrda muhim bo'lgan savofi⁷² - o'zlashtirilmagan yerlarga e'tibor qaratdi. Bunday yerlarga quyidagilar kirgan: Sosoniylar shohi va uning oilasining yerlari, urushda o'ldirilgan, biroq merosxo'ri bo'lmagan yerlar, dushman yurtiga qochib ketganlarning yerlari, suv osti yerlari, pochta aloqasi binolari va hech kimga tegishli bo'lmagan, biroq ishlov berilsa foydalanish mumkin bo'lgan yerlar.

Bunday yer biror kishiga tortiq etilsa, u qati'a deb atalgan. Abu Yusuf davlat hukmdori kishilarni islom dini yo'lidagi xizmatlarini qadrlash uchun savofi yerlar bilan mukofotlashga haqli ekanligini ta'kidlagan.

Abu Yusuf bu yerni tarqatishdan maqsad kishilarni hukmdordan roziligini ko'rsatish va unga berilgan yerdan samarali foydalanishni kafolatlash deb hisoblaydi. U yerga egalik qilishda barqarorlikni ta'minlashni va hukmdorlarning ushbu hukmlarni o'zgartirishga bo'lgan erkinligini cheklash maqsadida, yerni berish to'g'risidagi hukmni undan keyingi hukmdor boshqa bekor qilmasligi kerakligini ta'kidlagan. Yerni qaytarib olish mumkin emas edi, biroq, qati'a olgan shaxs yerni sotish yoki meros qilib o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Bu fikrni tasdiqlash uchun Abu Yusuf, agar yer qaytarib olinadigan bo'lsa, demak, bu birovni mulkini o'g'irlagan va o'g'irlangan mulkni boshqasiga berishga o'xshaydi, deb aytib o'tadi.

Abu Yusuf o'z kitobida mamlakatda turli huquq va imtiyozlarga bir necha bor to'xtalib o'tgan. Masalan, Kitob ahlining diniy bayramlarini o'tkazish, cherkovlar, ibodatxonalar va monastirlarni qurish, muqaddas kitoblari bo'lmagan odamlar, o'g'irlik va axloqiy jinoyatlar, xoinlik va josuslik kabi tadbirlar. Ushbu masalalarning barchasi soliqqa tortish yoki davlat moliyasi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, ular Abu Yusufning ta'kidlashicha, davlatning huquqiy asoslari uchun juda muhimdir. Demak, Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari faqat "yer solig'i" bilan bog'liq masalalar emas, jamiyat hayotini tartibga soladigan boshqa masalalarga ham ahamiyat bergan.

⁷² Savofi – ekin yetishtirsa bo'ladigan, ammo turli sabablarga ko'ra o'zlashtirilmagan egasiz va davlat yerlari.

Abu Yusuf yerlarni ijaraga berishga e'tibor bergan, xususan, o'zlashtirilmagan joylarni ijara asosida tiklashga alohida to'xtaldi. Bu masalada Abu Yusufning qarashlari Hijozdagi fiqh ulamolarining fikrlaridan farq qilgan.

Abu Yusuf o'zaro sheriklik orqali ijaralarga ruxsat beradi. U sheriklikda kimdir o'z mablag'i bilan, kimdir o'z mehnati va tajribasi bilan sherikka aylanadi. Ular o'zaro sheriklik bitimini tuzishlari lozim bo'ladi. Olinadigan foyda, garchi hali qancha bo'lishi noma'lum bo'lsa ham, foyda va zararni teng taqsimlashga asoslanadi. Bunday sheriklik bitimi fiqh ulamolari tomonidan qabul qilingan. Abu Yusufning fikriga ko'ra, unumsiz yerlar, bog'lar va boshqa daraxtzorlarni ijaraga berish sheriklikka o'xshaydi. Abu Yusuf ijara shartnomalarining turli shakllarini aytib o'tadi, unda sheriklar o'rtasidagi munosabatlar va ulardan undiriladigan soliq miqdori bayon qilingan. Uning tasnifidan ko'rinib turibdiki, Abu Yusuf ijara ko'lamini kengaytirish orqali ba'zi holatlarga ruxsat bergan. U sheriklar o'rtasida bitim tuzishdan oldin shartnoma shartlari bo'yicha aniq bo'lishi kerak degan prinsipdan voz kechmagan holda jamiyat manfaatlarini ham hisobga olish kerakligiga e'tibor bergan.

Abu Yusuf o'z e'tiborini o'zlashtirilmagan yerlarni tiklashga qaratgan. Uning fikriga ko'ra bunday turdagi yerlarning egasi davlatdir. U hukmdorga bunday yerlarni o'zlashtiradigan va rivojlantiradigan kishiga mulk sifatida berishni taklif qildi. Bunday yerlar iqto' deb ataladi. Abu Yusuf bunday turdagi yerlarni o'zlashtirish odamlarning hayotini yaxshilaydi va davlat iqtisodiyotini rivojlantiradi deydi.

Abu Yusuf barcha musulmonlar katta daryolarda sherik ekanliklarini ta'kidlaydi. Ular daryolar suvidan o'zlari va hayvonlari ichishi uchun, dala va bog'larni sug'orish uchun har qanday cheklovlarsiz foydalanishlari mumkin. Shuningdek, u boshqalarga zarar yetkazmasligi sharti bilan, shaxsiy foydalanish uchun yangi kanallarni ochish mumkinligini ta'kidlaydi, agar ushbu yangi kanallar uylarga va ekinlarga zarar yetkazadigan bo'lsa, hukumat buning oldini olishi kerak. Shunga ko'ra, Abu Yusuf jamoat yerlaridan foydalanishda salbiy tashqi tomonlarga e'tibor qaratadi. Masalan, agar suv tegirmonlari katta daryolarda ruxsat

etilsada, biroq ular kemalarning o'tishiga to'sqinlik qilsa, ular hukumat tomonidan olib tashlanishi kerak. Agarda biror kishiga tegishli yerda buloqlar, quduq va suv o'zani bo'lsa, undan ichimlik suvi iste'moli uchun to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, uni ichimlik suvi uchun sotishga haqli emas. Biroq, u sug'orish maqsadi to'sqinlik qilishga haqlidir. Agar suv egasining ehtiyojidan ortiqcha bo'lsa, Abu Yusuf uning egasi undan ortiqchasini sug'orish maqsadida boshqalarga berishga majburdir degan fikrda. U Payg'ambarimiz (s.a.v) ning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Suvni o'zingizning ehtiyojlaringiz uchun ishlatgandan so'ng, yaqin atrofingizdan boshlab, qo'shnilaringizga oqizib tushiring". Abu Yusufning ortiqcha suv haqidagi g'oyalari uning xalq farovonligi uchun qayg'urishini ko'rsatadi. U tabiiy resurslar hamma uchun ochiq va erkin bo'lishi kerakligini, ular ma'lum bir shaxslar tomonidan chegaralanilmasligini ta'kidlaydi. Ushbu qoida islom davlati fuqarolari uchun zarur bo'lgan muhim bo'lgan yashash vositalarini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni anglatadi⁷³.

Abu Yusuf qishloq xo'jaligi sharoitlarini yaxshilashda davlat tomonidan olib boriladigan jamoatchilik ishlarining ahamiyatini yoritib o'tadi. Davlat kanallarni qazish, ko'priklar qurish va yo'llarni to'g'rilashi kerak. Bu ishlov berilmagan yerlar maydonini kamaytirishga, ishlov berilgan yerlarning unumdorligini oshirishga va natijada soliq tushumini ko'paytirishga yordam beradi. Shuning uchun u jamoat ishlari davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi, chunki bular yer egalari zimmasiga tushadigan katta xarajatlardan xalos etadi.

U mamlakat taraqqiy etishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi, shuningdek u ko'priklar qurish, kanallarni qazish kabi ishlarni amalga oshirishda davlat bunday xarajatlarni qanday qoplashi bo'yicha taklif beradi. Buning uchun adolatli va samarali soliq tizimini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, davlatning asosiy daromadi ekin yerlaridan olinadigan soliqlarga bog'liq, shunga ko'ra yangi soliq tizimi ko'proq maydonlarni ekin ekishga undaydi. U o'z xalqining ehtiyojlarini qondirish va

⁷³ Nasrulloh Ali Munif. Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol.7, Juni 2019. – P.20.

ularning har tomonlama yaxshi yashashi bo'yicha hukmdorga bir qator takliflarni bayon qildi. Shuningdek, u soliqqa tortishda adolat va tenglik zarurligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, hukmdor davlat pullarini ishonchli tarzda saqlashi va uning sarflanishi uchun javobgar bo'lishi kerak.

Abu Yusuf davlat masalalarini o'rganishda hukmdorni davlatning iqtisodiy majburiyatlari amalga oshirish zarurligiga e'tiborni qaratadi. Shuningdek, u hukmdor odamlarning umumiy farovonligi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qanday ishlashi kerakligini aytib o'tadi. U davlatni hukmdorning qo'lidagi Allohning in'omi deb biladi. "Alloh sizga topshirgan narsaga ehtiyot bo'ling va sizga ishonib topshirilgan hukmlarni bajaring". Musulmon davlatining farovonligi uchun u shunday ta'kidladi: "Hukmdor xalq farovonligi uchun javobgardir va u ular uchun hamma narsani qilishi kerak"⁷⁴. Xalifa Horun al-Rashidga yozgan risolasida u odamlarning farovonligini ta'minlash va ularni qiyinchiliklardan xalos qilish musulmon davlatining asosiy maqsadi deb ta'kidlagan. Shuningdek, u barcha a'zolarining farovonligini ta'minlaydigan va xalqning umumiy farovonligi va obodligini oshiradigan bunday siyosat zarurligini yozadi. U shunday deydi: "bu kitob xalifaga uni o'rganish va unga amal qilish uchun yozilgan bo'lib, uning qo'l ostidagilarga zulm qilmaslik va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan"⁷⁵.

Abu Yusuf tomonidan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va majburiyatlari haqidagi qarashlari boshqa manbalarda uchramaydi. Biz uni u yozgan asarlari orasidangina topishimiz mumkin. Avvalo, davlatga daromad keltiradigan manbalar, sarf-xarajatlar, boshqaruv siyosatiga oid qarashlarni batafsil bayon qilishdan oldin, uning iqtisodiy hayotdagi davlatning o'рни haqidagi fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Abu Yusuf o'z risolasida davlatning asosiy maqsad va vazifalari haqida batafsil to'xtalgan. Uning ta'kidlashicha, hukmdor o'z xalqining manfaatlarini himoya qiladigan ishlarni amalga oshirishga majbur. Shuningdek, hukmdor aholi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni

⁷⁴ Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. - Beirut: Dar al -Marifah. 1979. - P.119.

⁷⁵ Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. - Beirut: Dar al -Marifah. 1979. - P.119.

ularga yetkazib berish va iqtisodiyotning rivojlanishi uchun kerakli tadoriklarni amalga oshirish uchun javobgardir. Uning asarida davlatning maqsadlari quyidagicha aks ettirilgan:

1. Aholining asosiy ehtiyojlarini ta'minlash.
2. Dinni himoya qilish va Allohning kalomining ustunligini ta'minlash.
3. Halol va adolatli boshqaruv tizimni o'rnatish.
4. Iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish.
5. Xalqning umumiy farovonligini ta'minlash⁷⁶.

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida keltirib o'tilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga oid fikrlari juda katta ahamiyatga ega, chunki bu asar islom iqtisodiyoti bo'yicha yozilgan ilk asar sifatida ilk musulmon olimining tafakkuri haqida tushunchaga ega bo'lish uchun asarni batafsil ko'rib chiqish kerak edi, ayniqsa davlat moliyasi va boshqaruv tizimi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi, xalq farovonligini oshirish borasidagi muhim manba ekanligi uning bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshiradi.

2.2. "Kitob al-xaroj" asarida ijtimoiy adolat g'oyasining iqtisodiy-falsafiy ahamiyati

Islom iqtisodiyotining asosiy g'oyaviy asoslaridan biri adolat tamoyilidir. Islom bozor iqtisodiyoti va bozor ta'sirini rad etmaydi. Hatto manfaat olishga bo'lgan rag'bat mantiq doirasida maqbuldir. Xususiy mulkchilik butkul rad etilmaydi. Islomdagi iqtisodiy munosabatlarda ba'zi diniy va axloqiy me'yorlar cheklanadi.

Agar insoniyat Allohning buyrug'i va shariyat talablarini, har qanday holatda va nima bo'lishidan qat'iy nazar, rioya etilishi lozim bo'lgan mutlaq adolat va so'zsiz amrlar sifatida qabul qilib unga bo'ysunmas ekan, o'zaro iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan adolatsizliklar tugamaydi.

⁷⁶ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. -P.36.

Adolat – kishilik jamiyatining eng oliy axloqiy qadriyatlaridan biri, minglab insonlarning e'tiqodi, ilohiy ne'mat yoki kurashib erishish zarur bo'lgan ijtimoiy hayotning ustuvor tamoyili. Ushbu axloqiy kategoriyaning shakllanishi, insoniyat hayotida mazmun aks eta boshlashi ilk davlatlar, dastlabki sivilizatsiyalar bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, ijtimoiy adolat mavjudligi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy talablaridan biri hisoblangan.

Adolat – ijtimoiy falsafiy kategoriya. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan adolat ijtimoiy adolat tushunchasi bilan ifodalanadi hamda jamiyatning barcha a'zolarining ijtimoiy tengligi orqali ta'minlanadi. Adolatning axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni va o'zaro axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi.

Islom dini vujudga kelgan ilk davrlardanoq ijtimoiy adolatni o'rnatishni, barcha musulmonlarni bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan jamiyatga birlashtirishni o'zining asosiy maqsadiga aylantirgan.

Islom dini tarqalgan barcha mintaqalarda ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. Sharq Renessansining vujudga kelishiga ham islom dini, uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilgan ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat, ilm-ma'rifatga intilish kabi axloqiy normalari bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Islomda adolat biron narsani o'zining haqiqiy joyiga qo'yishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, islom dini falsafasida adolat tamoyili kamida uchta holatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, biror bir lavozim yoki vazifaga munosib insonni qo'yish orqali adolat o'rnatiladi. Ikkinchidan, qaror qilinayotgan qarorlarni ushbu hukm tegishli bo'lgan vaziyat yoki shaxsning holatidan kelib chiqib qabul qilish orqali adolat ta'minlanadi. Uchinchi holatda esa adolat boylik yoki mol-mulkning unga kim munosib bo'lsa, ushbu mulk aslida kimga tegishli bo'lsa, unga berish orqali adolatga erishiladi.

Ijtimoiy adolat g'oyasi G'arb falsafasida markaziy o'rinda turadi. Birorta e'tiborli ijtimoiy-siyosiy, falsafiy oqim adolat, ijtimoiy adolat muammolarini chetlab o'tmagan.

Agar Aristotel "adolat" tushunchasini davlat, hukuq, siyosiy munosabatlar, ezgu amallar mezoni sifatida qarasa, Epikur uni "kishilarning bir-biriga zarar yetkazmaslik va zararga chiday olmaslik haqidagi o'ziga xos shartnoma", Sitseron fikriga ko'ra esa adolat "har kimga yarashadir va kishilar o'rtasidagi tengliqdir", Foma Akvinskiy ijtimoiy adolatni qonunlar bilan bog'laydi; ularni adolatli (tabiiy va ilohiy qonunlarga zid kelmaydigan qonunlar) va adolatsiz (ko'pchilik manfaatlariga mos kelmaydigan, qonun chiqaruvchini himoya qiladigan qonunlar) qonunlarga bo'ladi. Tomas Gobbs "adolat" tushunchasini kishilar o'rtasida tuziladigan shartnomaning bajarilishi bilan bog'laydi. Shuning uchun u ushbu shartnomaning (adolatning) bajarilishini ta'minlash uchun majburlovchi kuch, hokimiyat zarur deb biladi. Sharlʼ Monteskye esa boshqacharoq fikrni bildiradi. Ijtimoiy adolat kishilar yaratadigan rasmiy qonundan oldin keladi. Shuning uchun kishilar yaratadigan qonunlar adolatli bo'lishi va adolatli munosabatlardan kelib chikishi lozim. Mutafakkir qonunlarning adolat mezonlariga, aql-u idrok talablariga, huquqiy negizlarga, kishilar o'rtasida tenglikni qaror toptiruvchi munosabatlarga qurilgan bo'lishini nazarda tutadi⁷⁷.

Abu Yusuf ilk xalifalik davrida islomiy "hayot tarzi" ustuvor bo'lgan jamiyatda yashagan. Davlat faoliyati va fuqarolarning hayot tarzi, Qur'oni Karimda buyurilgan, Payg'ambar (s.a.v) tomonidan ishlab chiqilgan va xulfofi roshidin tomonidan amal qilingan shariat qoidalariga binoan boshqarilgan. Abu Yusuf aytadiki, din va Allohning kalomini ustunligini himoya qilish davlatning eng muhim vazifasidir. Shunga ko'ra, hukmdor mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga alohida e'tibor qaratishi, davlat xazinasini islomni rivojlantiradigan yoki

⁷⁷ Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va ma'naviy hayot. – Toshkent. "Falsafa va huquq" instituti nashriyoti. 2007. –B. 34.

islom dushmanlariga qarshi kurashda kuchaytiradigan narsalarga sarf etilishi kerak⁷⁸.

Qur'oni Karimda hunarmand, dehqon va chorvadorlar mehnati, umuman halol mehnat qadrlanadi, barcha boylıklar mehnat tufayli paydo bo'lishi ta'kidlanadi. Bunga muqaddas kitobda katta e'tibor qaratilgan. Sudxo'rlik qoralanadi, birovning mulkiga xiyonat gunoh deb ko'rsatiladi, mulkning muqaddasligi, undan oqilona istifoda etish ta'kidlanadi. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb, tan olinadi, ammo halollik va to'g'rilik buyuriladi va yolg'on ishlatish, o'g'rilik va mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Kishi yo aqli yoki jismoniy mehnat qilsa va o'sha mehnati evaziga birovdan haq olsa olingan haq, albatta halol hisoblanadi. Lekin, aksincha, hech qanday mehnatsiz birovning narsasini olsa, bu o'g'rilik bilan barobardir, haromdir⁷⁹. Qur'oni Karimda qarz olish va berish, merosni taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish, o'zaro yordam berish haqidagi g'oyalarni hamda soliq turlari va miqdori to'g'risidagi tushunchalar katta ahamiyat kasb etadi⁸⁰.

Abu Yusufning qarashlarida islomni xalq orasida faqatgina yoyish emas, balki unga amal qilishni uqtiradi. U o'zi yozib chiqqan kitoblarida kishilar amal qilish kerak bo'lgan narsalarni qonun tusiga chiqaradi. Natijada u oddiy kishilar kundalik hayotda amal qiladigan narsalar emas, balki davlat qonuni etib belgilanadi. Albatta, uning bu xizmatlari jamiyatni ancha tartibga keltirishga olib kelgan.

Islomda ijtimoiy adolat ta'limoti islomning ilk davridan shakllangan bo'lib, ming yillar mobaynida iqtisodiy faoliyatning axloqiy jihatlari bilan himoyalandi. Bu islom mafkurasidagi eng muhim omil hisoblanadi. Chunki jamiyatning iqtisodiy sohasi bilan taqvoli musulmon kishisining o'zaro faoliyati bir-biri bilan bog'liq jihatlari kuzatiladi. Bunda, adolat iqtisodiy resurslarni tasarruf etishda me'yor bo'lib xizmat qiladi.

⁷⁸ Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. - Beirut: Dar al -Marifah. 1979. - P.119.

⁷⁹ Mansur A. Imom A'zam – buyuk imomimiz. – Toshkent. “G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at” nashriyoti. 1999. –B. 35.

⁸⁰ Islomov A., Egamov F. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. –Toshkent. “O'zbekiston”. 2003. – B.73.

Islomdagi iqtisodiy munosabatlarda quyidagi adolat me'yorlari amal qilinadi:

- Shartnomalarda adolatsizlik ta'qiqlanadi.
- Shartnomalarda noaniq bandlar kiritish ta'qiqlanadi.
- Sudxo'rlik ta'qiqlanadi.
- Ruxsat etilmagan faoliyat bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi.

Har bir musulmonning diniy-axloqiy xatti-harakatini tashkil etuvchi ushbu cheklovlarning diniy-falsafiy asoslarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Islom mafkurasining asosiy mafkuraviy asoslaridan biri adolat tamoyilidir. Islom an'anasida hamma narsaning haqiqiy egasi Alloh ekanligi, shaxs – mulklarni ishonchli tasarruf etuvchi ekanligi, insonga ishonib topshirilgan resurslar butun jamiyat uchun xizmat qilishi kerakligi, resurslarni taqsimlashda adolat tamoyilidan kelib chiqish lozimligi tushunchasi mavjud.

Falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy adolat ko'pincha iqtisodiy adolat bilan tenglashtiriladi. Ijtimoiy adolat, Abu Yusufga ko'ra, "faqatgina iqtisodiy jihatdan adolat emas, balki umuman insoniy adolatdir". Ijtimoiy adolat iqtisodiy adolatdan ko'ra ko'lami jihatidan ancha kengroqdir. U Jamiyatda boylikni adolatli taqsimlash bilan bog'liq. Shunga ko'ra iqtisodiy adolat ijtimoiy adolatning muhim tarkibiy qismidir. Iqtisodiy adolat har bir shaxsdan moddiy resurslardan foydalanish va boshqarishda ishtirok etishini talab qiladi. Hamma uchun daromad olishda imkoniyatlar tengli ustuvor ahamiyat kasb etilishi zarur. Biroq, daromad qonuniy bo'lishi kerak.

Abu Yusuf soliqlardan tushadigan daromadlarni adolatli taqsimlash hukmdorning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan u xalifa Umarning quyidagi so'zlarini aytadi:

Soliqlar adolatli va qonuniy tarzda yig'ilgan taqdirdagina o'zini oqlaydi va ular adolatli, qonuniy ravishda sarflanadi. Xalifa Umarning bu borada sobitligini ta'kidlab aytadiki: "Men yig'ilgan soliqlarni qonuniy yo'l bilan sarflashim kerak,

chunki men maoshlarni oshirishim va aholi punktlarini mustahkamlashim kerak⁸¹. Abu Yusufning bu boradagi qarashlari ba'zi olimlarning fikriga o'xshashdir, ular daromadlarni adolatli va halol taqsimlashni davlatning asosiy vazifalaridan biri deb bilishadi.

Abu Yusuf Abbosiylar xalifaligida amalda bo'lgan soliq tizimi chuqur tahlil qilib shunday xulosaga kelgan, fuqarolardan favqulodda soliqlarni yig'ib olish davlat uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini aytib o'tadi. U soliq yig'uvchilar tomonidan soliqni yig'ib olishda aholining imkoniyatiga qarashi, ular uchun qulay bo'lgan vaqtda yig'ishi, davlatdagi soliq tashkilotini markazlashtirilish zurligini ta'kidlaydi. Abu Yusuf musulmon olamida keng tarqalgan ijaraga olish va berish tartibini ham yaxshi yoritib o'tgan. Uning fikricha, davlat yig'ib olingan soliqning hammasini g'aznaga yig'may, ularni ijtimoiy ahvolni yaxshilashga sarflashi lozimligini ta'kidlagan. Abu Yusuf tomonidan ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan biri, qabul qilingan qonunlarda barcha millat va turli din vakillarining tengligi e'tirof etilgan. Xususan, soliq yig'ishda o'zga dinga e'tiqod qiluvchilarga jabr-zulm yetkazish nojoiz ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Abu Yusuf mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va xazinani to'g'ri saqlashga katta ahamiyat berdi. U qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli foydalanishni yaxshi bilgan. Shu munosabat bilan u xalifaga "hech kimga tegishli bo'lmagan o'lik va ishlov berilmagan yerlarning barcha turlari ularga ishlov beradigan, ularga tegishli yer solig'ini to'laydigan odamlarga berilishini taklif qildi"⁸². Abu Yusuf kanallarni qazishni va eski kanallarni tozalashni taklif qildi, agarda bu ishlov berilmagan yerlarda sug'orish imkoniyati yaratilsa va ular dehqonlarga berilsa, mamlakatni rivojlanishiga va soliqlardan olinadigan daromadlarning oshishiga olib keladi.

Abu Yusuf aholiga adolatli va halol munosabatda bo'lish ularga nisbatan zulmni oldini olishga, davlatning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun resurslarni va aholini to'liq bandligini ta'minlash davlatning muhim vazifasi deb bilgan.

⁸¹ Abu Yusuf. Kitab al-Kharaj. - Beirut: Dar al-Marifah. 1979. - P.118-119.

⁸² Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. - P. 38.

U davlat odamlarning iqtisodiy hayotida faol rol o'ynashi kerak hamda o'z xalqining farovonligi uchun mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy adolatni ta'minlashi majbur, deb hisoblagan.

Islomda adolat bir necha jihatga ega. Birinchidan, u ilohiy asosga ega bo'lib va axloqiy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ikkinchisi insonlarning tengligi bilan bog'liq. Uchinchidan, bu ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning ma'lum axloqiy qadriyatlar va tamoyillarga asoslanishini talab qiladi. Bu axloqiy qadriyatlar nafaqat axloqiy imperativlar, balki huquqiy va siyosiy normalarning asosini ham tashkil qiladi. Nihoyat, adolat - bu odamlarning arz va shikoyatlarni bartaraf etish, huquqlarni o'rnatish va jamiyatdan zulm va adolatsizlikni olib tashlash uchun kurashadigan jarayondir.

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari davlatni adolatli boshqarish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ifodalaydigan qomusiy asardir. Bu asar mamlakatda notinchlik, tartibsizlik va zo'ravonlikni bartaraf etish, aholiga tinchlik va totuvlik olib kelish maqsadida yozilgan. Boshqacha qilib aytganda, Abu Yusufning xalifaga siyosiy va huquqiy ko'rsatmalari Abu Hanifa fiqhiy qarashlarining g'oyaviy davomidir.

Abu Yusuf qarashlarida xalifalikning soliq va davlat huquqiy tizimini o'zida mujassam etadi. U siyosiy-huquqiy normalarni barpo etish va adolatli davlat boshqaruvini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Bu esa har tomonlama hanafiy ta'limotining davlat-huquqiy manbaiga aylanganligidan dalolat beradi. Abu Yusuf xalifaga bu asarni batafsil o'rganishni tavsiya etgan.

Davlat boshqaruv tizimiga keladigan bo'lsak, Abu Yusuf axloqiy me'yorlar va qonun-qoidalar mamlakat siyosatiga ta'sir ko'rsatadi, davlat siyosati islomiy hayotning barcha xususiyatlarini va musulmon jamiyatining belgilab qo'yilgan normalar asosida boshqarilishi kerak deb hisoblagan. Buni iqtisodiy hayotda shunday ko'rish mumkinki, davlat siyosati odatda ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy manfaatlari va siyosiy mulohazalardan kelib chiqadigan qarama-qarshiliklardan tarkib topadi. Davlat bunday vaziyatda adolatlilik va tenglik printsipiga amal qilishi zarur.

Abu Yusuf fikricha, adolat Alloh taolo tomonidan insoniyatga berilgan barcha omonatlarning eng muhimi hisoblanadi. Barcha insonlarga teng munosabatda bo'lish va jamiyat hayotida qonun oldida tenglik tamoyiliga amal qilish hokimiyat egalarining mas'uliyatidir. Bu yerda tenglik islom davlatida qonun ustuvorligini nazarda tutadi. Bu, o'z navbatida, hukmdorlardan shaxslarning huquqlarini hurmat qilishini, shuningdek, islom shariati doirasida hukmdorlarga itoat qilishni talab qiladi.

Abu Yusufning ilmiy-nazariy umumlashmalari hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, uning "Kitob al-xaroj" asarida nafaqat soliq masalalari, balki yerga ishlov berish, undan foydalanish va ijaraga berish, quduqlar, anhorlar qazish va suvdan foydalanish, xorijiy davlatlar bilan tashqi siyosatni tashkil etish va amalga oshirish, o'zga din vakillarining e'tiqodlariga hurmat bilan qarash bilan bog'liq dinlararo bag'rikenglik masalalari, jamiyatdagi har qanday huquqbuzarliklarning oldini olish, axloqsizliklarni bartaraf etish, jamiyat a'zosi hisoblangan insonlarning tenglik printsipli asosida yashashini ta'minlashga qaratilgan hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ilg'or g'oyalari, huquqiy qoidalari bayon qilingan.

Abu Yusuf tomonidan "Kitob al-xaroj" asarini yozilishidan ko'zlangan asl maqsad amaliyotda davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi maqbul mutanosiblikni topishdan iborat bo'lgan. Abu Yusuf o'z asarlarini hukmdorning fuqarolari oldidagi majburiyatlarini ko'rib chiqish talqinida yozgan.

Abu Yusufning davlat daromadlari haqidagi qarashlari shariat qoidalariga asoslangan. Ushbu daromad manbalari islomning dastlabki kunlaridan beri amal qilib kelayotgan manbalardir. Masalan, sadaqot (zakot) va g'animaning qonuniyligi Qur'oni Karimda aytib o'tilgan. Jizya ham Qur'oni Karim tomonidan maxsus buyurilgan. Bu soliqlar xalifa Umar tomonidan tizimlashtirilgan holda qo'llanildi. Xiroj solig'i va bojxona yig'imlari uning davrida joriy etildi.

Abu Yusuf o'z asarida ushbu an'anaviy manbalarga e'tibor qaratdi. Uning fikricha, daromadlar xarajatlardan mustaqil ravishda yig'iladi, biroq xarajatlar miqdorini daromadlar belgilaydi, bu davlat moliyasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Albatta, davlat o'z ehtiyojlari va rejalariga muvofiq manbalarni safarbar qilishi kerak.

Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari keyinchalik boshqa islomiy davlatlar boshqaruvi tizimida keng foydalanildi. Shuningdek, uning mulohazalari talaygina fiqhshunos olimlar tomonidan o'rganildi.

Shunday qilib, shariatning eng muhim vazifasi diniy-axloqiy me'yorlarni saqlagan holda kishilarning farovonligini ta'minlashdir. Adolatli boshqaruv tizimiga rioya qilishning asosiy g'oyasi musulmon jamiyatini birlashtiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, huquqiy tartibot o'rnatiladi.

Islom iqtisodiyoti modelining o'ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini umuman olganda ma'qullasada, jamiyat manfaatlarini ta'minlash, hamda bozorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan bema'nilik va adolatsizlikning oldini olish maqsadida muayyan ma'naviy-axloqiy chegaralar o'rnatadi.

Islom iqtisodiyoti modelining maqsadi ma'naviy mas'ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratish deyish mumkin. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas deb hisoblaydi.

Islom falsafasi insonni chuqur tafakkur qilishga, adolatsiz bo'lmaslikka, uning har qanday shakliga nisbatan ayovsiz bo'lishga chorlaydi. Islom insonlarni adolatga, fikr go'zalligiga, to'g'riso'zlik, vijdonlilik va mehr-shafqatli bo'lishga da'vat etadi.

Islom dini kishilarning kelib chiqishi, mavqei, jinsidan qat'iy nazar, tengsizlikni, adolatsizlikni qoralaydi. Adolat barcha fazilatlar manbaidir. Adolat hissiy munosabatda bo'lmasligi, rahm-shavqat adolatsizlikni keltirib chiqarmasligi lozim. Butun dunyoda yuz bergan va yuz berayotgan adolatsizliklarning asosi esa umumiy yaxshilik deb nomlanadigan jihatlariga bee'tibor bo'lishdir.

Islom muayyan axloqiy va ijtimoiy chegaralarni adolat bilan oʻrnatib, moddiy boyliklardan foydalanishda adolatsizlikning oldini oladigan ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillarni belgilab berdi. Ushbu tamoyillarga amal qilish inson uchun yer yuzida halol rizq topishga va oxiratda Allohning roziligini topishga yordam beradi. Islom iqtisodiyoti muayyan axloqiy filʼtrlarni joriy etadiki, bu turli darajalarda ijtimoiy adolatni taʼminlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob boʻyicha chiqarilgan xulosalar:

Abu Yusuf tomonidan yozilgan asarlarning har biri jamiyatning biror jabhasiga qaratilgan va uning rivojida muhim rol oʻynagan. Xususan, uning “Kitob al-xaroj” asari oʻz davrida islom qonunchiligi uchun ulkan ish hisoblanadi. Chunki, u yangi nazariyalar bilan soliq tizimini yaxlit qolipga soldi va kitob holda jam qildi. Bu kitob keyinchalik ham koʻpgina islom davlatchiligida qonunchilik uchun asos boʻlib xizmat qildi.

Abu Yusufning ilmiy merosini oʻrganish asosida fuqarolarning tinchligi, ularning moddiy va maʼnaviy hayotini yaxshilash yoʻlida uning ulkan saʼy-harakatlarini aniqladik. Abu Yusufning islomiy soliq tizimini ishlab chiqishda soliq turlarini birma-bir aniq dalillarga asoslangan holda bayon etishi davlat boshqaruv tizimida mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishda katta yordam berganligi tahlil qilindi.

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida keltirilgan soliqqa tortishning huquqiy jihatlarini, ijtimoiy adolatli jamiyatning iqtisodiy asoslari borasidagi masalalarni yoritib oʻtganini, xususan hukmdorning fuqarolar oldidagi majburiyatlari, davlat oʻz fuqarolarini himoya qilish majburiyatini olishi kerakligi toʻgʻrisidagi tavsiyalari barcha millat va dinga mansublarga nisbatan qonun talablariga muvofiq qoʻllanilishi mumkinligi insoniyat tamadduni uchun juda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Abu Yusuf islomiy iqtisodiy fikrga katta hissa qoʻshgan musulmon olimlaridan biridir. U bozor mexanizmlari masalasini koʻtargan birinchi musulmon olimi boʻlgan va keyinchalik uning fikrlari koʻplab taniqli olimlar tomonidan keng foydalanilgan.

Abu Yusufning ijtimoiy adolat g'oyasining iqtisodiy-falsafiy asoslari davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Abu Yusuf faqatgina qozi bo'lib qolmay, balki Horun ar-Rashidga maslahatchisi, ham qozi va ham fiqhshunos olim bo'lgan. U o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarida Qur'oni Karim va hadislar bilan bir qatorda, aqliy mushohadalardan foydalangan. Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asaridagi iqtisodiy fikrlar, o'sha paytdagi adolatsizlikka qarshi kurashda asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Uning g'oyalari islomiy tenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi.

III BOB. ABU YUSUFNING IJTIMOIIY-FALSAFIY G‘OYALARINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

VIII va IX asrlarda Qur’oni Karimni sharh-u tafsir etish, Payg‘ambar hadislari bo‘yicha tadqiqot olib borib, ularni to‘plash va soxta hadislardan ajratish sohasida izchil faoliyatning guvohi bo‘lamiz. Buning natijasida ko‘plab islom ilmlarining kelib chiqishi yuz berdi. Xususan, fiqh ilmi islom huquqidan iborat bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida uchraydigan turli masalalar xususida bahs yuritib bu masalalarga nisbatan shariatning tutgan o‘rnini belgilab beruvchi ilmdir.

Islom ta’limotidagi mazhablar ichida hanafiylik mazhabining yuzaga kelish, shakllanish va rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, garchi unga Abu Hanifa tomonidan asos solingan bo‘lsa ham, mazhab uning shogirdlari sa’y-harakatlari bilan yanada rivojlanib, keng yoyilgan. Abu Hanifaning mana shunday zabardast shogirdlaridan biri Abu Yusuf bo‘lib, u hanafiylik mazhabining shakllanishida o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan va qoidalarning amalda joriy qilinishiga muvaffaq bo‘lgan faqih va mujtahid olimdir.

U shariat qonunlari asoslangan islom iqtisodiyoti nazariyasini yaratdi. U soliqqa tortish bo‘yicha adolat siyosatiga katta e’tibor qaratdi. Uning jamoat manfaatlari himoya qilishi va soliqlarni taqsimlashda adolatga katta e’tibor qaratganligi boshqa iqtisodchilardan ajralib turadi. Uning qarashlari jamiyat tartibga keltirishga ulkan hissa qo‘shdi.

Islom dunyosidagi ulkan allomalardan biri bo‘lmish Yoqub Abu Yusuf o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga hissasi ulkandir.

3.1. Hanafiylik nazariyasining tarqalishida

Abu Yusufning xizmatlari

Abu Yusuf fiqh ilmi taraqqiyotining “oltin davri” deb ataladigan hijriy ikkinchi asrda yashab, ushbu ilm taraqqiyoti tarixida ulkan iz qoldirgan mutafakkirdir. U o‘z davrida bosh qozi bo‘lganligi sababli jamiyatga ta’siri katta

bo'lgan. Bu uning hanafiylik mazhabining tarqalishida xizmatlarini aniqlashda muhim omil sanaladi. Chunki mazhab asoschisi Abu Hanifaning bizgacha birorta asari yetib kelmagan bo'lib, uning qarashlari shogirdlari orqali keyingi avlodlarga yetkazilgan. Bunda albatta, Abu Yusufni alohida ta'kidlab o'tish lozimdir.

Hanafiylik mazhabining tarqalishida uning yana bir shogirdi ash-Shayboniyning xizmatlarini chetda qoldirmaslik kerak. Biroq Abu Yusuf davlat bosh qozisi bo'lganligi, Abu Hanifadan keyin uning dars xalqasini davom ettirgani, fiqh ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgani va eng muhim hanafiylik mazhabi bo'yicha ilk asar yozgan shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Hanafiylik mazhabi to'rt islom fiqhiy mazhabining birinchisidir. U fiqhiy bilim manbai sifatida naqlga nisbatan aqlga ko'proq tayanishi bilan boshqa mazhablardan farq qiladi. Hanafiylik o'zining keng dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda yaratgan keng qamrovli imkoniyatlari bilan, davlat uchun juda ko'p qulayliklar yaratib, zamon talablariga, voqelikka muvofiq ravishda javob berishga qodir edi.

Hanafiylik mazhabining asoschisi imom A'zam Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit al-Kufiy (80/699 – 150/767)⁸³ Kufada tug'ilgan, biroq asli kelib chiqishi Eronlik hisoblanadi. Musulmon manbalarining xabar berishicha, uning otasi va bobosi xalifa Ali ibn Abu Tolib bilan ko'rishishga muvaffaq bo'lgan⁸⁴.

Abu Hanifa fiqhdan dars berar edi. U o'z ilmiy metodini yaratdi. Masalan, Abu Hanifa dars berish davomida hech qachon biror mavzu yuzasidan ma'ruza o'qimagan. U faqat masalani qo'yardi, uning mazmunini bayon qilardi va keyin o'z shogirdlari bilan uni muhokama qilib hal etardi. Bunda shogirdlar ham xuddi ustoz kabi o'z nuqtai-nazarlarini bildirardi. Ba'zan ularning fikrlari mos tushsa, ba'zan umuman to'g'ri kelmas edi. Hatto umuman ustozning fikrlariga to'g'ri kelmagan vaqtlar ham bo'lgan. Bahs yakunida o'qituvchi uning natijalarini aytardi va o'quvchilar bilan birga masalaning umumiy xulosasini chiqarardi. Shu sababdan bu muammo bo'yicha hech kimda ortiqcha savol qolmas edi. Bu jarayon

⁸³ Muhammad Abu Zahra. Imam Abu Hanifa: His life, opinion and Fiqh. – Jiddah. 2017. – P.11.

⁸⁴ Айдин Али-заде. История и правовые методы ханафитского мазхаба // www.islam.ru

Suqrotning masalalarni bahslar orqali yechish usuliga o‘xshab ketardi. U shogirdlarining har biriga otalarcha g‘amxo‘rlik qilardi. Hatto ba‘zi ehtiyojmandlariga moddiy yordam ham berib turgan.

Abu Hanifa o‘z ta‘limoti bo‘yicha fundamental asar yozib qoldirmadi. Uning bir necha kichik risolalarida esa ba‘zi g‘oyaviy qarashlari aks ettirilgan. Abu Hanifa tomonidan yozilgan eng mashhur asarlardan biri “Fiqh al-Akbar” hisoblanadi, unda ilk marta ortodoksal islom ta‘limotining asosiy nazariyasi tizimlashtirilgan. Bundan tashqari u yana bir necha asar yozib qoldirgan, masalan: “Fiqh al-Absat”, “Kitob al-Alim va al- Mutaallim”, “Ma‘rifat al-Mazahibi”, “Al-Asl”⁸⁵.

U o‘z ilmiy merosini shogirdlariga og‘zaki tarzda taqdim etgan bo‘lsada, uning shogirdlari ustozidan qolgan ilmiy merosni tizimlashtirgan holda bayon qildilar. Ular bu buyuk zotning ilmiy merosini rivojlantirdilar va ularning sa‘y-harakatlari tufayli an‘anaviy islomda eng keng tarqalgan fiqhiy mazhab hanafiylikni shakllantirishga kirishdilar. O‘sha davrda butun islom olami Abu Hanifaning maslahati bilan ish ko‘rardi. U o‘z vaqtida ko‘plab o‘quvchilarga ustozlik qildi. Lekin unga eng yaqin bo‘lgan bir necha shogirdlari u bilan uning vafotiga qadar birga qoldi. Ular taxminan 36 tacha bo‘lib, ular ichida Abu Yusuf, Muhammad ash-Shayboniy, Zufar ibn Xuzayl, Xammad ibn Xasan, Xasan ibn Ziyod, Abdulla ibn Muborak, Abu Amr Xafs ibn G‘iyos, Voqi ibn Jarroh, Yaxyo ibn Zakariyya, Asad ibn Amr, Dovud at-Ta‘i, Afyat ibn Yazid al-Advi, Ali ibn Mushir, Qosim ibn Maan, Xibban ibn Ali va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Umuman olganda, Abu Hanifaning katta shogirdlaridan o‘n to‘rt nafari qozi ul-quzzot va qozi bo‘lgan⁸⁶.

Abu Hanifa o‘zidan ko‘plab mashhur shogirdlar qoldirdi. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:

⁸⁵ Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri. –Toshkent: TDSHI nashriyoti. 2009. – B. 63.

⁸⁶ Soatmurod O‘rol o‘g‘li. Hanafiy mazhabining tarqalishi. 2019 yil 1 sentyabr. <http://hidoyat.uz>

1. Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrihim al-Kufiy (113-182) Abbosiylar xalifaligida Horun ar-Rashid davrida bosh qozi lavozimida ishlagan. U hanafiylik mazhabining keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgan.

2. Muhammad ibn Xasan ash-Shayboniy (132-189) Vasitda tug‘ilgan. Keyin Kufa va Bog‘dodda yashagan. Rayda vafot etgan. Abu Hanifa va Abu Yusufdan ta‘lim olgan. U ham Iroq fiqh maktabi vakili bo‘lib, ushbu mazhabning tarqalishida hissa qo‘shgan. Uning “Zohir ar-Rivoyat” asari hanafiylik mazhabidagi eng mashhur kitoblardan biri hisoblanadi.

3. Abual-Xuzayl, Zufar ibn Xuzayl ibn Qaus al-Kufiy (110-158) Isfaxonda tug‘ilgan, Basrada o‘lgan. U Abu Hanifaning qiyos borasidagi eng qobiliyatli shogirdi bo‘lgan. Hanafiylik rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

4. Hasan ibn Ziyod al-Lulu (204 yil o‘lgan) dastlab Abu Hanifadan, keyin Abu Yusufdan huquqni o‘rgandi. U muhaddis bo‘lgan. Ustoz Abu Hanifaning qarashlarini yozib qoldirgan. Uning hanafiylik bo‘yicha yozgan asarlari juda mashhur⁸⁷.

Hanafiylik mazhabini shakllanishi va tarqalishida uning shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad ibn ash-Shayboniylarning xizmati kattadir. Ayniqsa, Abu Yusuf xalifalikning bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli hanafiylik nazariyadan amaliy hayotga tatbiq etildi va xalifalik bo‘ylab keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Ibn Xaldun fikricha, bunga xalifa Horun ar-Rashid davrida Abu Yusufning “Qozi ul-quzzot”, ya’ni qozilar qozisi yoki qozikalon lavozimida uzoq muddat faoliyat yuritgani sabab bo‘ldi.

Abu Hanifa fiqh ilmi metodologiyasining asoslarini ishlab chiqdi. Uning ilm usulini tushunmagan kishilar unga qarshi fikr bildirar edilar. Abu Hanifa dunyoqarashi keng inson bo‘lib, diniy dogmatizmga berilmagan shaxs bo‘lgan. Munozara asosidagi o‘z o‘qitish metodini yaratish har kimning ham qo‘lidan kelmaydi. U arzirli fikrlarga taalluqli tushunchalarni o‘zlashtirdi va sog‘lom fikrli

⁸⁷ Abdulhakim Shar‘iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. –Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti. 2002. – B.140.

kishilarning xulosalarini o'rgandi. Qur'oni Karim harflarini muqaddaslashtiruvchi kishilar uni islom qonunchiligidan toyishda aybladilar. Asosan bu kishilar sub'ektivizmdan chiqqan konservatizm va hurufiy kabilar bo'lib, ular Abu Hanifa va u kabi boshqa mutafakkirlarning qarashlarini tushunmaganlar va ularning faoliyatiga qarshi chiqqanlar. Biroq Abu Hanifa va boshqa ilg'or fikrlovchi olimlar bu to'siqlarga qaramay o'z fikrlarida sodiq qoldilar va jamiyatni ilg'orlikka chorladi hamda dunyo g'oyalari tarixida abadiy qoldi.

Abu Hanifaning metodi shundan iborat ediki, u xulosalarni chiqarishda dastlab Qur'on Karim, keyin Payg'ambar Sunnati va uning safdoshlarining qilgan ishlariga asoslanar edi. Xatib al-Bog'dodi "Bog'dod tarixi" asarida Abu Hanifaning aytgan so'zlarini keltiradi: "Men ko'rsatmalarni Allohning kitobiga va Payg'ambarning sunnatiga asoslanib beraman. Agar fiqhiy ko'rsatmalar uchun dalil topa olmasam, unda Payg'ambar safdoshlarining aytgan gaplariga murojaat etaman. Men ulardan chetga chiqmagan holda foydalanaman. Ular o'rtasida farqlarni ajratmayman"⁸⁸.

Abu Hanifa yashagan davrga kelib musulmon jamoasi ancha taraqqiy etgan va ba'zi masalalar muqaddas kitobda ham yoritilmaganligi uning bu fikrlarga nisbatan analogik yondashish metodini kiritishga sabab bo'lgan.

Shunday qilib, huquqiy ko'rsatmalar hukmini chiqarish metodi Abu Hanifada quyidagi asosiy manbalarga tayanilgan:

1. Qur'oni karim. Agar faqih Islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, avvalo Qur'onga murojaat qiladi. Unda nima hukm bo'lsa, hech ikkilanmasdan uni qabul qiladi.

2. Sunnat — Muhammad (s.a.v.) qilgan ishlari va aytgan so'zlari. Hadislarga asosan hukm chiqarilganda, ularni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tanlab olinishi zarurdir.

3. Hadis. Payg'ambar (s.a.v) bilan birga yashagan sahobalarning so'zlari, an'analari va Muhammad (s.a.v) bilan bog'liq voqealar jamlanmasi.

⁸⁸ Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: "Movarounnahr", 2017. – B. 35.

4. Qiyos – hukmi vorid bo‘lmagan masalani Qur’on va hadisda, shunga o‘xshash va hukmi kelgan narsaga qiyoslab fatvo chiqarish⁸⁹.

5. Istehson - muayyan muammo bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonida ikki yoki undan ko‘p talqinlardan jamiyat va mamlakat uchun eng yaxshi yo‘lni tanlash.

6. Ijmo - bir davrning ijtihod (diniy manbalardan mustaqil hukm chiqarish) darajasiga yetgan ulamolarining yakdillik bilan biror masalani qabul qilishlaridir⁹⁰.

Abu Hanifa fiqhiy dalillar bayon qilinganda har bir hukm ushbu dalillarning biri bilan xujjatlangan bo‘lmog‘i lozimligini ta’kidlagan.

Abu Hanifa shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniylarning hukmiga asoslanib fatvo chiqarsa qat’iy hisoblangan. Agar Abu Hanifa va ularning fikri turlicha bo‘lsa ijro etilish holati ustuvorlik kasb etgan. Odatda, masalan meros masalasi bo‘yicha fatvo chiqarishda Abu Yusufga tayanilgan. Biroq ayrim masalalarda Muhammad ash-Shayboniy va Zufar ibn Huzaylga asoslanib fatvo berganligini uchratishimiz mumkin.

Agar biror masala bo‘yicha Abu Hanifaning o‘zida aniq dalil bo‘lmasa, avval Abu Yusuf, keyin ash-Shayboniy, so‘ngra Zufar ibn Huzayl va Hasan ibn Ziyodning qarashlari va dalillari asosida fatvo chiqarilgan.

Agar Biror masalaga qiyosni ham, istehsonni ham qo‘llash mumkin bo‘lsa, ko‘pincha istehsonga ko‘ra hukm chiqarilgan.

Agar ko‘rib chiqilayotgan masala bo‘yicha Abu Hanifa va shogirdlarida hech qanday dalil bo‘lmasa, uni yechish uchun boshqa mazhab manbalariga murojaat qilishga izn berilgan.

Agar bir masala bo‘yicha Abu Hanifada ko‘plab rivoyat va asoslar bo‘lsa, eng ishonchli va rad etilmaydiganiga murojaat etilgan.

Abu Hanifa qaysidir masala bo‘yicha turlicha, bir-biriga zid dalillar bo‘lsa, ko‘pchilikning fikriga ko‘ra fatvo chiqarilishi kerak degan.

⁸⁹Abdulkhakim Shar’iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2002. – B. 140.

⁹⁰ Abdulkhakim Shar’iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2002. – B. 140.

Zaif va shubhali hadislarga asoslanib hukm chiqarilmaydi. Agar zarurat bo'lsa, istisno tariqasida, agar joiz bo'lsa, bu rivoyat asosida fatvo berish mumkin.

Abu Hanifa hayotligida hanafiy mazhabi bilan Abbosiy hukmdorlari o'rtasidagi munosabatlar uning siyosiy e'tiqodi va hukumat bilan hamkorlik qilmasligi tufayli keskinlashgan edi. Buning ta'siri uning o'limidan keyin uzoq vaqt davom etdi. Biroq, Horun ar-Rashid Abu Hanifaning buyuk shogirdi Abu Yusufni xalifalik bosh qozisi etib tayinlashi, ushbu mazhabning mamlakat bo'ylab taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Abu Yusuf o'zining ulkan qobiliyati va shaxsiy ta'siri bilan u imperiyada davom etayotgan huquqiy tartibsizlik holatidan qutqardi. Abu Yusuf ilmi va kuchli xarakterli shaxs edi. Uning qobiliyati va harakatlari evaziga imperiya gullab yashnadi. Hanafiylik mazhabi davlat mazhabiga aylandi, chiqariladigan qonunlar ushbu mazhab nuqtai nazaridan chiqarilar edi. Hanafiylikning bu darajada yuksalishida Abu Hanifaning buyuk shogirdi Abu Yusufning xizmatlari katta bo'ldi.

Hanafiylikning jamiyat tomonidan amalda tatbiq etilishida Abu Yusuf qozi bo'lganligi uchun katta ta'sir ko'rsatdi. Aniq aytishimiz lozimki, Abu Yusuf Abu Hanifadan keyin ushbu mazhab usulini belgilab beruvchi muhim faqihdir.

Abu Yusuf bosh qozi bo'lgach hanafiylik Abbosiylar davlatining rasmiy davlat mazhabi sifatida taraqqiy etib, nazariyadan amaliy hayotga o'tib sayqallandi. Hanafiylik mazhabi usul-qoidalari amaliyotga tatbiq etildi. Mutafakkir olim Abu Zahra ta'biri bilan aytganda qiyos va istehson, nazariyot doirasidan chiqib amaliy hayotga moslashtirildi. Abu Yusuf ra'y va qiyos maktabi yirik vakili sifatida har ikkala maktab, ya'ni ra'y va hadis maktabi namoyandalari xususiyatlarini yaqinlashtirdi. U hanafiy mazhabining yirik muhaddisi sifatida qabul qilindi⁹¹. Undan Yahyo ibn Main, Muhammad ibn Hasan va boshqalar hadis rivoyat qilganlar.

Abu Hanifa vafotidan keyin o'n olti yil davomida u ham o'z mazhabiga rioya qilgan holda hukumatga befarq bo'lib qoldi. Shunga qaramay, u ustozining

⁹¹ Muhammad Abu Zahra. Imam Abu Hanifa: His life, opinion and Fiqh. - Jiddah. 2017. – P.174.

ilmini davom ettirdi, uning fiqhga oid deyarli barcha kitoblaridan o'z asarlarida foydalandi va uning qarorlarini o'z fikrlari bilan to'ldirdi.

Bu asarlar butun mamlakat bo'ylab tarqaldi, ular nafaqat ilm ahli doirasiga ta'sir ko'rsatdi, balki hanafiylik mazhabi tarafdorlari bo'lgan qozilar va yuqori lavozimli shaxslar hukm chiqarishda asosiy dastur-ul amal bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, Abu Yusufning ilmiy salohiyati va asarlari u hokimiyatga kelguniga qadar odamlar ongini egallab olgan edi.

Abu Yusufning moddiy ahvoli yaxshi bo'lganida, ehtimol, u ham ustozining izidan borib, hukumatga nisbatan befarqlikda yashashi mumkin edi. Ammo u kambag'al edi va Abu Hanifaning vafoti uni moddiy ta'minotdan mahrum qildi. Hatto, bir kuni moddiy ta'minoti uchun ahli ayolining uyidagi darvozani sotishga majbur bo'lganida, uning qaynonasi unga qattiq gapiradi. Bu unga ta'sir qildi. U 782 yilda Bog'dodga bordi, uni xalifa Mahdiy sharqiy Bog'dod qozisi etib tayinladi. U bu lavozimda xalifa Hodiyy hukmronligining oxirigacha davom ettirdi. Nihoyat, Horun ar-Rashid uni butun Abbosiylar davlatining qozil-quzzoti (bosh qozisi) etib tayinladi.

Bu lavozim islom davlatida ilk bor tashkil etilgan edi. Unga xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash, qonun xujjatlarini ko'rib chiqish, shuningdek, hukumatning barcha ichki va tashqi siyosatida huquqiy maslahatlar berish vakolati berilgan edi.

Abu Yusufning bu lavozimga tayinlanishi unga katta samara berdi. Birinchidan, u madrasada o'quvchilariga ma'ruza qilish yoki kitoblar yozish bilan cheklanib qolmasdan kattaroq doirada eng yirik imperiyaning ishlari bilan shug'ullanadigan bo'ldi. Bu unga hanafiylik qonunlarini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalarida qo'llash imkoniyatini yaratdi va shu bilan uni amaldagi huquqiy tizimiga aylantirdi. Ikkinchidan, qozilarni tayinlash va lavozimidan ozod etish endi uning zimmasiga yuklatilganligi sababli, aksariyat joylarda hanafiylik mazhabi ulamolarini qozi etib tayinlandi va ular orqali hanafiylik qonunlari xalifalikning barcha hududiga tarqaldi. Uchinchidan, u o'zining yuksak axloqiy qarashlari va ilmiy dunyoqarashi orqali Ummaviylar davridan beri saqlanib

kelayotgan avtokratik boshqaruv shakliga o'zgartirish kiritdi, uning "Kitob al-xaroj" asari xalifalikning bosh qomusiga aylandi.

Abu Yusuf buyuk fiqhshunos olim edi. U masalalarga qonuniy nuqtai nazardan yondashardi. Ayrim tarixchilar uni hukmron sulola manfaatlarini himoya qilgan degan yanglish fikr bildiradilar. Hodiy uni sharqiy Bag'dod qozisi etib tayinlagani, u xalifaning o'ziga qarshi ish ochgan edi. Horun ar-Rashid davrida keksa nasroniy xalifaga qarshi bog' da'vosi bilan ariza bergan.

Abdulloh ibn Muborakning ta'kidlashicha, u Xorun ar-Rashidning saroyidagi xosxonasigacha ot minib borar edi. O'sha paytda hatto bosh vazir ham xalifa saroyiga piyoda borgan. Xalifa uni har doim birinchi bo'lib kutib olardi. Horun ar-Rashiddan nega Abu Yusufni bu qadar baland ko'targaningiz haqida so'rashganida u shunday javob bergan: "Men uni qaysi sohada sinab ko'rgan bo'lsam, uni mukammal ado etgan. U qat'iyatli va nafsga berilmagan odam. Agar unga o'xshash boshqa birov bo'lsa, uni ko'rishdan mamnun bo'lar edim"⁹².

U vafot etganida Horun ar-Rashidning o'zi dafn marosimiga piyoda hamrohlik qildi, janoza namozini o'qidi, uni o'z oilasi qabristoniga ko'mdi va bu barcha motam tutishlari kerakligi aytdi.

Hanafiylik mazhabi Abu Hanifa vafotidan keyin jamiyat hayotiga tez tarqaldi. Bunga avvalo, Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi Abu Yusufning xizmatlari katta bo'ldi. Negaki Abu Hanifaning Abbosiylar xalifaligiga qarshi kayfiyati uning ta'limotini xalifalikda taraqqiy etishga to'sqinlik qilgan edi. Abu Yusuf xalifalikning bosh qozisi bo'lgach uning ta'limotini qayta tikladi va xalifalikning rasmiy diniy mazhabiga aylantirdi. Bunday deyishimizga sabab, Abu Yusuf davlat bosh qozisi sifatida barcha masalalarni hanafiylik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqar va fatvo chiqarar edi. U tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalar ham hanafiylik ta'limoti bo'yicha yozilgan. Uning qo'llanmalari nafaqat butun xalifalik uchun o'sha davrdagi asosiy manbalardan biri bo'lgan, balki keyinchalik ham ko'plab islom davlatlarida undan foydalanilgan. Bundan tashqari, o'sha davrda

⁹² Doktor Mustafo Shak'a. Buyuk imom Abu Hanifa No'mon. – Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti. 2019. – B. 98.

Abbosiyilar xalifaligi juda katta hududlarga egalik qilar edi. Shu sababdan hanafiylik rasmiy davlat diniy mazhabi sifatida xalifalikning chekka mintaqalarigacha borib yetdi. Shuningdek, Abu Yusufdan keyin kelgan bosh qozilar ham uning shogirdlari bo'lib, ular ham shu yo'lda davom etdilar.

Bag'dodda bir necha asr davomida shayx ul-islom va qozi ul-quzzotlar hanafiy olimlaridan tayinlangan. Shu sabab Iroq va uning poytaxti Bag'dod nafaqat islom mamlakatlari, balki hanafiy mazhabining ham markaziga aylandi. Keyinroq Movarounnahr hanafiy mazhabining ikkinchi yirik markazi bo'ldi.

Abu Yusufning qarashlari Abbosiylar boshqaruv tizimining o'sha davri erishishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajada deb o'ylagan narsalarni tasvirlaydi. Darhaqiqat, uning qarashlarini amaliyotga qanchalik darajada tatbiq etilganligi muhim emas. Uning maqsadi, islom davlati tuzilishi uchun zarur bo'lgan qoidalarni kiritish orqali yaxshiroq sharoitni vujudga keltirish edi.

Abu Yusufning kadrlar siyosati amaldorlar faoliyatida hanafiylik ta'limotining taraqqiy etishiga xizmat qildi. Biroq, uning hanafiylik mazhabini rivojlantirishga qo'shgan eng katta xizmati "Kitob al-xaroj" asarining yozilishidir. Nemis olimi Alfred fon Kremer aytganidek, "Abu Yusuf hanafiylikning eng faol tarafdori sifatida bu ta'limotni qabul qilmaganida, uning faoliyatida boshqa kontseptsiyani shakllantirish qiyin bo'lardi".

Bu jarayonlar Abbosiylar xalifaligida uning eng keng tarqalgan mazhabga aylanishiga olib keldi. Hatto davlatning asosiy huquqiy asosi sifatida hukmron sulola vakillarini ham qo'llab-quvvatladi. Abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashid davrida hanafiylik mazhabining eng yirik nazariyotchisi Abu Yusufning xalifalik bosh qozisi bo'lganida, viloyatlarda qozilikka nomzodlarni tanlashda hanafiylik mazhabi vakillarini afzal ko'rib tanlagan.

Shu boisdan hanafiylik tez tarqaldi. Keyinchalik xalifalikdan ajralib chiqqan mintaqalarda ham bu mazhab rasmiy maqomga ega bo'ldi. Bunga hanafiy mazhabi musulmon olamining turli mintaqalarida mustahkam o'rnashganligi va bugungi kungacha uning tarafdorlari dunyo musulmonlarining ko'pchiligini tashkil etishi yaqqol dalil bo'ladi.

Abu Yusufning Abu Hanifadan uzoq vaqt tahsil olgan. Shu sababdan uning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlariga ta'sir o'tkazgan. Abu Yusuf ra'y (aql) tarafdori sifatida ustoz kabi iqtisodiy qarashlarda aql-idrokka tayanganligi bilan mashhurdir. U Qur'oni Karim, Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislariga murojaat qilishdan oldin turli iqtisodiy fikrlarni qiyos yordamida tushuntirib o'tadi. Masalaga bunday yondashuv Abu Yusuf g'oyalarini dolzarb va davlat ahamiyatiga molik ekanligini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, buyuk ustoz Imom Abu Hanifaning tafakkur yuritish uslubi Abu Yusuf qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ra'y olimi sifatida mashhur bo'lgan Abu Hanifa ko'plab fikrlari Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida keltirilgan. Abu Yusuf o'z asarida naqlni aqliy dalillar (ra'y) bilan moslashtirdi. Vaholanki, o'sha davr olimlari kitob yozishda aqliy dalildan ko'ra naqliy dalilni ilgari surishga moyil edilar.

O'z davrining buyuk fiqh ulamolaridan biri bo'lgan Imom Abu Yusuf hanafiylik mazhabi metodologiyasi orqali xalifalikdagi muammolarni bartaraf etishga harakat qildi. Mutafakkir olimning ijtimoiy hayotdagi o'rni uning muammolarni hal etish uslubidan kelib chiqadi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Mutafakkir boshqa fiqh ulamolar singari Qur'oni Karimga tayangan holda, o'z tafakkur tizimini shu asoslar doirasida shakllantirdi. U tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bugungi kunda ham umuminsoniy qadriyat sifatida saqlanib qolgan. Bular: adolat, rahm-shafqat, oqillik, hayo, zukkolik, tinchlik kabilar. U xuddi shu tamoyillar asosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalarni ishlab chiqdi.

Abu Yusuf davrida fanlar hali tizimlashmagan edi. Olimlar ijtimoiy, iqtisodiy, falsafiy, siyosiy, diniy masalalarda ma'lum tamoyillar doirasida o'z g'oyalarini bildirishgan. Shuning uchun ham Abu Yusuf davrida falsafiy-huquqiy masalalar iqtisodiy masalalardan ajratilmagan. Iqtisodiy soha ham fiqhga asoslangan holda hal etilgan.

Abu Yusuf fiqh ulamosi sifatida "Kitob al-xaroj" asarida o'z davrining muhim masalalarini yoritganligi ko'rishimiz mumkin. U jamiyatda chqur iz

qildirgan hanafiylik mazhabini qaror toptirdi. O'sha davrda islom jamiyatida Qur'oni Karim va Sunnadan tashqari aqliy dalillarga tayangan holda masalalarga yechim topgan bu mazhabning shakllanishida muhim rol o'ynadi.

3.2. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida

“Kitob al-xaroj” asarining o'rni

Markaziy Osiyo ko'p millatli va elatli mintaqa hisoblanadi. Uning aholisi turli din vakillaridan iborat. Eng ommalashgan va aholisining asosiy qismi e'tiqod qiladigan din – Islom dini hisoblanadi. Islom dini Markaziy Osiyo mamlakatlarida VII asrning oxirlari – VIII asrning boshlarida tarqala boshlagan va IX asrning o'rtalariga kelib asosiy din maqomiga ega bo'lgan. Islom dinining rivojlanishi o'z-o'zidan shariat ahkamlari va tamoyillarining rivojlanishiga hamda odamlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shunga mos ravishda rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Islom dinining tarqalishi Islom imperiyasi tarkibiga kirgan Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida birlashtiruvchi rol o'ynadi. Dastlabki bosqichlarda birlashuv qo'lga kiritilgan shaharlarning iqtisodiy va madaniy birlashuviga olib keldi, ularning iqtisodiy turmush darajasi, dini, urf-odati bilan farqlanib, shaharlar va savdo yo'llari tez rivojlana boshladi. Islom dini iqtisodiy aloqalarning kengayishiga olib keldi, unda har bir fath qilingan qism islom davlatining umumiy iqtisodiyotiga hissa qo'shdi. Musulmonlar savdo munosabatlarida naqd pullar bilan bir qatorda naqd pulsiz to'lovlar qo'llaniladigan samarali soliq tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldilar⁹³. Qisqa vaqt ichida boshqa dinlardan farqli o'laroq asrlar davomida o'zgarmagan islom qonunlari - Qur'on va Sunnaga asoslangan soliqqa tortishda o'ziga xos tartib o'rnatildi.

Markaziy Osiyo yerlarini arablar egallagach o'z qonun va me'yorlarini joriy etdilar. Bunday siyosat hukumat va xalq o'rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Chunki bu joylarda istiqomat qiluvchi xalqlar arablarga nisbatan taraqqiy

⁹³ Халилова Н. Краткий обзор Исламского налогообложения Христиан и Иудеев (зимми) на территории Средней Азии в средневековье // MANAS Journal of Social Studies. Volume 10, Issue 4, 2021. – P. 2476.

etgan, chuqurroq tamaddunga ega bo'lgan va konfessial jihatdan turli e'tiqodda bo'lgan kishilar edi. Natijada bu ziddiyatni nazariy jihatdan ajrim qilish zarurati vujudga keldi.

Xalifalik davridagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, davlatning iqtisodiy hayotdagi roli, soliq tizimining qaror topishi va rivojlanishida Abu Yusufning g'oyalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Arablar tomonidan bu o'lkalarining bosib olinishi bu yerda shakllana boshlagan yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarining rivojlanishiga olib keldi, bu ozod dehqonlarning feodallar asoratiga tushishi, yer-suvga qaramligining kuchayishi, keng mehnatkash ommasining og'ir ijtimoiy va ma'naviy hayoti norozilik tug'dirar edi. Xalifalikda mulk huquqi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kishining mulki unga daxlsizlik huquqini berar edi. Islom xalifaligida mulk qanday kelib chiqqan? Avvalo xalifalar bosib olingan o'lkalardagi yer-mulklarni qo'shinga bo'lib berar edi. Ammo bu qo'shinning zaiflashuviga olib keldi. Xalifa Umar (r.a) bosib olingan o'lkalardagi yerlarni mahalliy aholining o'zida qoldirishga qaror qildi va bu yerlardan xiroj solig'i to'lanishini belgiladi. U o'zlashtirilmagan, ekin ekib bo'lmaydigan yerlarni xalqqa ishlov berish va o'zlashtirish sharti bilan berdi. Bunda xalq o'zlashtirilmagan yerni o'zlashtirdi va uni o'ziga mulk qilib oldi.

Islom fiqhshunoslari va tarixchilari Umar (r.a) bu qarorini muhim voqea sifatida qaradilar. Bu hodisa soliqqa tortishni aniqlashda turli usullarni keltirib chiqardi. Masalan, yer jang evaziga bosib olinganmi yoki tinchlik shartnomasi orqali olinganmi, yerni dastlab arablar egallab olganmi yoki arab bo'lmaganlarmi, bu hududlardan islomgacha bo'lgan davrda soliqlar qay tartibda olingan va h.k. Sosoniylar davrida Iroq aholisi ekin ekilgan maydonning umumiy hajmiga nisbatan to'lashgan. Bu sosoniylar podshohi Anushervon davrida amalga oshirilgan edi. Bu soliq tizimi arab xalifaligi davrida ham saqlanib qolindi. Biroq Abbosiylar xalifasi Mahdiy (775-785) davrida soliq yer hajmiga qarab emas, balki yetishtirilgan mahsulotning ulushiga qarab aniqlash tizimi joriy etildi. Islom hukumatining

iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlari fiqh ulamolari tomonidan uni qonuniy asoslashni ta'minlashga chaqirar edi.

Arablarining Movarounnahrda yurishi arafasida o'lkada turli katta-kichik davlatlar hukmronlik qilgan, ularning qariyb barchasi mustaqil davlat hisoblanganlar. Arab qavmlarini din targ'iboti bilan birgalikda, o'lkaning serunum tuproqlari, yam-yashil voxa va vodiylari, katta miqdordagi yer osti va yer usti boyliklari e'tiborni tortganliklari shubhasiz. Bosib olingan mamlakatlarda arablar din targ'iboti yulida turli soliqlar, majburiyatlar va yig'imlarni joriy etdilar. Kimda-kim islom dinini qabul qilsa, ularni soliqlardan ozod etish to'g'risidagi xukmlar ham aholi e'tiboridan chetda qolmagan, albatta.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, xokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o'z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to'lar edilar.

Asta-sekin Movarounnahrda arablarining to'la xukmronligi o'rnatila boshlagach, ilgari dexqonzodalar tasarrufidagi qishloq jamoalarining mulklari ham arab xukmdorlari va noiblari qo'liga o'tishi barobarida, maxalliy xukmdorlar faqatgina ayrim soliq turlarni to'lash orqali avvalgi xukmdorliklarini davom ettirayotgan edilar. Bosib olingan shaxar va qishloqlarning islom dinini qabul qilmagan barcha toifasidan birdek juzya solig'i undirilgan. Xotin-qizlar, keksalar, yersiz, mulksiz toifa kishilar bunday soliqni to'lashdan ozod etilganlar. Qolgan barcha toifadagi aholi esa umumiy yer solig'i xiroj to'lashlari shart bo'lgan.

Soliqqa tortish tizimiga ko'ra yerlar ikki guruhga: ushr va xiroj yerlarga bo'lingan. Birinchi toifaga arablariga qarashli yerlar kirar edi. Qolgan yerlarning hammasi ikkinchi toifa hisoblangan. Bunda ushr alohida ahamiyat kasb etgan. Ushr yerlardan olingan xosilning 1/10 qismi, xiroj yerlardan xosilning 1/3

kismidan 1/2 kismigacha soliq olinar edi. Bundan tashqari ekin maydoniga qarab qat'iy tarzda, shuningdek, uzumzorlar va bog'lardan belgilangan miqdorlarda soliq olingan. Chorvadorlardan soliq asosan mol boshi soniga qarab zakot solig'i olingan.

Xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat xalqning iqtisodiy holatini, shuningdek madaniy hayotdagi bir qator diniy xurofiy botil e'tiqodli mazhablarning vujudga kelishi hayotiy jarayonni murakkablashtirar edi.

Abu Yusuf o'zining qarashlarini mana shunday murakkab siyosiy jarayonlarni hisobga olgan holda "Kitob al-xaroj" asarida keltirib o'tadi. Asarda shunday deyiladi: "Kimki, adolatli siyosat olib borsa, uning martabasi yuksak bo'ladi va boshqaruvda yengillik bo'ladi. Kimki, adolatsiz siyosat yurgizsa, undan xalq yuz o'giradi va boshqaruvda og'irlik sezadi"⁹⁴. Albatta xalifa bu so'zlarni hisobga olgan bo'lishi kerak.

Abu Yusuf mana shularni ham hisobga olgan holda arablar va ajamlar o'rtasida ziddiyatni keltirib chiqarmaydigan g'oyalarni bayon etgan. Asardagi Najron xalqiga nisbatan olib borilgan siyosat yoki bo'lmasa zimmiylarga nisbatan bo'lgan muomala haqidagi fikrlarni bunga yaqqol misol bo'la oladi. Islom ta'limotida odamlar hayoti va bag'rikenglik himoya qilinadi.

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida uning nazariy umumlashmalari va ijtimoiy-siyosiy qarashlari yoritilgan. U o'z asarini yozishda xalifaga maslahat tarzida ifodalagan. U islom davlati rahbari jamiyatni qay yo'sinda boshqarishi kerakligini aytib o'tgan. Uning asarida ifoda etilgan g'oyalarning ahamiyati shundaki, u VIII-IX asrdagi xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy nazariyadan kelib chiqqan holda davlatni birlashtiradigan qonun va me'yorlarni ishlab chiqqan. Masalan, teng huquqlilik, adolatlilik g'oyasi o'ta muhim fikrlar edi. Chunki, Abbosiylar boshqaruvi tepasiga kelgan vaqtda, xalqni o'zining adolatli boshqaruv kontseptsiyasiga ishontirishi lozim bo'lgan. Buning uchun bir qator islohotlarni o'tkazish muhim edi. Ummaviylar bosib olgan o'lkalarda arablarga xo'jayinlar

⁹⁴ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург, 2001. – С.38.

tarzida yashash imkonini bergan edi. Ular badavlat Yaqin Sharqning boyliklaridan juda unumli foydalandilar .

Islom davlatida savdo aloqalarida musulmon bo'lmaganlarga nisbatan bag'rikenglik siyosati olib borilgan. Bu musulmon savdogarlariga dor ul-harb mintaqasida savdo qilishni taqiqlovchi qarashlarning oldini olgan. Natijada Xitoy, Afrika, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Turkiya kabi davlatlar bilan halqaro savdoning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan . Ko'rinib turibdiki, savdo sohasidagi iqtisodiy rivojlanishda mamlakatlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar dolzarb hisoblanadi.

Hukmdorlar soliq yig'ishni juda qattiq nazorat qilganlar, bu xalifalikda zabt etilgan hududlarda feodal munosabatlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ummaviylar davrida xalifalar hududlarni boshqarishda faqat arablarga tayangan bo'lsalar, Abbosiylar hukmronligida islomni qabul qilgan mahalliy feodallar bilan birga ishlay boshladilar. Mahalliy feodallar sug'oriladigan yerlarning sifatini saqlash va yaxshilashga mas'ul edilar, chunki yerlarning sifati soliq miqdorini oshirishga ko'proq imkoniyat bergan⁹⁵. Abbosiylar Ummaviylardan farqli o'laroq, xiroj solig'ining bir qismini naqd pulda qabul qila boshladilar, mahalliy boshqaruvchilar soliqlarni yig'ish uchun javobgar etib tayinlandi. Markaziy Osiyoda hokimiyatning mahalliy boshqaruvga o'tishi bilan soliqlarga bo'lgan munosabat o'zgarib bordi.

Ko'rinib turibdiki, soliq tuzilishi davlat iqtisodiyotining bir qismi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha qarashlari islomiy tenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Shuning uchun o'z asarida Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnati va xulfoi roshidinning amallari, ayniqsa xalifa Umar (r.a)ning ishlarini tez-tez keltirgan. U soliqqa tortish bo'yicha adolat siyosatiga katta e'tibor qaratdi. Uning jamoat manfaatlari himoya qilishi va soliqlarni taqsimlashda adolatga katta e'tibor qaratganligi boshqa iqtisodchilardan

⁹⁵ Крачковский, И. Ю. Избранные сочинения. – М.: Наука. 1953. – С. 194-195.

ajralib turadi. Abu Yusuf taklif qilgan adolatli soliq siyosatining asoslarini quyidagi bandlarda umumlashtirish mumkin:

- Soliq ma'muriyatining soliq to'lovchilar bilan halol va adolatli muomala va daromadlarni adolatli taqsimlash. Abu Yusuf uni qo'llab-quvvatlashda xalifa Umarning so'zlarini keltiradi. Xalifaning so'zlariga ko'ra: "Soliqlar adolatli va qonuniy tarzda yig'ilgan taqdirdagina, u adolatli va qonuniy ravishda sarflanadi.

- Soliq mulki va miqdorini aniqlash. Abu Yusuf soliq mulki va miqdori aniq bo'lishi kerak, buning uchun yerlarni to'g'ri tekshirish va unumdor hamda qayta ishlov beriladigan yerlar aralashib ketishining oldini olish zarurligini ta'kidlagan.

- Soliqlarni undirishda muhitni hisobga olish. Abu Yusuf hukumat soliq miqdori va soliq mulkini o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish mumkin deydi. U yerlarning turiga qarab soliqlar miqdorini belgilash lozimligini aytadi". Soliq ma'muriyati soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida har xil sharoitlarda turli xil soliq miqdorini belgalashi mumkin. Abu Yusuf soliq to'lovchilarga ortiqcha og'irlik qilmasdan yig'ish xarajatlarini iloji boricha kamaytirish kerakligini tavsiya etadi. "Kitob al-xaroj" asarining bir necha joylarda hukumat soliq yig'ishda soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish borasida g'amxo'rlik qilishi kerakligini ta'kidladi. U davlat soliq yig'ayotganida ortiqcha soliq olmaslik va soliq yig'uvchilarga zarar yetkazmaslik uchun soliqlarni adolatli baholashni aytib o'tadi. Shuningdek, agar soliqdan qarzdorlik mavjud bo'lsa, soliq to'lovchi uchun qulay vaqtda olinishi lozim. Soliq yig'uvchilar bir qishloqqa tashrif buyurganida u yerda uzoq qolmasliklari va ortiqcha xarajatlar bilan ularni bezovta qilmaslik kerakligi bilan ogohlantiradi.

- Soliq kapitaliga yondashuv. Abu Yusuf soliq miqdori yerning holatiga qarab belgilanishi, hukumat yerlarni tekshirishga mas'uliyat bilan yondashishi va soliq to'lash qobiliyatiga ega yerlarni aniqlashi haqida fikr bildiradi. Soliq to'lovchilarga belgilangan miqdordan ko'proq haq olishlik xazinani ko'paytiradi deb o'ylash xato bo'lishi aytadi. Xususan, xalifa Umar (r.a) soliq to'lash

qobiliyatini hisobga olgan, aks holda ayrim daraxtlar bor joylarni ozod qilmas edi⁹⁶.

Arab xalifaligida Markaziy Osiyo sun'iy sug'orish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradigan asosiy mintaqaga aylandi. Arablar kelishi bilan shaharlar hayoti o'zgardi, yangi kanallar va sug'orish inshootlari qurildi. Suvni adolatli taqsimlash va sug'orish tizimini to'g'ri darajada saqlab qolish uchun davlat, hatto urushlar va qo'zg'olonlar vaqtida ham rivojlantirish ishlarini qo'llab-quvvatladi. Shuningdek, hunarmandchilik va bog'dorchilik ham rivojlandi. Masalan, mato to'qish, sifatli po'lat qurollari yasash, shisha va zargarlik buyumlari yasash shular jumlasidandir.

Abu Yusuf ijtimoiy tenglik va adolatli boshqaruv o'rnatilganidagina mamlakat taraqqiy etajagini anglab yetgan. Abu Yusufning bu g'oyalari xalifalikda ajamlarga nisbatan odilona siyosat olib borishga sabab bo'lgan. Bu narsani boshqaruvning keyingi yillarida mahalliy hokimiyatni tub yerli aholidan chiqqan kishilarga berilganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, xalifa Ma'mun davrida Xuroson va Movarounnahr yerlari Tohir ibn Xusayn va Somonxudotning nabiralari bo'lib berildi. Ular keyinchalik o'sha yerlarga hukmronlik qildilar. Aytish mumkinki ular tuzgan davlatlarning negizi islom davlati asosida edi. Davlat tuzilishining har bir bo'g'inida xalifalik boshqaruvidagi qonuniy me'yorlarni ko'rish mumkin edi.

Islom dini yoyilishi bilan arab tili ham tarqalib borgan, davlat ishlarini yuritish, adabiyot va fan tiliga aylangan. Arab sarkardalari fath etilgan shaharlarda musulmon masjidleri qurishga alohida e'tibor berganlar. Ayrim hollarda arablar hatto masjidlar uchun yangi binolar ham qurib o'tirmaganlar, balki shaharlardagi zardushtiyalar yoki xristianlarning ibodatxonalarini qayta qurib, masjidlarga aylantirganlar. Buxoro, Samarqand, Marv va boshqa shaharlarda shunday qilingan. Movarounnahr savdogarlari islomni hammadan tezroq qabul qilganlar, chunki arablar savdo-sotiq ishlariga, xususan karvon savdosiga rivojlanish uchun barcha

⁹⁶ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P. 116-118.

shart-sharoitni yaratib berganlar. O'sha davrda jahondagi eng yirik davlat - Xalifalik tarkibiga Movarounnahrning kiritilishi ham savdo-sotiqning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Movarounnahrni boshqarish xalifaning Xurosondagi noibiga yuklatilgan. Shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Ularni noib tayinlagan va lavozimdan olgan⁹⁷.

Hokimlarning asosiy vazifasi soliq yig'ish va joylarda tartibni saqlashdan iborat bo'lgan. Arablar boshqaruv mahkamasi va tartibni nazorat qilish bo'linmalari tashkil etganlar. Shariat qoidalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasiga aylangan.

VIII asrdan boshlab islom Movarounnahrda hukmron dinga aylangan va jamiyat hayotining barcha jabhalarini o'z nazorati ostiga olgan bo'lsa-da, amalda uning o'zi ham Turon sharoitiga, masalan, mulk shakllari, aholining turmush tarziga moslashib borgan. Xullas, islom huquqi va shariat me'yorlarining shakllanish jarayonida mahalliy sharoit va urf-odatlar hisobga olingan. O'z-o'zidan ravshanki, shu bilan bir vaqtda Qur'on, Sunna talablariga, yakkaxudolik tamoyili - tavhidga zid bo'lgan hamma narsalarga barham berilgan. Tabiiyki, islom hayotning barcha jabhalarini darhol va teng darajada o'ziga bo'ysundirmagan. Islomning o'zi ham darhol shakllanmagan. Islom dini va islom huquqi, islom falsafasi - kalom va boshqa islom tamoyillari va talablari VII-XII asrlar mobaynida bosqichma-bosqich rivojlanib borgan.

Shunisi e'tiborliki, Abu Yusuf arab va noarab kishilar o'rtasidagi aloqani yaxshi qilishga, tenglashtirishga buyuradi. U kishilar qaysi millatga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, inson ekanligini va shunga ko'ra adolatli boshqaruvi olib borish kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Yusuf davlat amaldorlarining asosiy vazifasi o'z xalqining farovonligini ta'minlashidir, deb ta'kidlagan. Abu Yusuf istibdodni yo'q qilishni, adolat va xalqning hayoti yaxshi bo'lishini chin dildan istaydi. Buni sug'orish inshootlari va jamoat yo'llarini qurish kabi ishlarni amalga oshirishda xalq manfaatlarini ustun qo'yishida aks etadi.

⁹⁷ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi (birinchi kitob). –Toshkent: “Sharq” NMAK. 2010. – B.184-185.

Bu Abu Yusufning qarashlari hukmdorlarning majburiyatlarini belgilashda, soliqqa tortish tamoyillarini singdirishda va xalq manfaati uchun qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi.

Abu Yusufning iqtisodiy-ijtimoiy va falsafiy g‘oyalari Abbosiylar xalifaligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. O‘zining bilim va tajribasini mamlakat rivojlanishiga bag‘ishladi. Buni uning xalifa Horun ar-Rashidga tavsiya qilgan har bir siyosatidagi adolatli ijtimoiy muhitda ko‘rish mumkin.

Xalifa Umar (r.a) tomonidan yaratilgan soliqqa tortish tizimining samarasiz ekanligini isbotlagan Abu Yusuf, xiroj – yer solig‘ini misaha – o‘rnatilgan yer hajmi bilan emas, balki muqosama – hosilni mutanosib tizim asosida olishni taklif etdi. Soliq yerning xususiyati va uni qayta ishlash usullariga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yomg‘ir suvi yoki tabiiy yo‘l bilan sug‘oriladigan yerlardan olingan hosilning solig‘iga nisbatan sun‘iy sug‘oriladigan yerlardan olingan hosilning solig‘i kamroq bo‘ladi.

G‘arbdagi Adam Smit tomonidan shakllantirilgan soliqqa tortish tizimi, ommaviylik, adolatlilik, aniqlilik, egiluvchanlik (soliq to‘lovchi uchun qulay bo‘lishi) kabi tamoyillarni o‘zining nazariyasi sifatida e‘lon qilgani holda, Abu Yusufning fikrlariga hamohang ekanligida ko‘rishimiz mumkin.

Islom dunyosidagi ulkan allomalardan biri bo‘lmish Yoqub Abu Yusuf o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga katta xissa qo‘shdi.

Biz Yoqub Abu Yusufning shaxsiyat va “Kitob ul-xaroj” asarini, xususan uning el-ulus osoyishtaligi, fuqarolarning moddiy va ma‘naviy hayoti yo‘lidagi ulkan say-harakatlarini keng va mukammal o‘rganish asosida yangicha qarashlarni, bilimlarni shakllantirdik.

Avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, Abu Yusufning soliq tizimi ishlab chiqishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat katta rol o‘ynagan.

Abu Yusufning qarashlarida ham xuddi mana shu g‘oyalar asos qilib olingan. U islomni xaql orasida faqatgina yoyish emas, balki unga amal qilishni uqtiradi. U o‘zi yozib chiqqan kitoblarida kishilar amal qilish kerak bo‘lgan

narsalarni qonun tusiga chiqaradi. Natijada u oddiy kishilar kundalik hayotda amal qiladigan narsalar emas, balki davlat qonuni etib belgilanadi. Albatta, uning bu xizmatlari jamiyatni ancha tartibga keltirishga olib kelgan.

3.3. Abu Yusuf ijtimoiy-falsafiy qarashlarining mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi

Yoqub Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida davlatni adolatli boshqarish, odamlar hayotini farovon qilish va imkon qadar yengillik qilish borasida ham o'z tavsiyalarini bergan. U VIII-IX asrdagi xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy nazariyadan kelib chiqqan holda davlatni birlashtiradigan qonun va me'yorlarni ishlab chiqqan. Uning teng huquqlilik, adolatlilik g'oyasi o'ta muhim fikrlar edi.

“Kitob al-xaroj” davlatni adolatli boshqarish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ifodalaydigan qomusiy asardir. Bu asar mamlakatda notinchlik, tartibsizlik va zo'ravonlikni bartaraf etish, aholiga tinchlik va totuvlik olib kelish maqsadida yozilgan.

O'sha davr musulmon ulamolari va fiqhshunoslarining ko'plab asarlari kabi Abu Yusuf asarlarining ham o'ziga xos xususiyatga ega. Xususan, uning “Kitob al-xaroj”da soliq masalalari yoritilishi bilan bir qatorda, yer va suvdan oqilona foydalanish, davlatni boshqarish, huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun jazo masalalari ko'rib chiqilgan.

Abu Yusuf qarashlarining asosiy g'oyasi adolatli ijtimoiy siyosat hisoblanadi. U Abbosiylar xalifaligi bosh qozisi sifatida turli masalalarda ko'plab kishilar bilan muammolarni amaliy hal etish bo'yicha muloqotda bo'lardi. U mamlakatda soliq tizimini tashkil etish va moliyaviy sohada to'g'ri boshqaruv tartibini joriy etishga oid formulalar ustida uzoq ishladi. Jamiyat hayotida uchraydigan muammolarga mantiqan yondashar edi. Abu Yusuf taklif etgan soliq tizimini o'rganish orqali VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalarni

o'zida mujassam etgan boshqaruv tizimi va davlat moliyasining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Yoqub Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini diqqat bilan o'rganib chiqilganda, uning maqsadi jamiyatda odamlarning farovon hayot kechirishini ta'minlash bo'lganligiga amin bo'lamiz. Buning uchun oqil boshqaruvchi bir qator muhim vazifalarni ado yetishi kerakligini ta'kidlaydi. Olim "Kitob al-xaroj" asarida davlat boshqaruvida Umar (r.a)ni amalini namuna sifatida tez-tez tilga oladi.

Abu Yusuf Umar (r.a)ning so'zlaridan iqtibos keltirgan holda aytadiki, eng yaxshi hukmdor o'z xalqi farovonligi uchun qayg'uradigan va eng yomon hukmdor esa o'z xalqi qiyinchiliklarini bartaraf etmaydigan hukmdordir deydi. Uning bu fikrlari, bizga hukmdorning o'z xalqi oldida katta mas'uliyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois, u har doim xalifani o'z xalqining ehtiyojlarini qondirish va ularni farovonlikka olib boradigan turli tashabbuslarni ishlab chiqishga undagani tushunarli holatdir.

Abu Yusufning qarashlariga ko'ra to'g'ri ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat oqilona, samarali, halol, yaxshi ma'muriy boshqaruv tartibini joriy yetishi va amaldorlarni tayinlashda mas'uliyatli bo'lishi kerakligini aytib o'tadi. Uning fikricha, odamlarga zulm qilmagan holda hurmatga sazovor bo'lgan soliq amaldorlari jamiyat va davlat uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Abu Yusuf jamiyat farovonligini oshirish uchun o'zining bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy g'oyalarni ilgari surdi. Soliq tizimi, soliqni boshqarish tartibi, soliqni yig'ish jarayonini tashkil yetish, davlat daromadlari va ularni to'g'ri sarflash, soliqlardan ozod qilish, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar kabi masalalar xalq farovonligini oshirishga xizmat qildi.

Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy konseptsiyada shuni ko'rishimiz mumkinki, davlat iqtisodiy faoliyat uchun har tomonlama qulay muhitni yaratish, adolat, qonun ustuvorligi, tartib va barqarorlikni ta'minlaydigan muhitni vujudga keltirishi kerak. Shuningdek, davlat musulmonlarga foydasi tegadigan ishlarni

amalga oshiradiganlar va ularning oilasi uchun ragʻbat va doimiy ish haqi tayinlashi kerakligini taʼkidlaydi.

Aholi farovonligini oshirish va tabiiy boyliklardan erkin foydalanish uchun Abu Yusuf suv, oʻtloq va boshqa tabiiy resurslarni bir shaxs tomonidan xususiylashtirib olish mumkin yemas deb hisoblagan. Bu tabiiy boyliklar aholining barcha qatlamiga teng taqsimlanishi kerak. Xususan, xalifa Horun ar-Rashid davrida gʻaznani boshqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Abu Yusuf davlat mablagʻlarini odamlar manfaati uchun boshqarish vakolatining mohiyati tushuntirib oʻtgan. Abu Yusuf qarashlarida muvozanat, iroda erkinligi, javobgarlik va adolat, yaxshilik qilish kabi jihatlar koʻrinib turadi.

Jamiyat hayotini yaxshilash uchun Abu Yusuf boylar va kambagʻallar oʻrtasidagi farqni kamaytirish tizimini takomillashtirdi. Uning fikricha, narx nafaqat ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi, balki bunday tovarlarga boʻlgan talab bilan belgilanadi. Aslida, bu narxga taʼsir koʻrsatadigan boshqa omillarga ham bogʻliq. Hukumat daromadlarni koʻpaytirish va ijtimoiy adolatni taʼminlash uchun iqtisodiy ishlarga aralashish huquqiga ega. Bunda Abu Yusuf ikki jihatga yeʼtibor beradi: birinchidan, davlat iqtisodiy tanazzulga yoʻl qoʻymaslik uchun soliqni toʻgʻri hisoblashi lozim, ikkinchidan, davlat xarajatlarni tartibga solish daromad, xarajat va bozor qonunlarini hisobga olgan holda siyosat yuritishi kerak.

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida davlatning moliyaviy boshqarish tizimi haqidagi gʻoyalarini ham tahlil qiladigan boʻlsak, u nafaqat davlat moliyasiga, balki bozor mexanizmi va narxlariga, shuningdek, narxning qanday belgilanishi va har xil turdagi soliqlarning qoʻllanilishi qanday taʼsir koʻrsatishiga ham eʼtibor bergan. Bu orqali biz u amalga oshirmoqchi boʻlgan islomiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim tuzilishini bilib olishimiz mumkin.

Soliq boshqaruvini tahlil qilar ekan Abu Yusuf maʼmuriyatning amaliy tajribasini soliq tartibiga taʼsiri haqida oʻz fikrlarini bildiradi. U soliq maʼmuriyati soliq yigʻuvchilarga vakolatlarini toʻgʻri topshirish, soliq solinadigan mol-mulkni oʻrganish va baholash, soliq toʻlovchilarni soliq yigʻuvchilarning asossiz zoʻravonligidan asrash lozimligini taʼkidlaydi. Soliq daromadlarini oshirish va

soliq to'lovchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun yerni to'g'ri tekshirish va soliqqa tortiladigan mol-mulkni to'g'ri baholash zarurligini qat'iy tavsiya qiladi. Uning so'zlariga ko'ra, xalifa Umar Savod yerlarini o'z egalarida qoldirish orqali undan ko'proq foyda olishni hisobga olgan, chunki u yerlarni tekshirib ko'rib shunday xulosaga kelganki, bu yerlardan yaxshi hosil olish va davlatga ko'proq daromad keltirishiga ishonch hosil qilgan.

U soliq yig'uvchilarni soliq to'lovchilarga nisbatan adolatli, halol, vijdonli va yumshoq munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Agar xalqqa nisbatan yomon munosabat bildirilsa, ularning davlat amaldorlariga nisbatan kayfiyati yomonlashadi, bu esa davlat daromadlari kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, chegaralarda bojlarni undirishda halol va Allohdan qo'rqadigan amaldorlarni xizmatga olish zarurligini aytadi, chunki ular belgilangan miqdordan ortiqcha soliq olmasligini aytib o'tadi. Hukumat soliq yig'uvchilarning hatti-harakatlarini nazorat qilishi kerak deydi.

U xalifaga murojaat qilib: "Siz mamlakatda soliq yig'ishni nazorat qilish uchun ishonchli va halol odamni tayinlashingiz va ular esa xuddi shunday yordamchilarni tanlashi lozimligini buyurishingiz kerak"⁹⁸. Abu Yusuf o'z e'tiborini soliq solinadigan mol-mulkni to'g'ri baholashga qaratdi. U soliq olinadigan mulk aniq bo'lishini, taxmin asosida hech narsa olinmasligi kerak degan fikrda. Soliq miqdorini belgilashda, hukumat unumdor va qayta ishlov beriladigan yerlarni aralashtirib yubormasligi kerak. Shuningdek, davlat daromadlari alohida ko'rib chiqilishi va bir-biriga aralashmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Soliq miqdorini faqat markaziy hokimiyat organlari belgilashi kerakligini ta'kidladi.

U shunday dedi: "Hech bir xiroj ma'muri biron kishini o'z xirojining bir qismini to'lashdan ozod qilish huquqiga ega emas, unga bunday vakolat berilmagan va hech kim xiroj yoki ushr yerlarining maqomini o'zgartirishga haqli emas"⁹⁹. Bundan tashqari u soliq yig'uvchilarga soliq yig'ishni

⁹⁸ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P. 101

⁹⁹ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P. 102

kechiktirmasliklarini tavsiya qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan hosil tayyor bo'lishi bilan yig'ish lozimligini, agar yig'im kechiksa mahsulotga zarar yetishi va soliq to'lovchilarning daromadlariga ta'sir etishini aytib o'tadi. Biroq agar hosil yetishishi kechikadigan bo'lsa, unda soliq to'lashni orqaga surish mumkin.

Hech qanday soliq to'lovchida hosil miqdori yetishmaganligi uchun javobgarlikka tortilish bo'lmasligi kerak, chunki soliq yig'uvchi soliqni yig'ishda yetishtirilgan hosilning miqдорidan kelib chiqib uni oladi. Abu Yusuf soliq ma'muriyati vakili sifatida majlislarda soliq yig'uvchilar tomonidan aholiga zulm ko'rsatilayotganini keskin qoralagan va uzoq muhokama qilgan. Hukumat tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan noto'g'ri xatti-harakatlar va munosabatlar yoki ularni ko'proq to'lashga majburlash ularning ahvolini og'irlashtirishini ta'kidlagan. Bunday hatti-harakatlar jinoyat bo'lishidan tashqari, soliq to'lovchilarga zarar yetkazishini va soliqlardan tushadigan daromadni kamayishini kuzatgan. Abu Yusuf soliq to'lovchilarga nisbatan yomon muomala va soliqlarning yuqori miqdori mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ta'sir ko'rsatishiga e'tibor qaratadi. U yerlarning unumdorligini oshirish va yangi yerlarni o'zlashtirish orqali yer maydonlari kengaytirilgandagina hosil miqdori ko'payishini va soliq daromadlari oshishini aytib o'tadi. Agar soliq to'lovchilarga nisbatan yomon muomalada bo'linsa, ularning yerga ko'proq ishlov berishga qiziqishni yo'qoladi va hosildorlik pasayadi, natijada iqtisodiyotning o'sishiga ta'sir qiladi deb ta'kidlaydi.

Abu Yusuf soliqlarning ortishi va soliq masalasiga nisbatan shunday deydi: "Adolatli, halol boshqaruv va zulmkorlikning oldini olish davlatning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatadi, zulm esa uni yo'q qiladi"¹⁰⁰. XIV asrning mashhur musulmon olimi Ibn Xaldun ham xuddi shunday fikrlarni bildirgan edi: "Oxir oqibat, soliqlar odamlarga og'irlik qiladi va ularning ahvolini og'irlashtiradi. Natijada odamlarning iqtisodiy faoliyatga qiziqishi yo'qoladi, chunki ular xarajatlar va soliqlarni o'zlarining daromadlari bilan solishtiradi. Ular kam

¹⁰⁰ Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P. 96.

daromadi umidlarini so'ndiradi. Bu xazinaga soliq tushumi kamayishiga olib keladi"¹⁰¹. XX asr iqtisodchi olimi Artur Loffer "soliq miqdorining ma'lum darajada oshishi soliq tushumini ko'paytirish o'rniga kamaytiradi"¹⁰² deb ta'kidlagan.

Abu Yusufning soliq boshqaruvi to'g'risidagi qarashlari uning islom moliyasi masalalarida amaliy tushunchaga ega ekanligini ko'rsatadi. U kitobi soliq ma'muriyatining sifati, qat'iy belgilangan soliq miqdori va soliq to'lanadigan manbaning aniq bilish zarurligi to'g'risida fikr bildirgan. Chunki davlat xazinani halol asrash va soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qilish uning qarashlarining bosh g'oyasidir. U soliq ma'muriyatining asosiy vazifasi xalq farovonligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining o'sishini ta'minlashdir deydi.

Abu Yusufning qarashlari g'arb olimi Adam Smitning fikrlariga o'xshashdir. Adam Smit "har bir shaxs to'lashi kerak bo'lgan soliq miqdori aniq bo'lishi kerak va uni yig'ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasligi lozim. Soliq yig'ish vaqti, soliq turi va miqdori aniq bo'lishi kerak. Soliq o'z vaqtida soliq to'lovchi uchun qulay bo'lgan paytda yig'ilishi lozim"¹⁰³ deb ta'kidlaydi.

Abu Yusuf o'zining iqtisodiy qarashlarida hukumat aralashuviga bog'liq bo'lmagan iqtisodiy tizimni yaratish lozimligini ta'kidlasada, biroq narxlarning ko'tarilishi va pasayishida muvozanatni ushlab turish muhimligiga ye'tibor qaratadi. Abu Yusufning fikriga ko'ra, narx-navo ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning umumiy harakatiga bog'liq. Agar narx oshishida, ishlab chiqaruvchi tomonidan adolatsizlik, masalan monopoliya, pul yig'ish yoki bir tomonlama harakatlar bo'lmasa, hukumat narxlarni belgilashga aralasha olmaydi. Bozorlar deydi dehqonchilik bilan shug'ullaniladigan joyda emas, balki hunarmandlar istiqomat qiladigan joylarda mavjud bo'ladi. Biroq har bir inson tabiiy ehtiyojini qondirish lozim. Shunga ko'ra dehqonlarga nisbatan

¹⁰¹ Ibn Khaldun. *The Muqaddamah*: Translated from the Arabic by Franz Rosenthal, Princeton: Princeton University Press 1967. - P. 449.

¹⁰² Ibn Khaldun. *The Muqaddamah*: Translated from the Arabic by Franz Rosenthal, Princeton: Princeton University Press 1967. - P. 448.

¹⁰³ Sabahiddin Azmi. *Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance*. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – P. 98.

hunarmandlarda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj yuqoriroq bo'ladi. Bu mahsulotlarni uzoq hududdan boshqa hududga olib kelish va ularni saqlash muammosini vujudga keltiradi. Bu holatlar bozor narxlariga ta'sir ko'rsatadi. Abu Yusuf serhosillik narxlarni belgilaydigan qarorga qarshi bo'lgan, ya'ni mahsulot ko'pligi narxlarni pasayishiga va aksincha tanqislik narxlarning ko'tarilishiga olib kelmasligi kerak deydi. U narxlarni nazorat qilish hukumatning bozor mexanizmi oldidagi javobgarligidan biridir deydi.

Abu Yusuf soliq daromadlari davlat xarajatlariga bog'liq bo'lmasligini, soliq muammosi davlat xarajatlarini aniqlashdan mustaqil ravishda ko'rib chiqilishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning bu qarashlari bugungi kundagi iqtisodchilar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarga yaqindir. Davlat xodimlarini moliyalashtirishda u klassik iqtisodchilar tomonidan qabul qilingan foyda printsipli nazariyasiga tayanadi.

Abu Yusuf qishloq xo'jaligi yerlarining hosildorligini oshirish uchun davlat dehqonlarga infratuzilmani yaxshilashi shart degan fikrda. Bu ishlar uchun ketadigan xarajatlar davlat xazinasidan qoplanishi lozim, biroq xususiy kanal egalari qazish va tozalash ishlarida mutanosib ravishda qatnashishi kerak degan fikrda. Chunki xususiy kanaldan to'g'ridan-to'g'ri foydalanadigan odamlar ushbu ishlarga sarflanadigan xarajatlarni o'z zimmalariga olishlari kerak, chunki ular xususiy mulkdir va egalari sug'orish maqsadida suv olish uchun boshqalarni suv olishiga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega.

Abu Yusuf soliqlarni adolatli belgilashi, soliq tuzilishini o'rganishi davlat xarajatlarni qoplash uchun yetarli iqtisodiy qudratga ega bo'lgan davrda yashagan. Chunki yig'ilgan soliqlar davlat xarajatlariga bog'liq bo'lmagan va xarajatlar xazinadan kelib chiqib aniqlangan. Abu Yusuf xalifa Umar (r.a) va undan keyingi xalifalar kabi islom shariyatidan kelib chiqqan holda jamoat ishlarini yaxshilash uchun qo'shimcha soliqlarni kiritishga ehtiyoj sezmaganligini ta'kidlashimiz lozim. Uning asosiy maqsadi soliq ma'muriyatining sifatini oshirish va soliq yig'ishda tenglik va adolatni o'rnatish bo'lgan.

“Kitob al-xaroj” davlatni adolatli boshqarish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ifodalaydigan qomusiy asardir. Bu asar mamlakatda notinchlik, tartibsizlik va zo‘ravonlikni bartaraf etish, aholiga tinchlik va totuvlik olib kelish maqsadida yozilgan. Boshqacha qilib aytganda, Abu Yusufning xalifaga siyosiy va huquqiy ko‘rsatmalari Abu Hanifa fihiy qarashlarining g‘oyaviy davomidir.

“Kitob al-xaroj” asari xalfalikning soliq va davlat huquqiy tizimini o‘zida mujassam etadi. U siyosiy-huquqiy normalarni barpo etish va adolatli davlat boshqaruvini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratdi. Bu esa har tomonlama hanafiylik ta‘limotining davlat-huquqiy manbaiga aylanganligidan dalolat beradi. Abu Yusuf xalifaga bu asarni batafsil o‘rganishni tavsiya etgan¹⁰⁴.

Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida davlat daromadlari va xarajatlari ifodalanib qolmay, u bu tartib-qoidalarni mamlakatda ijtimoiy hayotni yaxshilash, iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka ko‘maklashuvchi asosiy yo‘l deb hisoblaydi. Muayyan daromad manbasini ko‘rib chiqayotganida, uni har taraflama tahlil qilib chiqadi. Kim soliq to‘lashi kerak? Soliqlar soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyatiga qanchalik bog‘liq? Iqtisodiy taraqqiyotga qanday ta‘sir ko‘rsatadi? Qancha miqdorda soliq yig‘ish zarur? Soliq yig‘ish usuli qanday bo‘lishi kerak? Abu Yusuf bu jihatlarni batafsil muhokama qiladi. Shunga ko‘ra, u yig‘ilgan davlat daromadlarini qanday sarflanishi lozimligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Ko‘zlangan samaraga erishish uchun xarajatlarni nazorat qilish va to‘g‘ri boshqarish lozimligini aytib o‘tadi.

Mashhur hadisga tayangan holda aksariyat musulmon fiqhshunoslari kuni bilan hech qanday ish qilmay, ibodatda bo‘lgan va moddiy tarafdin kishilarga qaram bo‘lgan obiddan, iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etadigan boshqa kishi afzal deb hisoblaydilar: «Barcha yaratilmishlar Allohga tobedir va Alloh hammadan ko‘ra O‘zining bandalariga manfaatli bo‘lgan kishini yaxshi ko‘radi. Agar sen: “Insonlar uch toifa bo‘ladi: kishi xozirgi kuni nafiga zid ravishda

¹⁰⁴ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт-Петербург. 2001. – С.12.

o‘zining kelgusi hayoti bilan mashg‘ul bo‘lsa, u yutuqdadir. Bugungi hayoti keyingi hayotidan mashg‘ul qilib qo‘ygan inson halokatdadir. Va har ikkisi ila mashg‘ul inson - xavf va xatarga yo‘liqadi, xavfga yo‘l qo‘yadigan kishidan g‘olib yaxshi” desang, bilginki, bunda xikmat bor, yuqori darajalarga xavflarni yengish orqali erishiladi”. Shunday qilib, dunyoviy va ma’naviy hayot o‘rtasidagi mo‘‘tadillikni tanlash eng afzal yo‘ldir.

Abu Yusuf qarashlarini tadqiq etar ekanmiz, o‘sha davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy fikrlar bilan solishtirganda keng qamrovli va chuqur tahlil qilingan ulkan ilmiy bilimlarni yaratganiga amin bo‘lamiz.

Uchinchi bob bo‘yicha chiqarilgan xulosalar:

Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asaridagi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar, islomiy iqtisodiy soliq tizimiga oid muhim ma’lumotlar, VIII-IX asrlardagi xalifalikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holat va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o‘rni muhim ekanligini anglatadi.

Soliq tuzilishi davlat iqtisodiyotining bir qismi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Abu Yusufning moliya masalalari bo‘yicha qarashlari islomiy tenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi. U soliqqa tortish bo‘yicha adolat siyosatiga katta e’tibor qaratdi. Uning jamoat manfaatlari himoya qilishi va soliqlarni taqsimlashda adolatga katta e’tibor qaratganligi boshqa iqtisodchilardan ajralib turadi.

Shuningdek, hanafiylik mazhabining keng tarqalishi Abu Yusufning hissasi ko‘proq ekanligi tadqiqotdan ayon bo‘ladi. Aynan uning xalifalikning bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli hanafiylik nazariyadan amaliy hayotga tatbiq etildi va xalifalik bo‘ylab keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Islomning ilk davrida musulmon iqtisodchilari fiqh olimlari bo‘lib, ular tomonidan islom shariati qoidalariga tayangan holda o‘z davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator iqtisodiy-ijtimoiy va falsafiy masalalarni tadqiq etilishi dunyo ilm-fanining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asari islom ta’limotidagi hanafiylik mazhabi bo‘yicha bitilgan ilk yozma manba hisoblanib, unda islomdagi soliq tizimi keng

yoritilgan, yer va suvdan foydalanish, halqaro munosabatlardagi tashqi siyosat, boshqa din vakillari bilan munosabatdagi bag'rikenglik, jamiyatdagi axloqsizlik va jinoyatlarga barham berish kabi muhim masalalar tahlili bayon etilgan musulmon yozma an'anasining bebaho yodgorligini bilib oldik.

Abu Yusufning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarini Qur'oni Karim va hadislar bilan bir qatorda, aqliy mushohadalardan foydalanganini muhim ahamiyatga ega. Uning qarashlari jamiyat tartibga keltirishga ulkan hissa qo'shdi.

Abu Yusuf iqtisodiyotni hayotning asosiy manbaiga qo'ymaydi, u din va axloq me'rlariga ko'proq e'tibor qaratadi. U iqtisodiy faoliyatni diniy-axloqiy hayotni qaror toptirish va tinch, adolatli jamiyat barpo etishda asosiy burch qatoriga qo'shadi.

XULOSA

1. Ilk Abbosiylar xalifaligi davrida ko‘plab islom ilmlarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida uchraydigan turli masalalarga nisbatan shariatning tutgan o‘rnini belgilab beruvchi islom huquqi – fiqh ilmi vujudga kelganini bilib oldik. Bu davrda islom tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk fiqh ulamolari yetishib chiqdi. Fiqh olamidagi ulkan siymolardan biri bo‘lgan Imom Abu Yusuf o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlar orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgani tadqiqot natijasida ayon bo‘ldi.

2. Yoqub Abu Yusufning ilmiy merosini o‘rganish asosida fuqarolarning tinchligi, ularning moddiy va ma‘naviy hayotini yaxshilash yo‘lida uning ulkan sa‘y-harakatlarini aniqladik. Abu Yusufning islomiy soliq tizimini ishlab chiqishda soliq turlarini birma-bir aniq dalillarga asoslangan holda bayon etishi davlat boshqaruv tizimida mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishda katta yordam berganligi tahlil qilindi.

3. Abu Yusuf tomonidan yozilgan asarlarning har biri jamiyatning biror jabhasiga qaratilgan va uning rivojida muhim rol o‘ynagan. Xususan, uning “Kitob al-xaroj” asari o‘z davrida islom qonunchiligi uchun ulkan ish hisoblanadi. Chunki, u yangi nazariyalar bilan soliq tizimini yaxlit qolipga soldi va kitob holida jam qildi. Bu kitob keyinchalik ham ko‘pgina islom davlatchiligida qonunchilik uchun asos bo‘lib xizmat qilgan e‘tiborga molik hisoblanadi.

4. Mohiyatiga ko‘ra soliqqa tortish bo‘yicha qo‘llanma hisoblangan Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida xalifalikda amalda bo‘lgan ko‘p sonli soliqlar va yig‘imlar tahlil etilgan. Bu asar xalifa Xorun ar-Rashidning buyurtmasi bo‘yicha yozilgan bo‘lsada, u o‘ziga xos uslubda, xalifa nomidan savollar muallifning o‘zi tomonidan shakllantirilgan holda unga javob berilgan. Asarni yozilishidan asl maqsad amaliyotda davlat daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi maqbul mutanosiblikni topish orqali ijtimoiy adolatni qaror toptirishni maqsad qilgan deb xulosa qilsak bo‘ladi.

5. Abu Yusuf mamlakat taraqqiy etishi uchun qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ta'kidlaydi, shuningdek u ko'priklar va ko'tarmalar qurish, kanallarni qazish kabi ishlarda davlat mablag'laridan foydalangan holda uzoq muddatli loyihalarni samarali amalga oshirish bo'yicha oldinga surgan aniq takliflari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

6. Abu Yusuf ustoz Abu Hanifaning ilmiy merosini tizimlashtirgan holda o'zining asarlarida bayon qilgani o'rganildi. Abu Yusuf xalifalikning bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli hanafiylik nazariyadan amaliy hayotga tatbiq etildi. Uning "Kitob al-xaroj" asarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yoritilishi bilan parallel ravishda Abu Hanifaning ham mazkur masalalar bo'yicha fikrlari keltirib o'tilgan. Bu asar hanafiylik mazhabi bo'yicha qimmatli manba ekanligi Abu Yusufning bebaho tuhfasini hisoblanadi.

7. Biz Yoqub Abu Yusufning shaxsiyati va ilmiy merosini, xususan uning el-ulus osoyishtaligi, fuqarolarning moddiy va ma'naviy hayoti yo'lidagi ulkan sa'y-harakatlarini keng va mukammal o'rganish asosida yangicha qarashlarni, bilimlarni shakllantirdik. Ayniqsa Abu Yusufning soliq tizimi ishlab chiqishi soliq turlarini birma-bir aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bayon etishi, keyingi boshqaruv tizimida islom mamlakatlariga katta ko'mak berdi. Biz ba'zi hozirgi islom mamlakatlarida ham islom soliq sistemasi amal qilishini ko'rishimiz mumkin.

8. Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asaridagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar, islomiy iqtisodiy soliq tizimiga oid muhim ma'lumotlar, VIII-IX asrlardagi xalifalikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holat va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rni muhim ekanligi tadqiqot ishidan ayon bo'ladi.

9. Abu Yusufning davlat haqidagi qarashlarini zamonaviy iqtisod nazariyasida "farovonlik davlati" tushunchasi bilan taqqoslasa bo'ladi. Bugungi kun olimlari "farovonlik davlati" kontseptsiyasi zamonaviy siyosiy-iqtisodiy holatga tegishli deb hisoblashadi. Olimning ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy g'oyalari keyinchalik boshqa islomiy davlatlar boshqaruvi tizimida keng foydalanildi.

Shuningdek, uning mulohazalari talaygina fiqhshunos olimlar tomonidan o'rganildi.

10. Islom olamida o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan Yoqub Abu Yusufning ilmiy merosini tadqiq etish orqali yurtimiz xalqlarining dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimiz yetishib chiqqaniga amin bo'ldik. Abu Yusuf adolatli boshqaruv orqali davlatni birlashtiradigan qonun va me'yorlar ishlab chiqdi. Uning teng huquqlilik, adolatlilik, oliyhimmatlilik va odamlarga zulm qilmagan holda hurmatga sazovor bo'lish kabi g'oyalari davlat va jamiyat uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi”gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3913188>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-son qarori// <https://lex.uz/docs/-4791086>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

III. Monografiya, risola, darslik va o'quv qo'llanmalar:

10. Абдуллаев Р. Ислом иқтисодиёти асослари // Маънавий ва диний етуклик давр талаби. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашр., 2009. – 211 б.
11. Абдуллох Муҳаммад Саад. Ўрта Осиё олимлари комуси. З.Мунавваров таҳрири остида. – Т.: “Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази нашриёти”, 2007. – 151 б.
12. Абдуҳалимов Б. А. “Байт ал-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти: (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). –Т., Тошкент Ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. – 236 б.
13. Абу Йусуф Йақуб б. Ибраҳим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. СПб., Санкт-Петербург. 2001. – 415 с.
14. Агзамходжаева С.С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. – Тошкент. “Фалсафа ва ҳуқуқ” институти нашриёти. 2007. – 254 б.
15. Айдарбек Тулепов. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2013. – 336 б.
16. Айдин Али-заде. Исламский энциклопедический словарь. – Ансор, 2007. – 920 с.
17. Аль-Хатиб аль-Багдади. История Багдада. Т. 4. Бейрут: Дар аль-гарб аль-Ислами, 2001. – 299 с.
18. Аминов Х., Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2017. – 399 б.
19. Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: “Ўқитувчи”, 2001. – 352 б.
20. Баҳодиров Р., Расулов Д. Ислом илмларининг буюк алломалари. – Т.: “А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 2000. – 24 б.
21. Беккин Р.И. Исламская экономическая модель и современность. Москва, Издательский дом Марджани, 2009. – 316 с.

22. Беккин Р.И. Ислом иқтисодий модели ва замон. –Т.: “Ўзбекистон”. 2019. – 359 б.
23. Беляев Е.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в ранне средневековье/ Е.А. Беляев. – М.: Наука, 1966. – 280 с.
24. Босфорт К.Э. Мусулмон сулолалари. - Т.: “Фан” нашриёти, 2007. – 160 б.
25. Буюк алломаларимиз / Таҳрир хайъати: Ҳ.С.Кароматов ва б. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёти, 2002. – 80 б.
26. Грюнебаум Г. Классический ислам. Очерки истории. -М.: Наука. 1986. - 215 с.
27. Доктор Ахмад Шалаби. Мавсуатул-хазаратил исламия. 8-том
28. Доктор Мустафо Шакъа. Буюк имом Абу Ҳанифа Нўъмон. – Самарқанд, “Имом Бухорий ҳалқаро маркази нашриёти”. 2019. – 132 б.
29. Е.А.Байдаулет. Исломий молия асослари. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 432 б.
30. Ёқуб Абу Юсуф ибн Иброҳим ал-Ансорий ал-Куфий. – ШИ Шарк кўлёмалари маркази фонди, № 9325/II.
31. Жузжоний А.Ш. Ислом ҳуқуқшунослиги. Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёти, 2002. – 252 б.
32. Жабборов И. Жаҳон динлари тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 224 б.
33. Зиёдов Ш., Қориев О., Бекмирзаев И. Мовароуннаҳр ислом илмлари ривожига ҳанафий таълимоти. – Т.: “Фан ва технология”, 2012. – 332 б.
34. Зоҳидий. А. Туркистонда ўрта аср араб-мусулмон маданияти. –Т.: 1993. – 132 б.
35. Ибн ун-Надим. Ал-Фихрист. Байрут 1982.
36. Ибн Халликон. Вафийётул аъён. II жилд. – Миср, 1892.
37. Имом Заҳабий. Манақиб ал-имам Аби Ҳанифа ва соҳиббайҳи Аби Юсуф ва Муҳаммад ибн Ҳасан. – Байрут, 1998. – 96 б
38. Имом Аъзам Абу Ҳанифа. Муснад / Мутаржим: Абдуллоҳ Мурод Холмурод ўғли. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2014. – 347 б.

39. Имом Аъзам. Асарлар / Таржимон ва нашрга тайёрловчи: А.Баҳромов. -Т.: “Мовароуннахр”, 2018. – 132 б.
40. Имом Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. Китоб ал-харож. таржимон. А.Маннапов. – Тошкент: “Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси” нашриёти, 2021. – 240 б.
41. Исломов А. Эгамов. Э. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003. – 216 б.
42. Ислом энциклопедияси: А-Ҳ / З. Ҳуснидинов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 357 б.
43. Ислом, тарих ва маънавият / Масъул муҳаррирлар: М.М.Хайруллаев, Ҳ.Алиқулов, - Т.: “А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр”, 2000. – 109 б.
44. Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1991. – 479 с.
45. Йахйя ибн Адам. Китаб ал харадж. Хрестоматия по истории Халифата. / Сост. ипер. А.И. Надирадзе. - М.: Изд-во МГУ, 1968. – 249 с.
46. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи (биринчи китоб). – Т.: “Шарқ” НМАК, 2010. – 512 б.
47. Комилов М. Мовароуннахр илмининг ривожини ва фақиҳ Алоуддин Самарқандий. –Т.: “Истиқлол”, 2006.
48. Крачковский. И. Ю. Арабский рукописи, поступившие Азиатский музей Российской Академии наук с кавказского фронта. Москва, 1960. – 179 с.
49. Куран Т. Исломий иқтисодий тафаккур ва ислом иқтисодиёти. – Санкт-Петербург. 2008.
50. Мансур А. Имом Аъзам – буюк имомимиз. – Тошкент. “Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1999. – 50 б.
51. Массэ А. Ислам: Очерк истории. — М.: Наука, 1982. – 191 с.
52. Маънавият юлдузлари: Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар / Тўпловчи ва масъул муҳаррир: Хайруллаев М.М. – Т.: “А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 2001. – 396 б.
53. Мец А. Мусульманский ренессанс. - М.: ВиМ, 1996. – 473 с.

54. Момотов В.В., Свечникова Л.Г. Основы исламского законодательства. – Краснодар.: Кубанский гос. ун-т, 2009. – 126 с.
55. Муҳаммад Шайбоний. Ал-Жомеъ ас-Сағир. – Ҳиндистон: “Алавий”, 1892.
56. Мухаммад Али ал-Кутб. Основатели четырех мазхабов. - М.: “Диля”, 2010. – 96 с.
57. Мухтасар: (Шариат қонунларига шарҳ). Р.Зоҳид, А.Дехқон таҳрири остида. – Т.: Чўлпон, 1994. – 336 б.
58. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. Т.: ТДШИ нашриёти. 2009. – 212 б.
59. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA». 2009. – 180 б.
60. Рахмонов. А.Р., Рузиев Р.Ж. Исламское право. Уфа, 2010. – 284 с.
61. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Ўрта Осиё олимларининг тафсир соҳасидаги хизматлари. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёти, 2009. – 65 б.
62. Рудолф. У. Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти. – Т.: 2008. – 204 б.
63. Саидов А., Жузжоний А. Шарқ ва инсон ҳуқуқлари. – Т.: “Ижтимоий фикр”, 1998. – 142 б.
64. Саййид Муҳаммад Ҳотамий. Ислам тафаккури тарихидан. -Тошкент, Минҳож, 2003. – 287 б.
65. Степанянц М.Т. Восточная философия. - М.: Восточная литература “РАН”, 2001. – 503 с.
66. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент. “Ўзбекистон” нарийёти. 1997. – 416 б.
67. Табсират лил муфтий. - ШИ Шарқ қўлёзмалари маркази фонди, № 6553/1.
68. Уинтер Т.Ж. ХХI асрда ислом: постмодерн дунёда қиблани топиш. – Тошкент, “Шарқ” нашриёти. 2005. – 366 б.
69. Уватов У. Иймон нури. . –Т.: “Истиқлол”, 1996. – 110 б.
70. Фалсафа. Аҳмедова М.А. ва б. - Т.: Ўзбекистон файъ ласуфлари миллий жамияти. 2006. – 496 б.

71. Хайруллаев. М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1971. – 312 б.
72. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. - М Наука. 1985. - 304 с.
73. Ҳасанов. А. Макка ва Мадина тарихи. –Т.: “Меҳнат” , 1992. – 78 б.
74. Ҳожи Исматулоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. – Т.: “Шарқ”, 2005. – 384 б.
75. Шарль Р. Мусулманское право. пер. С.И.Волк; предсл. Е.А.Беляева. – Москва: Иностр. лит., 1959. – 142 с.
76. Шейх Мухаммад Хузарибек. Тарихут-ташриъил исламий. -Бейрут, 1986
77. Қодиров З. Имом Аъзам ҳаёт йўли ва фикҳ усуллари. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 1999. – 112 б.
78. Abdul Azim Islahi. Contribution of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis. Jeddah. 2014. – 122 p.
79. Abu Yusuf, Kitab al-Kharaj, Beirut: Dar al -Marifah: 1979. – 244 p.
80. Ahmad Farras Oran. The Economic system under the Abbasids dynasty. London: The encyclopaedia of Islamic economics, 2009. 257-266 p.
81. Faisal H. al-Kathiri. Succession to the caliphate in early Islam. Portland State University. 1980. – 357 p.
82. Joseph Schacht. An introduction to Islamic law. – Oxford University Press, 1982. – 304 p.
83. Haney Lewis. History of Economic Thoughts, NewYork: Macmillan, 1921, - 677 p.
84. Habib Ahmed. Role of Zakah and Awqaf in Poverty Allevation. – Jeddah, 2004. – 150 p.
85. El-Ashker A.A.F., Wilson R. Islamic Economics: a Short History. – Leiden-Boston, 2006. – 451 p.
86. Lokkegard. F. Islamic Taxation in the classic Period. Copenhagen. Branner & Korch, 1950. – 286 p.

87. Mannan M.A. Islamic Economics: Theory and Practice. – Delhi: Idara Adbiyat, 1980. – 383 p.
88. Muhammad Abu Zahra. Imam Abu Hanifa – His life, opinion and Fiqh. 2017. – 139 p.
89. Siddiqi M.N. History of Islamic Economics Thought. – Jeddah, 1992. – 252 p.
90. Yusuf Al Qardawi. Fiqh al Zakah: A Comparative Study of Zakah, Regulations and Philosophy in the Light of Quran and Sunnah. — Jeddah, 2020. - Vol. II. – 345 p.
91. Yusuf Al Qardawi. Fiqh al Zakah: A Comparative Study of Zakah, Regulations and Philosophy in the Light of Quran and Sunnah. — Jeddah, 2010. - Vol. I - 312 p.

IV. Ilmiy maqolalar

92. Жданов С.В. Исламская экономика: ретроспективный анализ // финансовый бизнес, 2000. - №5. - С. 35-41.
93. Жузжоний А.Ш. Абу Ҳанифа (р.а)нинг иқтидорли шогирди // Имом Бухорий сабоқлари, 3/2002. – Б.170-172.
94. Жузжоний А.Ш. Фикҳ илми ривожда Марказий Осиё фақиҳларининг ўрни // Тошкент ислом университетининг илмий-таҳлилий Ахбороти, 3/2007. – Б. 18-20.
95. Комилов М. Мовароуннаҳр фикҳ мактаблари ва уларнинг ислом ҳуқуқи тараққиётидаги ўрни // Ўзбекистоннинг ислом цивилизациясига қўшган ҳиссаси. – Тошкент-Самарқанд, 2007. – Б.110-112.
96. Матибаева Р. Мовароуннаҳр ҳанафийлигига оид муҳим манба // Имом Бухорий сабоқлари, 1/2008. – Б. 13-14.
97. Мехмадиев Е.А. Арабский историк X в. Кудама ибн Джафар и должность доместика схол в Византии: Проблема происхождения. Вестник ТвГУ. Серия «История». 2015. № 3. С. 33–47.
98. Муминов А. Мовароуннаҳр фикҳ мактаби тарихига оид бир манба // Шарқшунослик (ЎзР ФА ШИ). – 1992. №3. – Б. 52-57.
99. Муминов А. Имом-и Аъзам Абу Ҳанифа // Мулоқот. -1994. №7. – Б. 37-40.

100. Петренко Н.И., Надеждин А.В. Наставники и ученики Абу Ханифы – основоположники ханафитского мазхаба. Вестник Российского университета кооперации. 2015. №1(19). – С. 102-106.
101. Надеждин А.В. Абу Юсуф как один из учеников Абу Ханифы в контексте становления ханафитской правовой школы. Вестник Российского университета кооперации. 2020. № 3(41). – С. 143-147.
102. Нуриев Б.Д. Закят в классическом мусульманском праве. Вестник КГУ им Н.А.Некрасова., 2015. - №3. – С. 178-182.
103. Қораев М. Имом Абу Юсуф ибн Иброҳим // Ҳидоят, 2010/4. – Б. 4.
104. Черкасова И.В. Налоги на землю на согласно исламскому праву: Содержание и выди. Актуальні проблеми держави і права. Випуск 65. №2. 2012. – С. 496-504.
105. Хасанов Х. В. Ахлоқий (исломий) молиялаштириш тизими – инновацион молиялаштириш воситаси сифатида (Ўзбекистон ва МДҲ мисолида) // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, 2017. – Б. 1-8.
106. Рахимова Ф. Баъзе мулоҳизот оиди мароми соҳаи ҳуқуқи давлат дори дар «Китоб ал-харож»-и Абе Юсуф. Вестник ТГУПБП №3 (39), 2009.
107. Прозоров С. М. Некоторые штрихи к портрету верховного судьи Багдада Абу Юсуфа (ум. в 798 г.) // ИВР РАН. Письменные памятники Востока. — СПб.: Наука, 2008. - № 1 (8). - С. 165—169.
108. Ahmad Oran., Salim Rashid. Fiscal Policy in Early Islam, Public Finance. Netherlands: Vol. 44/1989, - P. 75-101.
109. Abdul Azim Islahi. Kharaj and land proprietary right in the sixteenth century: An example of law and economics // King Abdulaziz University, Jeddah. 2006. – P. 1-8.
110. Aftab Hussain Gillani., Mohammad Tahir. The Administration of Abbasids Caliphate: A Fateful Change in the Muslim History. Pakistan Journal of Commerce and Social Sciences. 2014, Vol. 8 (2). – P. 565-571.

111. Badawi Z.M. Islamic finance and the Role of the State. *Islamic Banker*. – 1999. № 45. – P. 16.
112. Christopher Melchert. The Formation of Islam: Religion and Society in the Near East, 600-1800 by Jonathan P. Berkey // *Journal of the American Oriental Society*, Vol. 124, No. 2. (Apr.-Jun., 2004).
113. Christopher Melchert. The Formation of Sunni School of Law, 9th-10th centuries. – New York: Brill Leiden, 1997.
114. Dr. Oğuz BAL. Islam İktisadinin kilometer taslarından Ebu Yusufun iktisodi düşüncesi // *Turkish Journal of Islamic Economics*, Vol. 1, No. 2, August 2014. - P. 1-41.
115. Fuadah Johari., Patmawati Ibrahim. The dynamism in the implementation of al-kharaj during the Islamic role (634-785 AD). *Shariah Journal*, Vol. 18, No. 3 (2010). – P. 629-658.
116. Mansour Zarra Nezhad. Tribute (kharaj) as a tax on land in islam. *International Journal of Islamic Financial Services*, Vol.5, No.1. – P. 1-13.
117. Misri A., Muchsin Abdul Manan. Historical development of tax during the early Islamic period: Jazyah and Kharaj // *Jurnal Al-Tamaddun*, Bil. 14 (2), 2019. – P. 1-7.
118. Nasir Nabi Bhat. Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. *Asian Journal of Multidisciplinary Studies*. Volume 3, Issue 3, March 2015. – P. 158-175
119. Nafis Irkhami. Zakat, Kharaj, Ushr and Jizyah as the instruments of Islamic public finance: A contemporary study // *Institut Agama Islam Negeri Salatiga, Indonesia*. Vol. 8, No. 1, 2019. – P. 90-113.
120. Sabahaddin Zaim. Recent Interpretations of the Economic Aspects of Zakah // *Management of Zakah in Modern Muslim Society / Ed. I.A. Imtiaz M.A. Mannan, M.A. Niaz, A.H.Deria. - Jeddah, 2000. - P. 101-120.*
121. Wael B.Hallaq. The Formation of Islamic Law. Vol. 26. Lawrence I.Conrad. – London, 1995.

122. Öznur ÖZDEMİR. Early Islamic Institutions: Administration and Taxation from the Caliphate to the Umayyads and Abbasids. Journal of Sakarya University Faculty of Theology (SAUIFD), Volume: XX, Issue: 37 (June 2018).

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

123. Байкова Л.И. Исламская государственность Арабского востока: историко-теоретический аспект: дисс...к.ю.н. – Уфа, 2004. - 158 с.
124. Гилязутдинова Р.Х. Природа мусульманского права: дисс... к.ю.н. Уфа, 2001. – 193 с.
125. Кошева С.В. Мусульманское право о природе власти: дисс... к.ю.н. Ставрополь, 2001. – 180 с.
126. Сафаров Б.А. Раннее исламское государство и формирование исламских представлений о власти: дисс...к.ю.н., Душанбе, 2010. - 235 с.
127. Сихарулидзе Э.Т. «Китаб ал-Харадж» Абу Йусуфа Йакуба, как Источник по истории феодальных отношений в халифате: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. - Тбилиси, 1955.
128. Почта Ю.М. Диалектика общего и особенного в становлении и развитии арабо-мусульманского общества. Автореф.канд.дис., М., 1982. – 19 с.
129. Mustafa H.M. The State Fiscal System in Islam: A study in Decision Making with particular reference to the contribution of Abu Yusuf. Dissertation presented to the College of Commerce. Suez Canal University, Egypt, Unpublished, 1989.
130. Muhammad Manasir Ahsan. Social life under the Abbasids. Thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy in the University of London. London, 1973. – 428 p.
131. Sabahiddin Azmi. Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. 1995. – 140 p.

VI. Интернет манбалари:

132. Айдин Али-заде. История и правовые методы ханафитского мазхаба // www.islam.ru

133. Беккин Р. Экономические воззрения Абу Юсуфа. 2008.
<https://islamnews.ru/news-e-konomicheskie-vozzreniya-abu-jusufa>.
134. Соатмурод Ўрол ўғли. Ҳанафий мазхабининг тарқалиши. 2019 йил 1 сентябр. <http://hidoyat.uz>
135. Сюкияйнен Л.Р. Мусульманское право собственности: юридическое осмысление религиозных постулатов// Отечественные записки. - 2004. - №6 (21) // www.strana-oz.ru.numid21.article.978
136. Luqman Hakim Handoko. History of Islamic economic thought: A content analysis. Library Philosophy and Practice (e-journal). 4409.
<https://digitalcommons.unl.edu/libphilprac/4409>
137. Nasrulloh Ali Munif. Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol. 07 No. 01, Juni 2019. – P. 14-24.
<http://ejournal.staim-tulungagung.ac.id/index.php/Eksyar>.
138. Siddiqi M.N. Nature and Methodology of Islamic Political Economy // www.siddiqi.com.mns.
139. Dr. Oğuz BAL. One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. www.tujise.org. Vol. 1, No. 2, August 2014
140. Öznur Özdemir. Tax disruption as a ground force for the Abbasid revolution and a review for modern Islamic historiography.
<http://dx.doi.org/10.17335/sakaifd.354578>

Umumiy soliq



Kuch bilan egallangan

Sulh bilan egallangan

Xalifa uni g'oliblar orasida taqsimlashi mumkin, keyin u ushr yeriga aylanadi

Xalifa uni aholining ixtiyorida qoldirishi mumkin, keyin u xiroj yeriga aylanadi


g'ayri musulmon

- Xiroj to'laydi..
- Davlat himoyasida bo'ladi.
- Yer egalari yerni bir-birlariga sotishlari yoki meros qoldirishi mumkin
- Ularning xiroji belgilangan miqdoridan oshirilmaydi



musulmon



g'ayri musulmon

Ular ushr va zakot solig'i to'lagan

Ular xiroj va jizya solig'i to'lagan



Xalifaning ruxsatisiz xiroj yerini ushr yeriga o'tkazish mumkin emas



Agar musulmon bo'lmagan kishi islomni qabul qilsa

U jizya to'lashdan ozod etiladi



Xiroj to'laydi va shu yerda yashashda davom etishi mumkin

Xiroj to'lashdan qochish uchun bu yerdan ketishi mumkin



Agar musulmon bo'lmagan kishi islomni qabul qilsa

U jizya va xirojdan ozod etiladi

Uning yerlari ushrga aylantiriladi

Uning qarzlari hukumat tomonidan har yili qonunga muvofiq kamaytirib boriladi

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB VIII-IX ASRLARDA ISLOM IQTISODIYOTI NAZARIY-FALSAFIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.....	6
1.1. Ilk Abbosiylar davrida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot.....	6
1.2. Islom mutafakkirlari qarashlarida islom iqtisodiyotining falsafiy asoslari.....	17
1.3. Abu Yusuf – davlat soliq nazariyasi asoschisi.....	28
II BOB ABU YUSUF TA'LIMOTIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING FALSAFIY TAHLILI	37
2.1. Abu Yusuf qarashlarida xalq farovonligi masalalarining falsafiy jihatlari.....	37
2.2. “Kitob al-xaroj” asarida ijtimoiy adolat g'oyasining iqtisodiy-falsafiy tahlili.....	52
III BOB ABU YUSUFNING IJTIMOIIY-FALSAFIY G'OYALARINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	63
3.1. Hanafiy nazariyasining tarqalishida Abu Yusufning xizmatlari.....	63
3.2. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida “Kitob al-xaroj” asarining ahamiyati.....	74
3.3. Abu Yusuf ijtimoiy-falsafiy qarashlarining mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	83
XULOSA.....	93
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	96
ILOVA.....	107

QAYDLAR UCHUN

RAXMONOV ABDUQAHHOR ABSATTOROVICH

**YOQUB ABU YUSUFNING
IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI**

MONOGRAFIYA

Raxmonov Abduqahhor Absattorovich. Yoqub Abu Yusufning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. – T., 2023. 111 b.

Mas’ul muharrir:

***M.Qodirov - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
professori, falsafa fanlari nomzodi***

Taqrizchilar:

***G.M.Ro‘zmatova - O‘zbekiston milliy universiteti professori
falsafa fanlari doktori***

***B.B.Namozov – Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari
doktori***

Monografiya Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Ilmiy kengashining 2023 yil 31 oktyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida tavsiya etilgan. (Bayonnoma №3)

YOQUB ABU YUSUFNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI

RAXMONOV ABDUQAHHOR ABSATTOROVICH

Muharrir: Muhammadjon Qodirov.

Korrektor va dizayner: Ro‘zimurodov Behro‘z.

Tasdiqnoma № 02693, 18.01.2024

Bosishga 30.03.2024 da ruxsat berilgan. Format 60x84/16 Garnitura Times New

Roman. Adadi 100 dona. Buyurtma № 2

**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” nashriyotida
tayyorlandi va chop etildi.**

Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Uvaysiy ko‘chasi 8^A-uy, TOSHKENT Sh.,

"O‘ZSANOATQURILISHBANKI" ATB BOSH OFISI, MFO: 00440,

INN: 310149884 H/R: 20208000905604118001

Telefon: +998-99-674-99-21

e-mail: editor@universalpublishings.com

<https://universalpublishings.com/>

